3) $125 \times 145 = (12+1) \times 14 - 1 = 13 \times 14 - 1 = 182 - 1 = 181$, natija yoniga 25 sonini yozib 18125 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $125 \times 145 = 18125$.

4) $1005 \times 1025 = (100+1) \times 102 - 1 = 101 \times 102 - 1 = 10302 - 1 = 10301$, natija yoniga 25 sonini yozib 1010025 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $1005 \times 1025 = 1030125$.

3. Uch o'nlikga farq qiluvchi ohirgi raqami 5 bilan tugagan sonlarning ko'paytmasi hisoblaganda, 5 sonidan oldin turgan sonlarning kichigiga 1 soni qo'shiladi. Hosil bo'lgan yig'indi ko'paytuvchilardan kattasini 5 sonidan oldingi turgan songa ko'paytiriladi. Natijadan esa 2 soni ayiriladi. Hosil bo'lgan ayirma yoniga 75 soni qo'shib qo'yiladi. Masalan:

1) $15 \times 45 = (1+1) \times 4 - 2 = 2 \times 4 - 2 = 8 - 2 = 6$, natija yoniga 75 sonini yozib 675 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $15 \times 45 = 675$.

2) $25 \times 55 = (2+1) \times 5 - 2 = 3 \times 5 - 2 = 13$, natija yoniga 75 sonini yozib 1375 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $25 \times 55 = 1375$.

3) $105 \times 135 = (10+1) \times 13 - 2 = 11 \times 13 - 2 = 143 - 2 = 141$, natija yoniga 75 sonini yozib 14175 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $105 \times 135 = 14175$.

4) $1025 \times 1055 = (102+1) \times 105 - 2 = 103 \times 105 - 2 = 10815 - 2 = 10813$, natija yoniga 75 sonini yozib 1081375 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $1025 \times 1055 = 1081375$.

4. To'rtta o'nlikga farq qiluvchi ohirgi raqami 5 bilan tugagan sonlarning ko'paytmasini hisoblaganda, 5 sonidan oldingi turgan sonlarning kichigiga 1 soni qo'shiladi. Hosil bo'lgan yig'indi ko'paytuvchilardan kattasini 5 sonidan oldingi turgan songa ko'paytiriladi. Natijadan esa 2 soni ayiriladi. Hosil bo'lgan ayirma yoniga 25 soni qo'shib qo'yiladi. Masalan:

1) $15 \times 55 = (1+1) \times 5 - 2 = 2 \times 5 - 2 = 10 - 2 = 8$, natija yoniga 25 sonini yozib 825 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $15 \times 55 = 825$.

2) $25 \times 65 = (2+1) \times 6 - 1 = 3 \times 6 - 2 = 18 - 2 = 16$, natija yoniga 25 sonini yozib 1625 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $25 \times 65 = 1625$.

3) $145 \times 185 = (14+1) \times 18 - 2 = 15 \times 18 - 2 = 270 - 2 = 268$. natija yoniga 25 sonini yozib 26825 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $145 \times 185 = 26825$.

4) $1035 \times 1075 = (103+1) \times 107 - 2 = 104 \times 107 - 2 = 11128 - 2 = 11126$, natija yoniga 25 sonini yozib 1112625 sonini hosil qilamiz, bu esa umumiy natijadir. Yani $1035 \times 1075 = 1112625$.

Adabiyotlar:

1. Xudoynazarov E. Boshlang'ich sinflarda og'zaki mashqlardan foydalanish metodikasi. Urganch -2011 yil.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O.O'.Y uchun darslik) Toshkent "Fan va texnologiya" 2005 yil.
3. Bikbayeva N.U, Yangibayeva E, Giffanova K.M. 4-sinf matematikasi. "O'qituvchi" Toshkent 2011 yil.

ABDULLA QODIRIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

*Qarshiyeva Mahbuba Abduvali qizi
Gulishton shahridagi Prezident maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qodiy yaratgan obrazlar, uning obraz yaratish mahorati, obrazlarning individual va umumiy xususiyatlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, ratsional, emotsoinal, individual va umumiy xususiyatlar.

So'zlarning jilosi badiiy adabiyotda namoyon bo'ladi. Har qanday asar zamirida insoniyatning orzu-umidlari o'z aksini topadi. O'sha orzu kamolotga undovchi kuch bo'lganidek, jamiyatni ham taraqqiyot sari boshlaydigan kuch idealdir. Insonlarning orzulari va jamiyatning ideali ham adabiyotda aks etadi. Har bir millatning ideali milliy adabiyotda namoyon bo'ladi. Adabiyot milliy shaklda namoyon bo'lar ekan, faqat alohida shaxslarning, millatning orzu-umidlarini ifodalab qolmaydi. Zero, "Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchi bashariyatning ertangi kunini o'ylab odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat, va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda".¹

Asarning o'ziga xosligini ta'minlaydigan yetakchi vosita – obraz yaratishdir. "Badiiy obraz – adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamning badiiy idrok etish vositasi, badiyatning umumiy kategoriyasi. Badiiy obraz deganda borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi anglanadi".²

Mustaqilligimizni, milliy o'zlikni anglashimizda, istiqlol uchun jasorat bilan kurashgan, ozodlik, erk yo'lida qurbon bo'lgan buyuk adib "Mustaqillik" ordeni sovrindori Abdulla Qodiriyning badiiy adabiyotdagi o'rni beqiyosdir. A.Qodiriyning o'lmas asarlari bugun han dolzarb ahamiyatga ega. Uning nazmiy va nasriy asarlarida yaratilgan betakror obrazlari xalqimiz dilidan chuqur joy olgan. Qodiriy ko'pqirrali iste'dod sohibi, o'lmas obrazlar yaratgan edi. Buni biz, ayniqsa, uning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlarida aniq ko'ramiz. Bu romanlar adib ma'naviy izlanishlarining eng cho'qqisida yaratilgan. Asarlardagi Otabek, Kumush, Yusufbekhoji, Anvar, Ra'no kabi obrazlar bugun va kelajakda ham millatning asl kishilari ifodasi sifatida o'z qiymatini yo'qotmaydi.

Otabek: "...oladiring'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham

¹ "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" I.A.Karimov

² "Adabiyot nazariyasi asoslari" D.Quronov
xoting'a muvofiquttab' bo'lsin"

Homid: “Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q. Xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya. Xotining ko‘nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa uchunchisini ol”.¹

Bu kabi tasvirlarda adib Otabek va Homidga xos individual obrazlar yaratgan. Shu individuallik belgilari bilan zamona kishilariga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni – ayolga hurmat bilan munosabatda bo‘luvchi yoki o‘zidan past ko‘ruvchi, uning qalbi va taqdiriga befarq kishilarni ko‘rsatadi. Ya`ni individuallashtirish hisobiga Otabek va Homid obrazlari ko‘z oldimizda konkret inson sifatida gavdalanadi, ikkinchi tomondan obraz badiiy umumlashmalik kasb etadi. Shu tariqa adib badiiy obrazda bir-biriga zid ikki jihat – individuallik va umumiylikni uyg‘unlashtirgan.

Qodiriy yaratgan obrazlarda aql va his ham mohirona birlashtirilgan. Shu boisdan obrazni ratsional va emotsional birlik sifatida tushunish ko‘lami kengaygan. Badiiy obrazning ratsional jihati shuki, uning yordamida ijodkor o‘zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi. Yozuvchi “O‘tkan kunlar”da xon zamonlaridan beri taraqqiyot masalalarini, yurtning ertasi bilan bog‘liq muammolarni badiiy tadqiq qilgan. Obrazlar tizimi vositasida bu boradagi fikr va qarashlarini shakllantirgan va o‘zi anglagan haqiqatni badiiy ifoda etgan: “ – Manimcha, o‘risning bizdan yuqoridalig‘i uning ittifiqidan bo‘lsa kerak, – dedi Otabek, – ammo bizning kundan kunga orqag‘a ketishimizga o‘z ora nizo`imiz sabab bo‘lmoqda, deb ,o‘ylayman”.² Qodiriy xalqning bunday og‘ir kunlarda kimga suyanishni bilmaydigan bir paytda birdamlik kerakligini teran anglaydi. Shu bilan birga bu vaziyatga yechimni ham ko‘rsatib beradi. Ayni paytda asardagi obrazlarda adibning hissiy munosabati ham o‘z ifodasini topgan. “Toshkand tarixida misli ko‘rilmagan Azizbek kabi vahshiyini faqat shu Musulmonqul qo‘lidan oldi. Basharti Musulmonqul chin inson bo‘lsa, insondan vahshiy tug‘ilganini hech kim eshitkan chiqmas”.³ Hissiy munosabat badiiy konsepsiyani shakllantirishda, asar mazmunini o‘quvchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir obrazning hissiy ta`sirchanligi turlicha bo‘ladi va birinchi navbatda ijodiy niyat bilan bog‘liqdir. Abdulla Qodiriy “Mehrobda chayon” ramanida kitobxonga Anvarni tanishtirganda “ ...izzatsiz, hurmatsiz oltinchi “mehmon” bo‘lib tug‘ildi”,⁴ – deya achinarli munosabatda bo‘ladi. Voqealar rivoji davomida ma`lum o‘zgarishlar kuzatiladi. Jumladan, asar boshidagi Anvarga achinish hissi, endi unga havas, mehr va hurmat tuyg‘ulariga aylanib boradi. Voqealar jivojlanib harakter mohiyatiga kirilgani sari hissiy munosabatda o‘zgarishi yuzaga keladi. Hissiy munosabatdagi o‘zgarishlar o‘qish jarayonida kitobxonga ko‘chadi va ayni shu narsa uni asar mazmunini yozuvchi istagandek tushunishga yo‘naltiradi. Qodiriy romanning

¹. “O‘tkan kunlar” 10-bet A.Qodiriy

².3.O‘sha kitob 18-19-bet

⁴ “Mehrobdan chayon” 46-bet A.Qodiriy

so‘nggi– “Qorqunch bir jasorat” bobida Anvarni shunday yetuklikka va jasoratga yetkazdiki, gunohsizlarni tahqirlovchi Xudoyorxonni-da tiyib qo‘ydi.

“ –Gunohsizni mening ko‘z o‘gimda banddan ozod qilinmas ekan, Anvarni bu yerdan chiqara olmaslar, qiblayi olam, –dedi va ovozi tashqarig‘a torta boshlag‘an jallodlarni arslonlarcha siltab yubordi,– sizda adolat bormi, janob?! Qo‘rqunch bu hayqiriq Xudoyorni insofka keltirdi. Jallodlarni to‘xtashqa va hudaychini Sultonalini hozirlashga buyurdi. Ko‘zi qonlangan Anvar ikki qo‘lini yonig‘a tashlab Xudoyor qarshisidab turib qoldi. Hamma sukutda ... Shunday fursatlarda gunohkorni adabsiz so‘zlar bilan so‘kib turg‘uchi Xudoyor ham jim.Chunki a‘yon nazarida har bir adabsizligiga Anvar tarafidan kuchlik bir haqorat olish ehtimoli bor”.¹

Yillar oshgani sari asar har gal o‘quvchini qaysidir jihati bilan sergaklantiradi, hayratda soladi. Yozuvchi davrning muhitini borligicha, turmushning ikir - chikirlari va nihoyatda go‘zal muhabbat tavsiflari bilan bayon etgan. Anvar bolaligidan zakiyligi va jasurligi bilan boshqalardan ajralib turgan. Ana shu hislatlari uni yuqori martabaga ko‘tardi. Uning uchun hamisha adolat, vijdon, to‘g‘rilik hayotning asosi bo‘ldi. O‘zbek romanchiligining asoschisi – Abdulla Qodiriy yaratgan badiiy obrazlardagi ratsional va emotsional jihatlar uyg‘unligi yuksak badiiy asarlarni shakllantirgan. Keltirilgan misollar Qodiriy yaratgan ummondan bir tomchi, xolos. Abib asarlarining ko‘p jihatlari bor. Ular ziyarak kitobxonning nazaridan qochib qutulolmas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” Sharq. T;.2009
2. A.Qodiriy “Mehrobdan chayon” Yangi asr avlodi. T;.2018
3. I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat –yengilmas kuch” Ma`naviyat. T;. 2008
4. D.Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari” Akademnashr. T;. 2018

О'QUVCHILAR МАТЕМАТИК САВОДХОНЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА БАХОЛАШДА PISA ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ О'РНИ

Fayzullayeva Sarvinoz Nabi qizi

BuxDUPI 2-bosqich magistranti

Muxammedova Muattar Iskandar qizi

BuxDUPI 2-bosqich magistranti

Kalit so'zlar: xalqaro tadqiqotlar, kompetentlik, matematik savodxonlik, individual, mustaqil topshiriq, matematik qobiliyat, fakultativ mashg'ulotlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini o'stirishda PISA tadqiqotlarining o'rni, dars mashg'ulotlarida xalqaro baholash dasturi topshiriqlaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini o'stirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni va vazifalari haqida mulohazalar keltirilgan.

“Agar matematika go'zal bo'lmaganda edi, ehtimol matematikaning o'zi ham mavjud bo'lmasdi. Aks holda qanday kuch insoniyatning buyuk daholarini bu qiyin fanga torta olardi”. Chaykovskiy

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta'lim- tarbiya tizimiga e'tibor qaratilib, yosh avlodning jahon andozalariga mos zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, ham jismonan ham ma'nan yetuk insonlar bo'lib yetishishi, ularning iste'dodi va qobiliyatlarini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, har bir yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat tuyg'usini yuksaltirish borasida juda katta ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonning xalqaro baholash tadqiqotlardagi ishtiroki va undagi natijalari dunyo hamjamiyatdagi e'tirofi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta'lim olishini ta'minlash hamda egallangan bilimlarni hayotda qo'llay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida xalqaro tadqiqotlar negizida PISA dasturi ishlab chiqildi. PISA (The Programme for International Student Assessment)- O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha dastur. PISA dasturi orqali o'quvchilarning funksional savodxonligi, jumladan, o'qish(matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi hayotiy muammolarni hal etish ko'nikmalari baholanadi.

PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning matematik tayyorgarligini baholashda quyidagi 3 jihat farqlanadi:

- Topshiriqlar o'quvchilarning kundalik hayotdagi ehtiyoj va qiziqishlariga mosligi
- Muammo mazmunining hayotiyliigi

Matematikani qo'llash bosqichlarining barchasini to'liq qamrab olinganligi, ya'ni, masalani tushunish bosqichidan boshlab, uni matematik tilda ifodalash, yechish va yechimni talqin qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarning hammasini qamrab olganligi. Bu jihatlar o'quvchilarning matematik tayyorgarligini baholash mazmuni ya'ni matematik savodxonlik tushunchasida o'z aksini topadi.

Har bir mamlakat matematik savodxonlik tushunchasi bo'yicha o'z qarashlariga ega va unga kutilgan natija sifatida erishish uchun o'z ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Tarixan matematik savodxonlik yoki kompetentlik asosiy arifmetik ko'nikmalarga ega bo'lish, xususan, butun sonlar, oddiy va o'nli kasrlar ustida qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini bajarish, foizlarni hisoblash, sodda geometrik shakllarning yuzi va hajmlarini hisoblash kabi ko'nikmalarni o'z ichiga olib kelgan. Oxirgi paytlarda esa raqamli texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi odamlarda ma'lumotlar oqimidan shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatlarining paydo bo'lishi, turmushning sog'liq va sarmoyalar bilan bog'liq sohalarida, ob-havo va iqlim o'zgarishlari, soliqqa tortish, davlat qarzi, aholi sonining o'sishi, yuqumli kasalliklar epidemiyasining tarqalishi, jahon iqtisodiyoti kabi ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojlarni ham keltirib chiqardi. XXI asr hayotiy ehtiyojlarining bunday kun sayin o'zgarib borishi esa o'z navbatida matematik savodxonlik tushunchasining kengayib, takomillashib borishini taqozo etmoqda.

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Matematik savodxonlik ta'rifida asosiy urg'u turli sharoitlarda berilgan real muammolarni yechish uchun matematika bilan faol munosabatga berilib, matematik mulohazalar yuritishni, xoh u induktiv, xoh u deduktiv bo'lsin, hamda tabiat va jamiyatda duch kelinadigan hodisalarni matematik belgi va timsollar yordamida, ya'ni matematika tilida ifodalash, hodisalarni tushuntirish va oldindan aytib berishda matematik mulohaza yuritish, matematikaga oid bilim, tushuncha, algoritm, fakt va vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Matematik savodxonlik har bir kishiga matematika olamini tushunishga, uning inson hayotida tutgan o'rnini va ahamiyatini anglashga, faol, mulohazali va ishning ko'zini biladigan (konstruktiv) XXI asr fuqarosi uchun zarur bo'lgan, asosli mulohazalar yuritish orqali maqbul qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida shakllantirishga yordam beradi.

Математик savodxonlik maxsus tuzilgan topshiriqlar yordamida baholanadi va tadqiq qilinadi. Bu topshiriqlarning mazmuni, tuzilishi va shakli tadqiqot mohiyatidan kelib chiqib qabul qilingan muayyan talablarga javob berishi lozim bo'ladi. Hozirgi kunda zamonaviy matematik bilimlar, matematik savodxonlikni baholash uchun butun dunyo PISA tadqiqot usulini tanlamoqda. Butun dunyo mamlakatlari PISA dasturining natijalari asosida o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotga qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi. PISA- Iqtisodiy hamkorlik vataraqqiyot tashkiloti (Organisation for economic Cooperation and Development-OECD) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi. PISA tadqiqotlarida yildan yilga qatnashuvchi mamlakatlarning soni ortib borayotgani uning nufuzi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu dastur orqali quyidagi savollarga javob topish mumkin:

- Maktablar o'quvchi-yoshlarni katta hayotga o'tishiga munosib ravishda tayyorlay olyaptimi?

- Ayrim turdagi o'quv dasturlari boshqalariga nisbatan samaraliroqmi?

- O'quvchilar katta hayotda egalagan bilimlarini qo'llay oladigan darajada savodxonmi?

- PISA tadqiqotlarida topshiriqlar savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

- ❖ "javob to'liq qabul qilinadi"

- ❖ "javob qisman qabul qilinadi"

- ❖ "javob qabul qilinmaydi"

Математик savodxonlikni baholashga qaratilgan maxsus PISA sinov topshirig'ining tuzilmasi (modeli) quyidagi 3 jihat asosida tuziladi:

- topshiriq tegishli bo'lgan matematika fanining mazmun sohasi, ya'ni bo'limlari;
- muammo mazmuni yoki konteksti;
- topshiriqni bajarishda o'quvchilar namoyish qilishi lozim bo'lgan aqliy faoliyat turi

Shuni ta'kidlash joizki, PISA topshiriqlarini bajarish uchun matematikadan juda chuqur bilimlar talab etilmaydi. Ammo, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashga juda ham katta e'tibor beriladi. Ularni fakultativ kurs mashg'ulotlarida ham foydalanish talab qilinadi. Bundan tashqari, matematika fanidan loyiha ishlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim, mening nazarimda. Bunday loyiha ishlariga manba va mavzu sifatida PISA topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PISA 2021 Mathematics Framework (first draft), 45th meeting of the PISA Governing Board, 23-25 April 2018 Stockholm, Sweden.
2. Implementing the Proposed Mathematics Framework: Recommendations for PISA 2021, Peggy G. Carr, Ph.D., Vice Chair, PISA Governing Board Associate Commissioner, National Center for Education Statistics (NCES) May 25, 2018.
3. A.A.Ismailov, N, Karimov, B.Q.Xaydarov, Sh. Ismailov, Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash, uslubiy qo'llanma, Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2019-yil, 120 bet.
4. L.P.Stoylova, A.M.Pishkalo Boshlang'ich matematika kursi asoslari. "O'qituvchi", 1991.
5. F.Qosimov, M.Qosimova, G.Umarova Matematika fanidan ma'ruza matnlari 1-qism, Buxoro.2005
6. F.Qosimov, M.Qosimova, G.Umarova Matematika fanidan ma'ruza matnlari 2-qism, Buxoro.2005
7. F.M.Qosimov, M.M.Qosimova. Matematikadan mustaqil nazorat ishlari to'plami. Buxoro, 2005.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ONA TILIDAN BERILADIGAN MASHQLAR TURLARI

Bozorova Ismigul

*Buxoro viloyati Olot tumani 26-umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darsliklari tahlili haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: o'quvchi, ona tili, sinf, darslik, tahlil, mashq,yol

Istiqlol tufayli xalqimiz yangi tarixiy davrga qadam qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimiga, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etadi. "Ta'lim to'g'risida"gi hamda Xalq ta'limi vazirligining yangi darsliklar avlodini yaratish to'g'risidagi qarori va talablaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan yangi ona tili darsliklari nashr qilinmoqda. Ushbu darsliklar oldiga bir qator talablar qo'yilmoqda. Darsliklarning yangi avlodi, avvalo, unda berilgan o'quv topshiriqlari o'quvchini faol ishlashga, shuningdek, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o'rgatadigan shaklda tuzilmog'i zarur. Hozirda amaldagi boshlang'ich sinf ona tili darsliklari zamon talablariga javob beradimi degan savolga javob izlash maqsadida mazkur darsliklarni tahlil qilamiz. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda prof. A.G'ulomov va H.Ne'matovlar tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga tayanamiz. Ushbu tasnifga ko'ra darslikdagi mashqlar o'quvchilarni izlanishga o'rgatish jihatidan quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Qayta xotirlash tipidagi mashqlar.
2. Qisman izlanuvchanlik tipidagi mashqlar.
3. Ijodiy mashqlar.

Darsliklarida o'quvchini mustaqil ishlash, fikrlashga undovchi ijodiy xarakterdagi mashqlar nihoyatda oz miqdorni tashkil qiladi.

Shuni unutmaslik kerakki, topshiriqlarda barcha o'quvchilar oldiga qo'yilgan talab bir xil, ammo o'quvchilarning saviyasi bir xil emas. Tabiiyki, topshiriqlarni hamma bir xilda to'g'ri bajara olmaydi. Bunday holda qo'shimcha topshiriqlar berish orqali mashq shartini soddalashtirish yo'li bilan o'quvchilarni qiziqtirish mumkin

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda ular nutqini narsa va shaxslarni bildirgan so'zlar bilan boyitish ham muhim rol o'ynaydi. Birinchi sinfda narsa va shaxsni bildirgan so'zlar haqida tushuncha berishda o'quvchilar faolligiga asoslanish lozim. Chunki ular narsa va shaxs nomlarini bildirgan so'zlarni o'zlashtirishga savod o'rgatish jarayonida tayyorlangan. Predmetlarga qarab ularning nomlarini aytishgan. Bundan tashqari o'qituvchining "Bu nima?","Bu kim?","Kim ishdan qaytdi?","Kim

ertalab maktabga yo‘l oldi?” kabi savollaridagi «kim», «nima» so‘roq so‘zlari o‘rniga shaxs, narsa nomlarini qo‘yib javob berishgan. Shuning uchun ham savod o‘rgatish jarayoni predmet bildirgan so‘zlar ustida ishlashning birinchi bosqichi sanaladi.

Bundan tashqari pedagogik faoliyatim davomida bir qancha topshiriqlar tizimini topib, ulardan foydalanib bir qancha yaxshi natijalarga erishganman. Bulardan amaliy mashg‘ulotlar paytida, bo‘lim yuzasidan takrorlash darslarida foydalanilsa o‘quvchilar bilimlari yanada mustahkamlanadi degan umiddaman. Shahar, daraxt, o‘t, baliq, badiiy asar nomlarini aralash keltirilgan so‘zlar guruhi ichidan ajratib aytish yoki yozishga yo‘naltirilgan mantiqiy mashqlar ham yaxshi natija berishi mumkin. Masalan, “beda”, “laqqa”, “she’r”, “ertak”, “o‘rik”, “chinor”, “sazan” va hokazo. “U kim? Bu nima?” didaktik o‘yin

Stol ustiga ber nechta predmetlar qo‘yiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga shu predmet haqida fikrlarni bildiradi o‘quvchilar bu predmet nomini topishlari kerak bo‘ladi.

Ma‘lumki, grammatik tushunchalar muammoli izlanish metodi asosida shakllantirilsa, uzoq vaqt esda saqlanadi. Har bir mavzuni tushuntirishda o‘quvchilar matnni o‘qish, yozish va tahlil qilish orqali o‘z fikr-mulohazalarini aytishi kerak. Ularning fikr-mulohazalari darslikdagi nazariy tushunchalar yoki o‘qituvchining izohi yordamida tasdiqlanadi. Masalan, 313-mashq (129-bet)ni bajarish jarayonida o‘quvchi sifat so‘z turkumiga doir so‘zlarning yozilishini kuzatadi, taxlil qiladi va “Belgini kuchaytirib va ozaytirib ko‘rsatadigan sifatlar qanday yoziladi?” savoliga javob qaytarish uchun izlanishga majbur bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda tilning fonetikasi ham, leksika, morfologiya va sintaksis ham gap, matn asosida o‘zlashtiriladi. So‘zning ifodalaydigan ma‘nosi ham gap tarkibida oydinlashadi. So‘z turkumlarining tildagi roli va vazifasi ham gap tarkibida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan boshlang‘ich sinflarda har bir til hodisasi gap va matn tarkibida o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Gaplarda so‘zlarning sintaktik munosabati gap bo‘laklarini belgilab beradi. Gap bo‘laklari gapni shakllantiradi. Gap bo‘laklaridan bosh bo‘laklar 2-sinfda amaliy o‘rgatiladi. 3-sinfda amaliydan elementar nazariy tushuncha sifatida o‘rganishga o‘tiladi. bilib oladilar. Gap bo‘laklarini o‘rgatish jarayonida hozirgi zamonga mos holda, xalqaro baholash dasturlari talablari doirasida ish olib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Fuzayilov S, Xudoyberganova M, Yo‘ldosheva Sh. 3-sinf uchun ona tili darslik Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.-152bet
2. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.

3. Kamroev A. STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 7. – С. 285-296.

4. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //Ilmiy xabarnoma. – С. 69.

5. Azimov Y. Hamroyev A. //Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari). – 2003.

6. Хамраев А. Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся //Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи. – 2018. – №. 2. – С. 23-26.

7. ҲАМРОЕВ А. БОШЛАНҒИЧ СИНОҒОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ МЕТОДИК МУАММО СИФАТИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.

8. Hamroyev A. R. Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR

Dehqonov Abduqodir Abdusatarovich

Namangan viloyati Chortoq tuman 26-maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish hamda darslarni mavzulardan kelib chiqqan holda ma'lum bir guruhlarga ajratish, o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi xususiyatlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tarix, raqamli tarix, PISA, didaktik shartlar, xarita, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, innovatsion usullar.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, tarix darslarida O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Osiyo mamlakatlari madaniyati", "Yevropada o'rta asr shaharlari", "Osiyo mamlakatlarining o'rta asr shaharlari" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

2. Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. Umumlashtirish - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi.

4. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim

5. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim.

6. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan o'quv materiallari umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, o'quv fanlariaro aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni ta'minlovchi ta'limning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar.

Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 1999 y.

2. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil

3. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127). .

4. E. Perrot, Effective Teaching. New York: Longman. (1982); B. Laar, R. Blatchford, D. Winkley, G. Badman, R. Howards, Effective Teaching. Oxford: National Primary Center. – P.108.

5. A. Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 1999. –P.401.

6. R. Dunne, E.C. Wragg, a. g. e. s. 54 C. Kyriacou, a. g. e. s.45 ;. Laar, R. Blatchford, D. Winkley, G. Badman, R. Howards, - S. 14.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Yusupova Ravshanoy Abdurasulovna

Farg'ona viloyati Rishton tumani XTB 34- maktab

Fizika -texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola o'quv jarayoni ishtirokchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan, fizikani o'qitish amaliyotida ularni hal qilishning mumkin bo'lgan usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: fizika ijodkorlik, qobilyat, maktab fizika kursi ilmiy tadqiqot

Fizika, maktabda o'rganiladigan fanlardan, odatda turli darajadagi maktab fanlari reytingida qiyinchilik bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, ko'pgina o'quvchilarning umumiy bilim ko'nikmalari va qobilyatlari past darajada shu sababli fizika o'qituvchisi oldida quyidagi muammolar turibdi. O'quvchilarning fanga bo'lgan bilim qiziqishini qanday qilib oshirish kerak, o'quvchilarning ilmiy bilimga bo'lgan qiziqishi vaziyatga bog'liq bo'lmasligi va ularning kasbiy hayotining bir qismiga aylanishi uchun nima qilish kerak...

Maktab o'quvchilarining ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish uchun shart sharoitlarni ta'minlash mumkin; o'quv jarayonida usullardan foydalanish, faollik va mustaqillik (bu muammoni hal qilishda muammoli ta'lim alohida rol o'ynaydi); tadqiqot elementlarini o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarning o'quv faoliyatining turli turlari; sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ixtiro bilan tanishish; ijodiy xarakterdagi individual o'quv vazifalarini tashkil etish.

Ta'lim jarayoning bunday tashkil e'tilishi bilan o'quvchi ijodiy tamoyillarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan turli tadbirlarga jalb qilinadi:

1. Tadqiqot faoliyati. Ilmiy - tadqiqot faoliyati deganda o'quvchilarning yechimi no'malum bo'lgan ijodiy, tadqiqot muammosini oldindan ko'rib chiqish bilan bo'g'liq bo'lgan va asosiy bosqichlarning mavjudligini o'z ichiga olgan faoliyati tushuniladi: muammoni qo'yish, ushbu masalaga bag'ishlangan nazariyani o'rganish, tadqiqot usullarini tanlash va ularni amaliy o'zlashtirish, materialini to'plash, uni tahlil qilish va umumlashtirish, o'z xulosalarini aytish. Bunday faoliyatning natijasi ijodiy loyihalar bo'lishi mumkin. Insholar, maruzalar va taqdimotlarni tayyorlash jarayonida talabalar qidiruv faoliyati orqali o'z- o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar, turli manbalar bilan ishlashning xususiyatlari, tahlil qilish, o'z ishlarini yaratish, shu jumladan maqsad va vazifalarni belgilash qobilyatiga ega bo'ladilar.

2. Ijodiy topshiriqlarni yechish va tuzatish. Fizika darslarida ijodiy qobilyatlarni rivojlantirishda masalalar yechish muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, vazifalar uchun

ijodkorlik talab qilinadigan maslalar tanlab olinadi. Muammolarni bir necha usulda hal qilish, ulardan ulardan eng oqilonasini tanlash juda samarali. Ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish uchun sifatli vazifalar tanlanadi.

3. “Folklor” faoliyati. Badiiy asarlardan parchlar ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. O’qituvchi adabiy parchani o’qiydi va quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi. Ko’rib chiqayotgan jismoniy hodisalarni aniqlash; parchada tasvirlangan hodisalarning o’ziga xos belgilari va yuzaga kelish shartlarini ko’rsatish va ularni tushuntirish. Sharoit o’zgarsa, hodisalar qanday davom etadi: parchani qayta ishlang yoki davom ettiring...

Vazifa turlaridan biri- bu obyekt yoki hodisa haqidagi asosiy jismoniy ma’lumotlarni “to’qish” kerak bo’lgan qisqa ertak yoki hikoya yozish. Ertak hikoyalar yozishda ijodiy tasavvurning rivojlanishi sodir bo’ladi. Topshiriqni olgach, o’quvchilar fizika bo’yicha ilgari to’plangan bilimlarni tahlil qiladilar va tizimlashtiradilar.

4. Dizayn faoliyati. Umumta’lim maktabi sharoitida turli to’garaklar va qiziqish to’garaklarining sinflarida loyihalash faoliyati ijodiy qobilyatlarni rivojlantirishning yana bir samarali usuli bo’lib, yosh shaxsni kelajak hayotiga tayyorlaydi. Shunday qilib, fizika- texnika to’garagi darslarida o’quvchilar nazariy jihatdan ishlab chiqish va o’quv jihozlarning yangi modellarini ishlab chiqarishda ishtirok etishlari mumkin. Bunday ish dizayn qobilyatlarini rivojlantiradi, o’z qo’llari bilan ishlash qobilyatini yaxshilaydi, eng maqul yechimni topish, to’siqlarni ijodiy yengib o’tish huchun sharoit yaratadi.

5. “San’at” faoliyati o’quvchilarning ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash, ularni notanish yoki nostandart vaziyatlarda ko’nikmasini qo’llashni shakllantirish fizika fanidan sinfdan tashqari ishlarga ham bog’liq. Bular fizika kuni yoki haftasida o’tkaziladigan tadbirlar: viktorina, QVZ, drammatizatsiya, turli o’yinlar. Bu yerda badiiy qobilyatlar to’liq namoyon bo’ladi, zukkolik, mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Ijodiy faoliyat turlarini amaliyotda amalga oshirishda misol sifatida men maktab fizikasi kursi mavzusini o’rganishda amalga oshirganman. Ko’pchilik o’quvchilar tomonidan sevimli bo’lgan “suyuqlik va gazning unga tushurilgan jismga ta’sir kuchini yani Arximed kuchi va jismlarning suyuqlikda suzish va suyuqlikda cho’kish shartlarini misol keltiraman. O’quvchilarni qiziqtirish va fizika qonunlari hamma joyda, hatto reklama olamida ham amal qilishini ko’rsatish uchun men “MilkWay” sutga cho’kmasligi haqida reklama roligini ko’rishini tavsiya qilaman, chunki u butunlay sutdan iborat.

Eng oddiy tadqiqotlar, tajribalar va kuztishlar o’z-o’zidan maqsad emas, ular fizik qonunlarni chuqurroq tahlil qilish, fizik hodisa va jarayonlarning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Bunday ijodiy topshiriqlar fizika kursini sifatli o’zlashtirishga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash ko’nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Innovatsion ta’lim o’quvchidan ta’lim jarayonining emas, balki subyekti

bo'lishini, o'zini qiziqtirgan har qanday savolini bera olishini va unga mustaqil javob topa olishini talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi, individual xususiyatlarini bilgan holda, har qanday oddiy savoldan ijodiy vazifalarni vazifalarni qurishda foydalanishga harakat qilishi kerak. Uni hal qilish jarayonida har bir o'quvchining istedodi va qobiliyatini kashf qilasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Raxmatov I.I. Raxmatova H Haydarova M.** O'rta maktabda fizika darslarini o'qitishda ekologik tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari "Fizikaning hozirgi zamon ta'limidagi o'rni". Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. Samarqand. 2019. 13-14 dekabr. -B.124-126.

2. **Рахматова Х., Хайдарова М.** Экологическое образование и воспитание на уроках физики в средней школе. International scientific conference «Global science and innovations 2019: Central Asia». Nur-Sultan. Kazakhstan. December 10-12th 2019. pp.72-741

3. **Рахматов И.И. Каххоров С.К., Мухаммедов Ш.М** Особенности построения образовательного процесса на основе модульных технологий обучения в Узбекистане. Вестник науки и образования №18 (96) Москва 2020 год часть 2, стр 33-37

4. **Рахматов И.И., Исмоилова И.** Физика таълим йўналишида мустақил ишларни кредит-модуль тизимида ташкил этиш. Iqtidorli talabalar magistrantlar tayanch doktorantlar va doktorantlarning "Tafakkur va talqin" mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami. Buxoro-2021. B.48-54

5. **Raxmatov I.I. Raxmatov Sh.I.** Fizika darslarida elektron lug'atlardan foydalanish metodikasi. "Fizikaning hozirgi zamon ta'limidagi o'rni". Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. Samarqand. 2019.13-14 dekabr. -B.28-29

6. **Рахматов И.И** Касб-хунар коллежларида физика фанини ўқитишда электрон қўлланмалардан фойдаланишнинг педагогик асослари. Таълим жараёнида инновацион ғоялар ва технологияларни жорий қилиш замонавий

МАКТАBLARDA FIZIKA FANINI O'QITISHDA MATEMATIKANING O'RNI

Kurbanbayeva Mahliyo, Jumaniyozova Oygul, Otajonova Saida
Xorazm viloyati Yangiariq tumani 40-son umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari

ANNOTATSIYA :Bu maqolada fizika fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishda matematikaning o'rni va o'ziga xos usullari keltirilgan. Matematikadagi ayrim fizika bilan bog'liq holatlari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: fizika, elektr qarshilik, burchakning gradus o'lchovi, paralel ulash, tezlik, funksiya, linzalar.

Tabiatga oid bilimlarni o'rganishda fizikaning o'rni katta hisoblanadi. O'rta maktablardagi yuqori sinf o'qilarininuvchig tabiat haqida tasavvurlarini oshirishda fizika fani muhim o'rin egallaydi. Fizika va boshqa fanlarning bir-birlari bilan aloqasi mavzularni tushunarli, aniq, sodda qilib yekazib beradi. Fizik qonuniyat va kattaliklarning mazmun mohiyatini to'liqligicha bayon etadi. Fizika darslarida o'quvchilar tabiat haqida kerakli amaliy bilim va ko'nikmalarni oladilar. Bundan kelib chiqadiki fizikani o'rganishda boshqa fanlarning o'rni muhimdir.

Fizikada o'quvchilar matematik tarzda tuzilgan nazariy modellarni real dunyo bilan bog'lashlari kerak bo'ladi. Ushbu loyiha fizika darslarida (ma'ruzalar, masalalar yechish va laboratoriya ishi) real dunyo - Nazariy modellar - Matematika o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali yuqori va o'rta maktablarda fizikani o'qitish va o'qitishda matematikaning rolini o'rganishga qaratilgan. Dastlabki tahlil shuni ko'rsatadiki, nazariyalar va real dunyo o'rtasida o'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan ba'zi aloqalar mavjud, ammo sinfda muhokamaning asosiy qismi nazariy modellar va matematika o'rtasidagi munosabatlarga to'g'ri keladi, bu esa nazariy modellar va matematika o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

Fizika matematika fani bilan bevosita bo'langan. Matematika fizikada eksperiment yoki nazariy usul bilan aniqlangan natijalarni umumiy va aniq holda ifodalash uchun vosita va texnika hisoblanadi. Shuning uchun fizika o'qitishning samaradorligi o'quvchilarning matematikani qay darajada bilishlariga bog'liq bo'ladi. Quyidagi jadvalda (1-jadval) fizikadagi mavzularning matematikaga oid tushunchalar bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

Algebra darslarida funksiya deb ataluvchi asosiy tushuncha bor. Uning simvolik ko'rinishi $y=f(x)$ bo'ladi. Funksiya masalalarda jadval, grafik, formula ko'rinishlarida beriladi. Shuning uchun fizika darslarining ilk qismini har xil kattalikalar emas funksiyalar, funksiya grafiklarini yasash, vektorlar ustida amallar tushunchalarini o'rgatishdan boshlash kerak. Fizika darslarida o'quvchilar vektorlar tushunchasiga birinchi marta tezlik va kuch mavzularida duch keladilar. U holatda vektorlar fizik

kattalik maʼnosida ishlatiladi. Kattaliklar yoʻnalish va son qiymatlariga ega boʻladilar. Bu paytda oʻquvchilar paralel ravishda geometriya darslarida koʻchish, paralel chiziqlar, nuqtalarning tekislikda joylashuvi kabi tushunchalarni oʻrganishadi.

Fizika darslarida masalalarni yechishda vektorlar va koordinatalar usullaridan keng foydalaniladi. Masaladagi berilgan vektorlar chizmadagi jismdagi joylashuvini emas, masalan toʻgʻri yechishning yoʻllarini ham koʻrsatib beradi. Vektorlar harakatdagi jismning muvozanatda yoki muvozanatda emasligini koʻrsatib beradi. Shu bilan birga koordinatalar sistemasidagi chizmalar hodisalar dinamizmini, va fizik miqdorlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni aks ettiradi. Fizik qonuniyatlar koʻp holarda analitik holda, formulalar koʻrinishida yoziladi. Shuning uchun oʻquvchilar bu qonuniyatlarni tushunishda muammolarga duch kelishadi. Grafik uslub analitik usuldan ancha farq qiladi. Ular quyidagilar: - grafik harakatning ketma-ketligini koʻrsatadi - jarayonning dinamikasini aniq koʻrsatadi

Fizik formulalarni keltirib chiqarish, masalalarni yechimini hisoblash, laboratoriya jarayonida nisbiy va absolyut xatoliklarni hisoblash uchun matematika bizga katta yordam beradi. Fizika sohasida ilmiy hisob-kitoblarni amalga oshirishda matematika muhim element hisoblanadi. Matematika va fizika har biri bir-biriga foyda keltirishi mumkin boʻlgan munosabatlarga ega. Fizika amaliyotchilari uchun matematika ilmiy xulosalarga kelish uchun tahlil va hisob-kitoblarni yakunlash uchun foydalanadigan tuzilmani taqdim etadi. Matematiklar uchun fizika ular boshqa hollarda faqat nazariy maqsadlarda foydalanadigan matematik tushunchalarni tushunishga yordam beradigan amaliy dasturni taqdim etadi. Fizikada ishlatiladigan matematika turlari. Fizikada ishlayotganingizda qoʻllashingiz mumkin boʻlgan matematikaning koʻp turlari mavjud. Fizika insoniyat oldiga matematik metod orqali yechiladigan vazifalarni qoyadi bu esa yangidan yangi matematik tushunchalarni paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Matematika fizika uchun juda koʻp narsalarni beradi. Differensial va integral hisoblashlar yordamida koʻpgina qonunlarni (Nyutonning 2- qonuni, elektromagnit induksiya qonunlari) toʻliq ifoda etish uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Tajribalar shuni koʻrsatadiki chizmalar geometrik usulda fizik kattaliklar oʻrtasidagi bogʻliqlikni (masalan, Ohm qonunidagi I, U va R kattaliklar orasidagi), togʻri va teskari proporsionallik, chiziqli va kvadratik bogʻliqligini aniq namoyon etadi. Fizikani oʻqitishda matematik analiz ham oʻrin egallaydi. Ayniqsa yuqori 10-11- sinflar masalalarni yechishda xosila va integral tushunchalariga duch kelishadi. Oʻquvchilar bu tushunchalarni bilishi natijasida Nyuton qonunlari, elektromagnit induksiya qonunlari, magnit maydon va boshqa qator mavzulardagi masalarni yechishda qiyinchiliklarga uchrashmaydi.

REFERENCES

1. Бугаев А.И. Методика преподавания физики в средней школе. Теорет. основы. Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов. - М.: Просвещение, 1981.
2. Кулагин П.Г. Межпредметные связи в обучении. - М.: Просвещение, 1983.
3. M.Jo‘rayev V.Sattarova . Fizika va astronomiya o‘qitish nazariyasi va metodikasi. “ Fan va texnologiya “ , 2015 y.
4. Isroilov, A. A. (2021). FIZIKA FANIDAN MUSTAQIL TA‘LIM OLIISHDA ELEKTIRON DASTURIY TAMINOTLARNING O.,RNI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 769-775
5. O.,zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O.,zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to.,g.,risida”gi PF-5712-sonli farmoni.
6. KT Tillaboev IU Tadjibaev ASTRONOMIYA DARSLARIDA FOTOMETRIYANI O.,QITISHNING ASOSLARI. Fizikaning rivojida fundamentalinnovatsion tadqiqotlar va uning istiqbollari 144-146 b. 7. Malikov, K.H., Begzatova, Sh.P. MAKTAB LABORATORIYA XONASI EKSPERIMENTAL BILIMLAR MANBAI // ORIENSS. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktab-laboratoriya-xonasi-eksperimental-bilimlarmanbai> (дата обращения: 25.11.2022)

KIMYO FANINI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O`RNI

Qambarov Abduvohid Abdumurotovich
Jizzax viloyati Zafarobod tumani 6-umumiy
o`rta ta`lim maktabi kimyo fani o`qituvchisi

Annatotsiya: Ushbu maqolada o`quvchilarning kimyo faniga bo`lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlarning o`rni va o`qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`z: pedagog, o`qish, bilim, tarbiya, metod, fikr, ta'lim, ijtimoiy.

«Pedagogik texnologiya» iborasi birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha- pedagogik texnologiya (o`qitish texnologiyasi) o`qitishning maqbulligini ta`minlovchi yo`l-yo`riqlar tizimi bilan bog`liq bilimlar sohasidir. Professor N.F.Talizina pedagogik texnologiyani belgilangan o`quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat,-deb hisoblaydi. Professor N.Saydahmedovning aytishicha pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo`lgan ma`lum pedagogik tizimning loyihasi. Professor M.Ochilovning yozishicha pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta`lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob`ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o`zaro ta`sirini inobatga olib o`zlashtirish jarayonlarida qo`llaniladigan metodlar va usullar majmuidir. Bu tushunchaga YuNESKO tomonidan quyidagicha ta`rif berilgan: pedagogik texnologiya- bu ta`lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o`zaro ta`sirini inobatga olib, o`qitish va bilim o`zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish, uni qo`llashning tizimli (loyihalashtirilgan) metodi (usuli)dir. Pedagogik texnologiya ta`lim-tarbiyadan ko`zlangan maqsadga erishish uchun o`quv jarayonida qo`llaniladigan usullar, vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya eskimi, yangimi qadimdan mavjud. Biroq jamiyat taraqqiy etgan sari maorif oldiga o`zining yangidan-yangi ijtimoiy buyurtmalarini qo`yib borganligi tufayli, ta`lim-tarbiya jarayoni ham zamonaviy ilg`or metodlar, usullar bilan boyib, yangilanib boradi. Ta`lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o`qituvchi, ham o`quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo`ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya`ni texnologiyaga bog`liq. O`qituvchi va o`quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o`qituvchi o`quvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim fil`m, tarqatma

material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchilarga bog'liq. Ta'lim jarayonida o'rgatuvchi va o'rganuvchilar hissasining nisbati insoniyat taraqqiyotining (tsivilizatsiyaning) turli davrlarida turlicha bo'lgan. Bir vaqtlar ta'lim beruvchilar yetakchi bo'lgan bo'lsa, ma'lum davrlarda ta'lim oluvchilar tashabbuskor bo'lishgan va bunday faolliklarning ijobiy va salbiy jihatlari tadqiq etilgan. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanmoqda va ommalashmoqda. Pedagoglar bunday ta'lim texnologiyalarini «hamkorlik pedagogikasi» deb atashmoqda. Bunday hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilib, yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bunday ta'lim texnologiyalaridan biri interfaol o'qitish metodlariga asoslangan. «Inter» so'zi lotincha bo'lib, o'zbekcha «oraliq», «o'rtasi», «o'zaro» kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan hamkorlik ekan. Tabiiyki interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimidagi o'zaro faol usullar (metodlar)dan tarkib topadi. Shunday texnologiyalardan biri **Bumerang Texnologiyasi**dir. Otilgan buyumning otuvchiga qaytib kelishini ta'minlovchi o'roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta'limda bumerang metodining ma'nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan holda o'qituvchiga og'zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1.Darsda o'rganiladigan mavzu Anorganik birikmalarning asosiy sinflarining rejasida 4 ta mavzucha bo'lib, sinfdagi o'quvchilar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi mavzucha Oksidlar o'qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh o'quvchilarining har biriga taqdim etiladi. Shu tariqa rejadagi Asoslar, Kislotalar va Tuzlar mavzuchalari ham javoblari bilan birgalikda o'ziga mos nomerdagi guruhlarning o'quvchilariga taqdim etiladi. Har bir guruhdagi o'quvchilar o'zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta mavzuchani o'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o'rganib chiqishadilar.

2.Shundan keyin 4 guruh o'quvchilari aralashtirilib, Yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarning har birida dastlabki 4 guruhlarning barchasidan bir nechtdan o'quvchilarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o'quv materialini yaxlit jamoa bo'lib o'rganish imkoniyati tug'iladi. Muhimi, o'quvchilarda o'quv materialini mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishlash, bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

3. O'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo'lib o'rganish yakunlangach, o'quvchilar dastlabki guruhlarga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O'qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o'zlari tanlagan bir o'quvchi

sheriklarining to'plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o'qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o'tkaziladi. Bunda qo'yilgan savolga to'g'ri javob bergan talaba-o'quvchiga 3 ball, to'g'ri qo'shimcha qilganga 2 ball, to'g'ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo'yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo'yicha o'zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To'g'ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo'shib, boshqalarga 0 ball qo'yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o'zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo'shib qo'yiladi.

5. Endi har bir o'quvchining baholash uchun ularga mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan test tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa o'quvchilari tayyor javoblar asosida tekshirib, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo'yicha ball qo'yiladi.

6. Dars o'qituvchi tomonidan o'quvchilar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va o'quvchilarga to'plagan ballar e'lon qilinib, rag'batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo'ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi. Guruh o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, o'quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog'liq ravishda dars vaqtida yetishmovchilik kutilsa, to'rtinchi bosqichni o'tkazmaslik mumkin. Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rovida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi, o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arziqulov A.U. Interfaol usullar. -Samarqand, 2003.
2. Ilg'or pedagogik texnologiya nima va uni qanday qilib o'quv jarayonida qo'llash mumkin. -Ma'rifat nuri gazetasi, 20 sentyabr 2007 yil.
3. Google.com

МАТЕМАТИКА DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Salimov Javlon Nishanovich

Jizzax viloyati Zafarobod tumani 15-maktab matematika o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematik darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, texnologiya, kommunikatsiya, axborot, fikrlash, aqliy potensial, tadqiqot, qobiliyat, differensiya, metod.

Jamiyatning qay darajada taraqqiy etganligi eng avvalo tizimning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu bevosita yoshlar tarbiyasida o'z aksini topad. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" doirasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim muassalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va ma'naviy dunyoqarshida o'z aksini topmoqda. Yosh avlodda sog'lom turmush tarzini shakllantirish ta'lim muassalarining oldiga qo'ygan dolzarb vazifa bo'lib, buni amalga oshirish bugungi kunning eng muhim va tezkor talabidir. Soha mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko'ra, o'quvchilarning fanga va turli kasblarga bo'lgan qiziqishi birinchi navbatda o'qituvchi faolligiga hamda u orqali amalga oshiriladigan sinfdan tashqari ishlarining qanchalik samarali tashkil etilishi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar ta'limdagi har bir ustozdan o'quvchilarni o'qitish va o'qitishning yangi, ya'ni ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, faol shaxsiyatlilik darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni talab etadi. Matematika darslarida aqliy potensialning o'sishi bizni o'rganilayotgan materialga, ularning dars davomida faoliyatga qanday yondoshishni rejalashtirishimizga yordam beradi. Matematikaga qiziqishning paydo bo'lishi asosan uni o'qitish uslubiga, o'rganishning qanchalik mohirona bajarilishiga bog'liq. Shu munosabat bilan maktab o'quvchilarining fikrlash tarzini kuchaytiradigan yangi samarali texnologiyalarni va o'qitish usullarini izlash ularni mustaqil ravishda bilim olishlariga katta turtki bo'ladi. O'qituvchi har bir o'quvchining faol ishtiyoq bilan yo'ndoshganligi haqida o'ylashi kerak va bu qiziqishning paydo bo'lishi va rivojlanishi, bilimga qiziqishi uchun tayanch manba sifatida qo'llaniladi. Boshlang'ich maktab yoshida muayyan mavzudagi doimiy manfaatlar va moyilliklar shakllanadi, bu davrda bolalar matematikaning jozibali jihatlarini aniqlashga intilishlari kerak. Har bir zamonaviy o'qituvchi "Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qanday qo'llash mumkin" degan savolga javob berishi kerak. O'qituvchining maqsadi - yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilardagi o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini

oshirishdir. Vaholangki, yangi ta'lim texnologiyalari ko'proq amalda o'zlashtirilishi mumkin. "Innovatsiya nafaqat o'zgartirishlar yoki yangiliklar emas, balki tizimning yangiliklarini ta'minlaydigan aql -zakovat elementlarini joriy qilish bilan birga yangi sifatlarni muvaffaqiyatli bajarishdir" (PS Lerner) Innovatsion texnologiyalar rivojlanish bo'yicha ta'lim texnologiyasini, loyiha texnologiyasini, tadqiqot va rivojlantirish faoliyatini, o'quvchi markaziga asoslangan yondashishni, AKT texnologiyalarini, monitoringni o'z ichiga olishi kerak. Taraqqiyotning ta'lim texnologiyalari: o'quv materiallarini taqdim etish muammolari; qisman qidirish faoliyati; mustaqil tadqiqot loyihalari kabilardir. Tanlangan mavzuning ahamiyati matematika saboqlarida samarali innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash zaruriyati bo'lib, matematik ta'limning maqsadiga tez, iqtisodiy va yuqori sifatli erishish imkonini beradi. Texnologiya samarador vosita bo'lib, undan oldingi texnologiyadan ko'ra tezroq yuqori natijaga erishishingiz mumkin. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning samarali ta'lim faoliyatini tashkil qilish, ularni o'z o'zidan muvaffaqiyatli o'rganish uchun qo'shimcha bilimlarni olishlariga o'rgatishdir. Yangi texnologiyalarni joriy etish ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarni ilgari suradi: uning markazida o'qituvchi va o'quvchi turadi.. Bu har bir o'quvchiga o'zi va uning qobiliyatlariga mos keladigan darajada munosib o'qish imkonini beradi. Men o'z amaliyotimda quyidagi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan yoki ularning elementlaridan foydalanaman: - Axborot kommunikatsiya texnologiyalari - Texnologiyalarning differentsiyasi va Individualizatsiyasi Interaktiv texnologiyalar (loyiha usullari, shu jumladan muammoli ta'lim va tadqiqot) -Test texnologiyalari - Salomatlikni tejoyvchi texnologiyalar Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv jarayonida tobora ko'proq o'rin egallaydi. Ushbu texnologiyalarning asosiy afzalligi - axborotning katta qismi axborotning visual xotirasi orqali qabul qilinishi va uning ta'siri Axborot texnologiyalari o'quv jarayonini ijodiy va o'quvchining faollashishigayordam beradi. Matematika darsida multimedia vositalaridan foydalanish menga talay imkoniyatlar yaratadi: multimediya imkoniyatlari tufayli o'quv jarayonini yanada yorqin va qiziqarli tashkil qilish; ta'limni vizualizatsiya qilish, muammolarini samarali hal etish; yangi o'quv materiallarni tushunarli bo'lishi uchun vizualizatsiyalashni takomillashtirish. O'qituvchilar yangi o'quv materiallarni tushuntirayotganlarida prezentatsiyalardan foydalanilsa o'quvchilarda mavzuga katta qiziqish hosil bo'ladi, hatto passiv o'quvchilar ham katta ishtiyoq bilan o'zlashtiradilar. Men multimedia vositalaridan darsning turli bosqichlarida foydalanaman: yangi materialni tushuntirayotganda, og'zaki hisob; nazorat qilish bosqichlarida, takrorlash,uyga vazifa va hokazo. Kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda o'qitiladigan darslar nafaqat o'quv jarayonini jonlantiradi, balki ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Axborot kompyuter texnologiyasidan foydalanmasdan zamonaviy darsni tasavvur qilish qiyin. Axborot

kompyuter texnologiyasidan darsning istalgan bosqichida foydalanish mumkin: 1. Dars mavzusini ko'rsatish;

2. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha savollar yordamida muammoli vaziyatni yaratish;

3. O'qituvchining tushuntirishlari (taqdimotlar, formulalar, diagrammalar, rasmlar, videokliplar va boshqalar);

4. Olingan bilimlarni nazorat qilish; Axborot texnologiyalarining asosiy ta'limiy qiymati shundaki, ular yanada yorqinroq muloqot qilish imkonini beradi.

An'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan kompyuter texnologiyalari orqali dars o'tish afzalliklari talay: a) ma'lumotni yanada aniqroq va ko'rgazmali taqdim etish imkoniyatini berish; bilimlarniko'proq va samarali tekshirish; b) o'quvchilarning ijodiy ishlarida turli xil tashkiliy shakllarni yaratishni; c) o'qituvchi faoliyatlarida uslubiy metodikani ratsionlashtirish kabilarni o'z ichiga olishi mumkin. Agar o'quvchi u yoki bu savol bilan qiyinchiliklarga duch kelsa, u istalgan vaqtda nazariyaga qaytib, ma'lumotni yana bir bor o'rganishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5349-sonli Farmoni Toshkent sh., 2018yil 19 fevral.

2. Морозов. К.А. Информационно-коммуникативные технологии и их применение в педагогической деятельности // Личность, семья общество: вопросы педагогики и психологии: сб.ст. по матер XXX междунар.науч.-практ. конф. –Новосибирск: Сибак, 2013.

3. Шумакова О.В.Безверхая, Е.А., Коваленко Е.В., Мозжерина Т.Г., Кондратьева С.А. Инновационные методы обучения (методические рекомендации для преподавателей) // Успехи современного естествознания.- 2010.- №2. –С. 84-85

BOLA RIVOJLANISHI DINAMIKASIDA KINEZIOLOGIYANING TA'SIRI

Jonpo`lotova Gulhayo Jahonovna

Navoiy viloyati Navbahor tuman 10-DMTT Logopedi

Hayitova Halovat Hazratillo qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 7-DMTT tarbiyachi

Qodirova Moxira Axmatovna

Navoiy viloyati Zarafshon Shahar 2-DMTT tarbiyachi

Ismatova O`g`iloy Majid qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 30-DMTT tarbiyachi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Kinesiologik mashqlar majmuasi shovqin Barmoqlarning nozik motorli harakatlarini rivojlantirish. Muqobil ravishda va iloji boricha tezroq barmoqlarga teginish, indeks, o'rta va hokazolarni bosh barmog'i bilan halqaga ulash va hokazo. Sinov to'g'ri chiziqda (ko'rsatkich barmog'idan ... gacha) amalga oshiriladi*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim tashkiloti, muvaffaqiyatli bo'lishi, tajribasi muvaffaqiyatli.*

Kinesiologiya yoki biomexanika - bu mushaklar harakati va ularning barcha ko'rinishlari haqidagi fan. Butun dunyoda sportchilar, raqqosalar, boshqa o'ziga xos kasb egalarining eng oqilona harakatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan ushbu fanning rivojlanishi jarayonida uning bolalar bilan faoliyatni rivojlantirish uchun amaliy afzalliklari paydo bo'ldi.

Ushbu bo'limda bolalarning o'z ishlarida kinesiologik usullardan foydalanish tajribasi to'plangan. Bo'lim nashrlarida mashqlar va maxsus gimnastika misollari mavjud; tanish qahramonlar va syujetlardan foydalangan holda o'yin va teatr faoliyati. Bo'lim materiallarida bolalarning nutq terapiyasi va nutqini rivojlantirishda kinesiologiya elementlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilgan.

Nogiron bolalar bilan nutq terapiyasida kinesiologiya elementlaridan foydalanish "Yer yuzidagi odamlarning atigi 10 foizi miyaning ikkala yarim sharidan ham muvozanatli foydalanadi. Qolganlari faqat chap yarim sharni rivojlantiradi va o'ngning ulkan ijodiy salohiyatini e'tiborsiz qoldiradi "(Marili Zdeneka." O'ng yarim sharning rivojlanishi. "Intellektual rivojlanishni rag'batlantirish.

Kinesiologik mashqlar majmuasi shovqin Barmoqlarning nozik motorli harakatlarini rivojlantirish. Muqobil ravishda va iloji boricha tezroq barmoqlarga teginish, indeks, o'rta va hokazolarni bosh barmog'i bilan halqaga ulash va hokazo. Sinov to'g'ri chiziqda (ko'rsatkich barmog'idan ... gacha) amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning intellektini rivojlantirishda kinesiologik mashqlar Maktabgacha tarbiyachining intellektini rivojlantirishda kinesiologik

mashqlar.” KINESIOLOGIYA - AYRIM MOTOR MASHQLARI ORQALI AQLI QOBILIYAT VA Jismoniy salomatlikni rivojlantirish fanidir. Kinesiologiya - bu harakat orqali miyani rivojlantirish fanidir. U ikki yuz yildan beri mavjud ...

Kinesiologik mashqlar majmuasi Interhemisferik shovqin Barmoqlarning nozik motorli harakatlarini rivojlantirish Ring. Muqobil ravishda va iloji boricha tezroq barmoqlarga teginish, indeks, o'rta va hokazolarni bosh barmog'i bilan halqaga ulash va hokazo. Sinov to'g'ri chiziqda (ko'rsatkich barmog'idan ... gacha) amalga oshiriladi.



Kinesiologiya. Bolalar uchun kinesiologik mashqlar va o'yinlar - Kinesiologik mashqlarni kondensatsiya yo'nalishi guruhlarida qo'llash

Umumiy nutqi rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tuzatish ishlari mutaxassislar uchun qiyin muammodir, chunki bu guruh bolalari nuqsonning boshqa tabiati va klinik ko'rinishlarni bilan ajralib turadi.

Shakllanish va rivojlanish asab tizimi va miya chaqaloq tug'ilishidan ancha oldin boshlanadi va o'qishni tugatgandan so'ng darhol tugamaydi. Rivojlanishning faol bosqichi hayotning birinchi yillarida sodir bo'ladi, bola dunyoni o'rganganda, u nutqqa ega va miyaning ikki yarim sharining sinxron ishi yaxshilanadi. Barcha ota-onalar chaqalog'ini diqqatli, yaxshi xotira, mantiq, zukkolik bilan ko'rishni xohlashadi. Ruhiy jarayonlar ishini rivojlantirish va takomillashtirishga bag'islangan alohida fan mavjud - bu kinesiologiya.

Neyro-gimnastika mashqlarining har biri miyaning ma'lum bir sohasini qo'zg'atishga yordam beradi va fikr va harakatni birlashtirish mexanizmini o'z ichiga oladi. Natijada, yangi [o'quv material](#) ko'proq yaxlit va tabiiy ravishda, go'yo ong va tana tomonidan idrok qilinadi va shuning uchun yaxshi eslab qoladi. Bundan tashqari,

miya uchun mashqlar ham harakatlar va psixofizik funktsiyalarni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalar miyasi uchun tartibli nafas olishning foydalari

Nafas olish nafaqat fiziologik nuqtai nazardan muhimdir. Bu bola organizmidagi har bir hujayrani kislorod bilan ta'minlashdan tashqari, bolaning irodasini, o'zini tuta bilishini rivojlantirishga yordam beradi. Maktab o'quvchilari uchun nafas olish kinesiologyasi mashqlari qiyin emas, lekin juda foydali.

"Shamni o'chiring"

Bola uning oldida 5 ta sham borligini tasavvur qiladi. U birinchi navbatda katta havo oqimi bilan bitta shamni o'chirishi kerak, keyin hamma narsani o'chirish uchun bir xil hajmdagi havoni 5 ta teng qismga taqsimlash kerak.

"Bosh chayqaladi"

Boshlang'ich pozitsiyasi: o'tirganda yoki tik turganingizda, yelkangizni tekislang, boshingizni oldinga tushiring va ko'zingizni yuming. Keyin bola boshini turli yo'nalishlarda silkitib, iloji boricha chuqur nafas olishni boshlaydi.

"Burun orqali nafas olish"

Mashq qilish bolalarning faqat bitta burun teshigi bilan nafas olishidir. Bunday holda, barmoqlarni to'g'ri joylashtirish muhimdir: o'ng burun teshigi o'ng bosh barmog'i bilan, chap - chap qo'lning kichik barmog'i bilan yopiladi. Qolgan barmoqlar doimo yuqoriga ishora qiladi. Chuqur va sekin nafas olish muhimdir.

"Suzuvchi"

Bolalar tik turgan holda chuqur nafas oladilar, barmoqlari bilan burunlarini yopishadi va cho'kadi. Bu holatda ular aqliy ravishda 5 ga qadar hisoblashadi, keyin o'rnidan turib, havoni chiqarib tashlashadi. Mashq sho'ng'in suzuvchiga o'xshaydi.

Kinesiologiyada ko'z va tana a'zolarining harakati

Ushbu mashqlar to'plami yordamida bola ko'rish sohasini kengaytirishi, fikrlash, yodlash va nutqni rivojlantirish jarayonini yaxshilashi mumkin. Umuman olganda, bolalar uchun kinesiologyik mashqlar o'rganishni faollashtirishga yordam beradi, bunda u emas oxirgi joy ko'zlar va tilning sinxron harakatlari bilan band.

"Ko'zlar va til"

Bolalar chuqur nafas olishadi, yuqoriga qarab, bu vaqtda til ham ko'tariladi. Keyin boshlang'ich pozitsiyasiga qaytib, nafas oling. Xuddi shu narsa til va ko'zlar bilan barcha yo'nalishlarda, shu jumladan diagonallarda nafas olish paytida amalga oshiriladi.

Ushbu mashqni dastlab faqat ko'z harakatlaridan foydalanib, keyin nafas qo'shish orqali osonlashtirish mumkin.

"sakkiz"

O'ng qo'lingizga qalam yoki qalam olib, qog'oz varag'iga sakkizta gorizonttal raqamni chizishingiz kerak. Chap qo'lingiz bilan ham xuddi shunday qiling. Shundan so'ng, bir vaqtning o'zida ikkala qo'lingiz bilan rasm chizishga harakat qiling.

"Yurish"

Ritmik musiqa fonida quyidagi harakatlarni bajaring: har bir qadamni qo'lning to'lqini bilan kuzatib, joyida yuring. Misol uchun, chap oyoq qadam qo'yganda, u qoplaydi va [chap qo'l](#), o'ng tomonda xuddi shu tarzda.

"Qo'l ishi"

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun barcha kinesiologiya mashqlari oson emas. Bolalar ba'zi vazifalarni bajara olmaydilar, shuning uchun qo'llar bilan ishlash o'qituvchilar, nutq terapevtlari va psixologlarga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday harakatlar qo'llarning nozik motorli ko'nikmalarini rivojlantiradi, ya'ni miyaning turli qismlari o'rtasida ko'proq nerv birikmalari hosil bo'ladi.

Mashq qilish - bolaning mushtini stolga qo'yishi, keyin kaftini chekka bilan qo'yishi, so'ngra kaftini yuzaga qo'yishi kerak. Vazifa qo'llar bilan birma-bir, keyin bir vaqtning o'zida ishlab chiqiladi.

"Baqa"

Stol ustidagi kaftlar harakatlarni amalga oshiradi: o'ng tomon yotadi (palma pastga), chap tomoni mushtga siqiladi, keyin esa aksincha. Qo'llarning holatidagi har bir o'zgarish bilan til o'ngga, chapga siljiydi.

Bolalarning mehnatga moslashishi va undan keyin ham hissiy, ham jismoniy dam olishlari uchun maxsus mashqlar mavjud.

Ohangni normallashtirish: "Bog'dagi olma"

Bola o'zini bog'da va chiroyli olma terishga harakat qilayotganini tasavvur qiladi. Buning uchun olmani "yirtganda" imkon qadar qo'llarini cho'zadi, o'tkir nafas oladi va yerga egilib, olmani savatga soladi. Qo'llaringizni navbatma-navbat ishlating, keyin birgalikda.

Bo'shashish kinesiologiyasi mashqlari: "Kamerlar"

Egilish [bosh barmoqlar](#) qo'lingizning kafti ichida, mushtingizni ushlang. Chaqaloq nafas olayotganda, mushtlar asta-sekin maksimal darajada siqilishi kerak. Nafas olayotganda, kaftingizni asta-sekin eching (10 martagacha).

"Muz va olov"

Taqdimotchi buyruq beradi: "Yong'in!", Bolalar faol ijro etishmoqda [turli harakatlar...](#) "Muz!" Buyrug'i paytida bola barcha mushaklarini qattiq siqib, muzlaydi. 8 martagacha takrorlang

Kinesiologiya - bu miya uchun gimnastika.

Psixologiya va neyrofiziologiyada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ma'lum jismoniy harakatlar insonning aql-zakovatining rivojlanishiga ta'sir qilishini aniqladi. Topilmalar asosida yangi tizim paydo bo'ldi -Ta'lim kinesiologiyasi, ong va tana

aloqalarini o'rganish va jismoniy harakat orqali miya faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan.

Amerikalik psixologlar Pol va Geyl Dennisonlar ta'lim kinesiologiyasining nazariy asoslarida dastur ishlab chiqdilar. Neyro-gimnastika - "Miya gimnastikasi"... Bu miyaning tabiiy mexanizmlarini faollashtirishning bir usuli [jismoniy mashqlar](#) harakat va fikrni birlashtirish.

Maxsus tanlangan mashqlar yordamida tana o'ng va chap yarim sharlarning ishini muvofiqlashtiradi va tana va onging o'zaro ta'sirini rivojlantiradi. Neyro-gimnastika mashqlarining har biri miyaning ma'lum bir sohasini qo'zg'atishga yordam beradi va fikr va harakatni birlashtirish mexanizmini o'z ichiga oladi. Natijada, yangi o'quv materialini go'yo ong va tana tomonidan yaxlit va tabiiy ravishda idrok qilinadi va shuning uchun yaxshi esda qoladi. Bundan tashqari, miya uchun mashqlar ham harakatlar va psixofizik funktsiyalarni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi.

Kinesiologik trening ta'sirida organizmda ijobiy tarkibiy o'zgarishlar yuz beradi. Kuch, muvozanat, harakatchanlik, asabiy jarayonlarning plastikligi ko'proq uchun amalga oshiriladi [yuqori daraja](#)... Asab tizimining tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi roli takomillashtirilmoqda. Miya gimnastikasi insonning yashirin qobiliyatlarini ochib berishga va uning miya faoliyati imkoniyatlari chegaralarini kengaytirishga imkon beradi. Neyrogimnastika universal mashqlar tizimi bo'lib, har qanday yoshdagi bolalar va kattalar uchun samarali bo'ladi. Ammo rivojlanish muammolari bo'lgan bolalarda kinesiologyk mashqlardan foydalanish ayniqsa muhimdir.

Demak, kinesiologya - bu miya tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning murakkab mexanizmlari va ularni uyg'unlashtirish usullari haqidagi fan. Bola bilan kinesiologyk mashqlar bilan shug'ullanish, miya qismlari o'rtasida ushbu munosabatlarni o'rnatish tufayli uning aql-zakovatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N.U.Bekboeva, Z.I.Ibrohimova, H.I.Qosimova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish" Toshkent. O'qituvchi. 1995 yil.
2. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar uchun rivojlantiruvchi o'yinlar (ota-onalar va pedagoglar uchun qo'llanma) 1997yil.
3. B.Omonov. "Oilada" Toshkent "O'qituvchi" 1996yil.

РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАРДА ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА АКТ ЛОЙИХАЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ .

Жўраев Воҳид Тоҳсимамаатович

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Сайдахмедов Музаффар Қодирович

Фарғона давлат университети амалий математика

йўналиши 2-курс магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада ривожланган мамлакатларда давлат бошқарувида АКТ лойиҳаларини жорий этиш, ахборотни оммавий бериш, ривожланган мамлакатлар тажрибаси, электрон маъмурият, бошқарувнинг электронлаштирилиши ҳақида маълумот берилган ва таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: электрон маъмурият, бошқарувнинг электронлаштирилиши, Интернет, давлат бошқаруви, электрон демократия (e-Democracy), электрон овоз бериш (voting)

Маълумки, ҳозирги пайт бутун дунёда илмий тадқиқотлар, замонавий ахборот технологиялари, стартап ғоялар, компьютер саводхонлигига алоҳид эътибор берилади. Зеро, мамлакатни тараққий эттириш, иқтисодий жиҳатдан юқори натижаларни қўлга киритиш илм-фан ютуқлари, янги технологиялар билан боғлиқ.

Маълумот ўрнида айтиш лозим, Алоқа соҳасидаги ҳудудий ҳамдўстлик (АСХХ) ташкил топгандан буён ўтган 31 йил давомида АСХХга аъзо давлатлар Алоқа маъмурияти раҳбарлари кенгаши ва МДХга аъзо давлатлар АСХХ ҳузуридаги Ахборотлаштириш бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш раислигига Россия Федерацияси Алоқа маъмурияти раҳбари сайлаб келинган.

Тарихда илк бор ушбу масъулиятли лавозимга бир овоздан Ўзбекистон Республикаси ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазири Шерзод Шерматов лойиҳа деб топилди. Вазиримиз 3 йил муддатга сайланди.

Тадбирнинг яна бир ёрқин ва муҳим янгилигид - Самарқанд вилояти Нуробод туманида “**IT-Village**” мажмуаси очилиши бўлди. 60 иш жойига эга мазкур корхонада 3 та ўқув хонаси, 8 ўринли турар жой, 15 кишилиқ конференц-зал, тиббиёт пункти, эко-кинотеатр мавжуд. “**IT-Village**” республиканинг чекка ҳудудларида **IT**-инфратузилмасини ташкил этиш, болаларни азборот технологияларга қизиқтириш ва ўқитиш имконини яратиш, шунингдек, халқаро ва маҳаллий **IT**-тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш, АКТ соҳасидаги янги йўналиш **IT**-туризмни ривожлантиришга қаратилгани билан аҳамиятли.

Эришилган ютуқлар сирасига IT-арк резиденти – “Revotech” ва АКШнинг “Effika Corp.” компанияси ўртасида 2023 йил учун суғурта соҳасида 20 миллион долларлик аутсорсинг хизмати (БПО) кўрсатиш бўйича меморандум имзоланганини ҳам киритиш мумкин. Корея интеллектуал саноат уюшмаси томонидан Рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни ривожлантириш илмий-тадқиқот институтига улкан ҳажмдаги маълумотни қайта ишлаш учун илғор “Big Data” ва “BI” дастурий маҳсулотидан фойдаланиш бўйича сертификат тақдим этиш бўйича битимга эришилди. Бу лойиҳага 1,65 миллион доллар ажратилиши кўзда тутилган. Шу билан бирга Хитойнинг “ZTE” компанияси томонидан масофавий хизмат экспорти марказларини зарур техника ва ускуна билан жиҳозлашга моддий кўмаклашиш бўйича 100 минг долларлик битим имзоланди.

Шунингдек, Хитойнинг “Huawei” компанияси ва IT Парк ҳамкорлигида Термиз ва Наманган шаҳарларида 2 та масофавий хизмат экспорти маркази ташкил этиш мақсадида яна 100 минг доллар қийматга эга ҳужжат расмийлаштирилди.

Бир сўз билан айтганда, юқорида келтириб ўтилган рақамлар, имзоланган битим ва ҳужжатлар келгусида нафақат АКТ соҳасини ривожлантириш, балки мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришига ҳам ҳисса қўшади. Давлатимиз ривожланган мамлакатлар қаторидан ўрин олишига хизмат қилади.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси ҳақида сўз юритар эканмиз биз давлат бошқарувида АКТ қўлланилишининг олдинги бўлимдагига қараганда кенгроқ тушунилишига ўтамиз. Ғарбий Европа, Осиёнинг кўпчилик мамлакатларида ва АКШда икки тушунча фарқланади. Бу тушунчалар бошқарувнинг электронлаштирилишини – электрон маъмуриятни ва электрон демократияни тавсифлайди. Электрон маъмурият деганда ахборот ва коммуникация технологиялари асосида фуқароларга ҳар хил ижтимоий хизматлар кўрсатилиши тушунилган ҳолда кўпчилик ривожланган мамлакатларда шунингдек электрон демократия тушунчасини ҳам фарқлайдилар. Етарлича кенг бўлган ушбу таъриф билан сиёсий таъсир кўрсатилишини ва рақамли ахборотдан фойдаланиш мумкинлигини ва унинг очиқ-ошкоралигини, Интернет тўфайли давлат ва жамоатчилик институтларининг иштироки билан фуқаролар ва ташкилотларнинг жамоатчилик фикрини шакллантириш жараёнларида демократик иштирок этишини белгилайдилар. Бунда электрон демократия аввал бошданок электрон маъмурият билан биргаликда давлат бошқарувида АКТнинг марказий элементи сифатида қаралиши керак деб ҳисобланади. Башарти дастлаб фуқароларга фақат электрон хизматлар кўрсатилишига эътибор жамланадиган бўлса, демократик иштирок этиш воситаларининг кейинчалик жорий этилиши анча қийин кечади.

Австралия ва Янги Зеландияда барча даражалардаги ҳокимият органлари ишида Интернетдан, ахборот ва коммуникация технологияларидан фойдаланиш ҳозирнинг ўзидаёқ салмоқли натижаларига олиб келди. Кейинги беш йил биринчи босқичда давлат бошқарувида АКТ тизими қандай ривожланиши мумкинлигини яққол кўрсатди. Бунда асосий эътибор ҳукумат ахборотини тарқатиш ва хизматлар кўрсатишнинг самаралироқ ва тежамли усулларига қаратилди. Ушбу вазифа икки жиҳати билан тавсифланади.

Биринчи, Қаранг: Бертельсманн жамғармаси материаллари (Бертелсманн Фондацион) асосий жиҳат ҳукуматдан истеъмолчилар ва фуқароларга ахборотнинг самаралироқ оқимини ташкил этиш билан боғлиқдир. Иккинчи жиҳат Интернет ёки телефон орқали ҳукумат билан ўзаро ҳамкорликнинг хилма-хил турлари учун имкониятларни аста-секин барпо этишдан иборатдир. Австралиянинг федерал ҳукумати 1997 йилда ўз зиммасига олган «2001 йилда барча зарур ҳукумат хизматлари онлайн режимида кўрсатилиши» тўғрисидаги мажбурият муваффақиятли бажарилганлигини эълон қилди. Бош вазир Говард (2002 йил февралда) 1600 дан ортиқ хизматлар ҳозирнинг ўзидаёқ турли ҳукумат муассасалари томонидан онлайн режимида кўрсатилаётганлигини маълум қилди. Асосий соҳаларда ахборот ва хизматлар кўрсатиш даражасини янада ошириш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш учун янги портал (www.australia.gov.au) ишга туширилди. Янги Зеландияда давлат бошқарувида АКТни жорий этиш стратегияси 2000 йилда ишлаб чиқиладиган бўлди. Ушбу стратегия бир нечта устувор йўналишларда, шу жумладан ҳукумат хизматларига киришнинг ягона нуқтасини яратишга жамланди (www.govt.nz). Олдинга қўйилган вазифалар орасида қуйидаги вазифалар бор: хизматлар сифатини ошириш, пул маблағларидан самарали фойдаланиш, Янги Зеландиянинг нуфузини кўтариш ва фуқароларнинг давлатни бошқаришдаги иштирокини кенгайтириш. Стратегия қуйидаги уч асосий принципга асосланган эди: қулайлик ва қониқлиқ ҳосил қилиш, интеграция ва самарадорлик, иштирок этиш. Биринчи босқичда тегишли ҳимояланган муҳитни таъминлаш, метамаълумотларнинг келишилган тузилмасини ташкил этиш ҳамда ҳукумат веб-порталини ривожлантириш стратегияси ва йўналишларини ишлаб чиқиш. 2001 йил декабр ойида стратегия амалга оширилган ташаббуслар ҳисобга олинган ҳолда қайта кўриб чиқилди, июль ойида ҳукуматнинг янги портали ўз ишини бошлади. Европада давлат бошқарувида ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантиришнинг охириги тадқиқотлари илк тадқиқотлар (2001 йил октябрь) маълумотларига қараганда ўсиш бор эканлигини кўрсатди. 2002 йил апрель ойида тақдим этилган ҳисоботга мувофиқ интернетдаги оммавий сервислардан фойдаланиш ва уларнинг интерфаолиги 10 фоизга ўсган ва 55 фоизга яқинлашган. Европа Комиссиясининг ташаббуси доирасида

ўтказилган «Электрон Европани қиёслаш» («Benchmarking eEurope») тадқиқоти давомида ривожланган мамлакатларда давлат бошқарувида АКТ лойиҳаларини жорий этишнинг ушбу босқичидаги асосий вазифа – эҳтимол «бошқарув»нинг мутлақо янги шакллари жорий этган ҳолда давлат бошқарувининг сифат жиҳатидан янги, янада кучли ва самарали тизимини шакллантиришдир. Европа Комиссиясига аъзо бўлган 15 давлатда ҳамда Исландия, Норвегия ва Швейцарияда йигирмата асосий ижтимоий хизматлар баҳоланди. Шундай қилиб, ривожланган мамлакатлар тажрибаси давлат бошқарувида ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантиришнинг навбатдаги босқичига эътиборни қаратиш шак-шубҳасиз эканлиги тўғрисидаги хулосани мустаҳкамлади. Бу босқич ҳозирнинг ўзидаёқ бошланиб кетган. Бугунги кунда фуқаролар ва ҳукумат ташкилотлари ўртасида онлайн операциялари доирасини кўллаб-қувватлаш ва кенгайтиришдан ташқари ҳукуматнинг функциялари ва амалий фаолияти самарадорлигини ошириш учун янги технологиялардан фойдаланиш зарурияти пайдо бўлади.

Янги Зеландия фуқаролари давлат бошқарувида АКТ – одамларга ҳукумат ахбороти ва хизматларидан қулайроқ фойдаланиш, ушбу хизматлар сифатини такомиллаштириш ва фуқароларнинг демократик институтлар ва тартиб-қоидаларда иштирок этишининг кенгроқ имкониятларини таъминлаши учун ҳукумат ташкилотларининг янги технологиялардан фойдаланиш усулидир деб ҳисоблайдилар.

Ривожланган мамлакатларда давлат бошқарувида АКТ лойиҳаларини жорий этишнинг ушбу босқичидаги асосий вазифа – эҳтимол «бошқарув»нинг мутлақо янги шакллари жорий этган ҳолда давлат бошқарувининг сифат жиҳатидан янги, янада кучли ва самарали тизимини шакллантиришдир.

Ривожланган мамлакатлар ҳукуматларида Интернетдан ва вебтехнологиялардан фойдаланишга ўтиш давлат бошқарувида АКТ тизимининг учта алоҳида, бироқ бир-бирига алоқадор элементларини бирлаштиради.

Бу қандай элементлар?

1-элемент – ташкилий самарадорликни ошириш нуқтаи назаридан Интернетнинг бизнес ечими: яъни ҳукумат муассасаларига хусусий секторда майда ва йирик компаниялар фойдаланаётган ташкилий устунликларни бериш учун Интернет ва веб-ечимлардан фойдаланиш – харажатларни камайтириш, маҳсулдорликни ошириш, сифатни яхшилаш.

2-элемент – ахборотни оммавий беришдан (публиш) ва истеъмолчилар/фуқаролар билан ўзаро ҳамкорликнинг оддий шакллари (интераст) тортиб мураккаброқ транзакцияларгача (transact) кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш учун хизматларнинг истеъмолчиларига ва фуқароларга кўпроқ эътиборни қаратиш.

3-элемент – электрон демократия (e-Democracy) – онлайн маслахатлар (consultation), давлат қарорлари қабул қилинишида онлайн иштирок этишининг бошқа шакллари (participation) ва электрон овоз бериш (voting) воситасида фуқароларнинг демократик жараёнларда ва давлатни бошқаришда иштирокини кенгайтириш учун давлат бошқарувида АКТнинг тармоқли ва бошқа корпоратив ресурсларидан фойдаланиш. АКТ жорий этилишига умумий тайёрликнинг 4 шарти:

- кучли раҳбарлик;
- самарали бошқариш;
- технологиялар мавжудлиги;
- ходимларнинг малакаси

Бунда қуйидаги омиллар барча уч элементнинг муваффақиятли амалга оширилишининг асосий шарти ҳисобланди:

- ривожланиш истикболларининг давлат томонидан умумий тарзда қаралиши;
- стратегиядан уни бажаришга ўтиш учун давлатда амалий ишлар режаси мавжудлиги;
- бошқарувнинг ресурслари ва имкониятларини тўғри тақсимлаш;
- кўламли қайта ўзгартиришларга эмас, балки тизимли қайта ўзгартиришларга қодирлик;
- фаолиятни кузатиб бориш ва натижаларни баҳолаш мумкинлиги.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. М.Х., Саидов, Тошкент давлат аграр университети “Агрологистика” кафедраси мудири, и.ф.д, проф.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сонли “Ракамли Ўзбекистон -2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора - тадбирлари тугрисида”ги Фармони.
3. **Осипова**, Осипова Олга Петровна, педагогика фанлари доктори, доцент, профессор, “Таълим тизимини бошқариш” кафедраси. Т.И. Шамова, Москва давлат педагогика университети
4. Жураев В. Т. Pedagogical software in the preparation of future teachers of informatics in an innovative environment //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 182-185.
5. Жўраев В. Т. The Role And Advantages Of Distance Courses In The Innovative Educational System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. –Т.2.–№. 10. – С. 434-439

6. [Онаркулов, М., Якубжонов, А., & Юсупов, М. \(2022\). COMPUTER NETWORKS AND LEARNING FROM THEM OPPORTUNITIES TO USE. Models and methods in modern science, 1\(13\), 59-62.](#)
7. [Абдулазиз угли, Ю. М., Каримбердиевич, О. М., & Махамдин угли, Ё. А. \(2022\). Алгоритмы распознавания речи и классификация методов распознавания речи. central asian journal of mathematical theory and computer sciences, 3\(10\), 15-19.](#)
8. Каримбердиевич, О.М. (2022). Применение вычислительных методов при разработке программ и их математическом моделировании. Евразийский журнал физики, химии и математики , 12 , 131-134.
9. Internet ma'lumotlar : www.australia.gov.au www.govt.nz
10. Saidahmedov Muzaffar Kadirovich
TA'LIM TIZIMIDA ELEKTRON RESURSLAR VA
INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING SAMARALI
JHATLARI

AKSONOMETRIK PROEKSIYADA SIRTLARNING O‘ZARO KESISHUV CHIZIG‘INI YASASH USULLARI

*Malikov Kozim Gafurovich -Nizomiy nomidagi TDPU PhD dotsent v/b.
Sharipov Quvonchbek Alisher o‘g‘li -Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

Аннотация

Ushbu maqolada geometrik sirtlarni o‘zaro kesishuv chizig‘ini aniqlashda grafik dasturdan foydalanish orqali aksonometrik proeksiyasi orqali kesishgan chiziqini aniqlash yo‘llari bayon qilingan.

Аннотация

В этой статье описываются способы определения линии пересечения геометрических поверхностей посредством аксонометрической проекции с помощью графической программы для определения линии поперечного сечения.

Annotation

This article describes ways to determine the intersection line of geometric surfaces by means of an axonometric projection using a graphical program for determining the cross-sectional line.

Калит so‘zlar

Yaqqol tasvir, proeksiya, aksonometriya, izometriya, konus.

Ключевые слова

Ясно описание, проекция, аксонометрия, изометрия, конус.

Key words

Clear description, projection, axonometry, isometry, cone.

Ushbu tadqiqotni olib borish davrida aksonometrik proeksiyalarini o‘qitishda talabalarni kreativligini rivojlantirish jihatdan amaliy xarakterli e‘tibor qaratilgan. Buning uchun mazkur holatni o‘rganishga doir mezonlar asoslangan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Nazariy bilim va kreativlik faoliyatini sifatlariga ega bo‘lishi.
2. Chizmachilik standartlari va qoidalarini bilish, ularni samarali qo‘llash qobiliyatiga egalik.
3. Grafik savodxonlik, fikr va axborotni grafik shaklida tushunish hamda grafik vazifalarni bajarish grafikaviy-konstruktorlik mahsulotni erkin yaratish qobiliyatiga egalik.
4. Raqamli (2D, 3D o‘lchamdagi) texnologiyalar yordamida grafikaviy-konstruktorlik mahsulotlarni yaratish qobiliyatiga egalik.


Ushbu tadqiqotni olib borish davrida aksonometrik proeksiyalarini o‘qitishda talabalarni kreativligini rivojlanish jihatdan amaliy xarakterli e‘tibor qaratilgan.

Buning uchun mazkur holatni o'rganishga doir mezonlar asoslangan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Nazariy bilim va kreativlik faoliyatini sifatlarga ega bo'lishi.
2. Chizmachilik standartlari va qoidalarini bilish, ularni samarali qo'llash qobiliyatiga egalik.
3. Grafik savodxonlik, fikr va axborotni grafik shaklida tushunish hamda grafik vazifalarni bajarish grafikaviy-konstruktorlik mahsulotni erkin yaratish qobiliyatiga egallik.
4. Raqamli (2D, 3D o'lchamdagi) texnologiyalar yordamida grafikaviy-konstruktorlik mahsulotlarni yaratish qobiliyatiga egalik.

«Ta'lim jarayonida to'g'ri tashkil etilgan nazorat nafaqat teskari aloqa funksiyasi bo'lib xizmat qiladi, balki talabaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi:¹ o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi va o'z-o'zini baholashni ta'minlaydi».

«Har bir imtihonchida bilimni baholashning umumiy mezoni bilan birga imtihonga o'zining yondashuvi, pedagogik talab tamoyillarini o'zicha tushunishi va haqgo'yiligi, o'zining bahoga munosabati bo'ladi».² Talabalarni aksonometrik proeksiyalarni qurishda AutoCAD dasturi vositasi orqali buyumni 3D formatda bajarilgan yaqqol tasvirini tekis chizmaga - 2D formatga o'tkazish natijasida fazoviy tassavuri oshishi xizmat qiladi va quyidagi algoritm bo'icha uchta bosqichda amalga oshiriladi.




Birinchi bosqich: Bu bosqichda buyumning yaqqol tasviridan foydalanib uning olddan, ustdan va chapdan ko'rinishlari chizma formatiga joylashtiriladi 1-chizma:

1-chizma

Ikkinchi bosqich: Ikkinchi bosqichda ob'ektni-kesik konusni 3D formatli olddan, ustdan va chapdan ko'rinishlarini va kerakli kesim, qirqimlarini bajarib, o'lchamlarini qo'yib hamda chizmani to'qartirib-pardozlab yasash yoki ishlab chiqarish yoki tayyorlash yoki qurish uchun zarur bo'lgan uning ishchi chizmasi quriladi.

Kesik konusning ko'rinishlarini 2-chizmagidek tasvirlab olingach, chizmani 3D formatdan 2D formatga quyidagicha o'tkaziladi:

2-chizma




¹ Шалова С.Ю. Инновационные технологии итогового контроля при изучении гуманитарных дисциплин // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Проблемы высшего образования. 2011. – № 2. – С. 128–130.

² Деликатный К.Г. Методические рекомендации для преподавателей, проводящих вступительные экзамены в Университет. – Киев: КГУ, 1983.– 38с.

Uchinchi bosqich: So‘nggi uchinchi boqichda an‘anaviy proeksiyaon chizmachilik vazifalarini bajargan, yani ob‘ekt ko‘rinishlarini va uning izometriyasini bitta formatda joylashtirish kabi, kesik konusning yaqqol tasvirini ko‘rinishlardan bo‘sh qolgan chizma qog‘ozi ko‘lamiga, joylash vazifasi bajariladi, 3-chizma. Bunday yondashuv (buyumlarni yaqqol tasvirini alohida format qog‘ozida bajarish ham mumkin edi) talabalarni bevosita ikki o‘lchamli ko‘rinishlarini, uning uch o‘lchamli tasviri bilan qiyoslash, solishtirish va chizmani o‘qish ko‘nikma hamda malakasini oson va qulay oshirish imkoniyatini taminlaydi.

3-chizma

Kompyuterda bajarilgan buyumlarning ikki o‘lchamli ko‘rinishlari bilan bitta formatga, uning yaqqol tasviri-izometriyasi quyidagi algoritm bo‘yicha joylanadi:



Grafik chizialarni bajarishda talabalar ikki proeksiyasi asosida uchunchi etishmovchi proeksiyasi topish va aksonometrik proeksiyasini qurishda bir muncha qiynchiliklar tug‘dirganli sababli talabalarga oldin 3D formatda bajarilgan yaqqol tasvirini chizmasini chizib olish orqali - 2D formatga o‘tkazish natijasida proeksiyalarini hosil qilishda kam vaqt ichida sariflab ko‘zlagan natijasiga tezda hamda ko‘proq ma‘lumotga ega bulib va talabaning kreativ oshishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Маликов К.Г. Аксонометрия назарияси ва амалиёти / Тошкент-монография 2018. 16, 85, 108 бетлар.
2. Malikov K. Theory and practice of axonometry, Monograph, -p. 64-66. 2018.
3. Malikov K. THEORY AND PRACTICE OF CONSTRUCTION OF AXONOMETRIC PROJECTS *European Journal of Research and Reflection in Educational Science* Volume 8 Number 9, 2020 ISSN 2056-5852. – P. 224-231.
4. Malikov Kozim Gafurovich. Axonometry New Practical Graphical Methods For Determining System Parameters. *PSYCHOLOGY AND EDUCATION* (2021) 58(2): 5710-5718 ISSN: 00333077.
5. Mirzaliyev Zafar Eraliyevich, Xalimov Moxir Karimovich, Malikov Kozim Gofurovich, Abduxonov Botir Xusniddinovich. Методика использования нового механизма для построения аксонометрических проекций. *Young scientist*, ISSN: 2072-0297 International scientific journal, No.8 (142) / 2017 part II, -pp. 1-6 Kazan. <https://elibrary.ru/item.asp?id=28395835>.

МАКТАБ CHIZMACHILIK DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QUV DOSKASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

M.K.Xalimov - Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
O.E.Qo'ziyev – Samarqand viloyati Narpay tumani 33-IDUM maktab o'qituvchisi,
O.O.Esonova - Nizomiy nomidagi TDPU TS-302 guruh talabasi

Аnnotatsiya

Mazkur maqolada maktab chizmachilik dars samaradorligini oshirishda o'quv doskasidan foydalanish metodikasi bo'yicha metodik tavsiyalar yoritilgan.

Резюме

В данной статье описаны методические рекомендации по методике использования доски для повышения эффективности школьного урока рисования.

Resume

This article describes methodological recommendations on the method of using the board to improve the effectiveness of a school drawing lesson.

Kalit so'zlari: ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, samaradorlik, qobiliyat, ong, savodxonlik, elektron doska.

Ключевые слова: образование, знания, умение, компетентность, эффективность, умение, сознательность, грамотность, электронная доска.

Key words: education, knowledge, skill, competence, efficiency, skill, awareness, literacy, electronic board.

Ma'lumki, turmush va texnikada yaratilayotgan har qanday yangilikning avval chizmasi bajariladi. Ushbu chizma asosida yangilikning afzalligi, kamchiligi aniqlanadi. Shuningdek, buyum o'zining chizmalari orqali yig'iladi, uning elementlari detallarga ajratiladi yoki ta'mirlanadi. Buyumning chizmasi orqali uni tassavur qilishda uning yaqqol tasviri eng qulay hisoblanadi. Buni esa o'quvchi o'quv plakatlari, dinamik modellar, video proyektor, turli elektron hamda o'quv doskasi orqali tushunishi ta'biidir. Chizmachilik fanini o'qitish davrida, samaradorlikni oshirish jarayonida o'quv doskasidan foydalanish metodikasi yangi talablar asosida ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishi olib borilishi zarurdir. Jumladan, chizmachilik fanini o'qitish jarayonida turli uslublar qo'llaniladi. Odatda, chizmachilik darslarida o'tilgan dars qaytariladi, yangisi tushuntiriladi va o'zlashtirish sifati tekshiriladi. Yangi materialni o'qituvchi og'zaki tushuntiradi, ko'rgazmali o'quv qurollarini namoyish etadi va doskada grafik ishlar bajaradi.

O'rganilayotgan materialni o'quvchi tez, oson va yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlash uchun o'qituvchining doskadagi ishiga bir qancha talablar qo'yiladi. Doskadagi chizma aniq va sinfxonaning turli joyidan yaxshi ko'rinishi (o'qilishi) kerak. Buning uchun chizmalarni yetarlicha katta, chiziqlarni esa aniq chizish kerak. Doskada grafik ish bajarish jarayonida belgilangan Davlat standarti qoidalariga bo'ysiniladi (masalan, chiziq turlari, o'lcham qo'yish qoidalari, qirqim va kesimlar bajarish va b.). O'qituvchining doskadagi ishi ko'p vaqtni olmasligi kerak, chunki darsning asosiy maqsadi o'quvchilarning grafik ishidir. Yuqoridagi talablar o'quv doskasida bajariladigan barcha grafik amallarga ta'luqlidir. U yoki bu tasvirning bajarilish xarakteri chizmaning maqsadi va dars jarayonida tutgan o'rniga boqliq. Ma'lumki, chizmachilikni o'rganish jarayonida o'quvchilar grafik ishlar bajaradilar. O'quvchilar chizmachilik o'quv anjomlaridan foydalanishning to'g'ri usullarini mukammal egalashlari kerakki - busiz chizmani tez va osonlik bilan chizib bo'lmaydi. O'qituvchining doska da ishlash usullarini bevosita ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bunday grafik ish o'qituvchidan chizmachilik asboblarini alohida e'tibor bilan ishlatish qonun-qoidalariga rioya qilishni talab etadi. Namoyish vaqtida o'qituvchining qo'llari aniq, benuqson harakat qilishi lozim. O'qituvchi chizmani chamalashga yo'l qo'ymasdan barcha ishni chizma asboblari bilan aniq bajarilishga harakat qilishi kerak. O'qituvchi ushbu usullarni o'zlashtirib, doskada mustaqil va to'g'ri ishlay oladigan bo'lganidan so'ng chizma asboblaridan foydalanishni namoyish etish zaruriyati o'z-o'zidan yo'qoladi. Keyinchalik chizma chizish jarayonini tezlashtirish uchun o'qituvchi qonun-qoidalaridan chetga chiqib, qo'lda ishlashi mumkin. Masalan, parallel va perpendikulyar chiziqlarni chamalab, faqat chizg'ich yordamida chiza beradi. Yangi mavzu tushuntirilayotganda, doskadagi yangi chizmalarni (masalan: tutashmalar, qirqim va kesimlar v/k.) aniq, chizmachilik asboblari bilan ishlash qonun-qoidalariga to'liq rioya qilgan holda bajarishi talab etiladi. O'tilgan mavzuni (masalan: sirtlarning proeksiyalarini) soddaroq usul bilan chizaverish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, o'qituvchi doskada ishlash jarayonida o'quv dasturi materiali, darsning maqsadi va o'quvchilarning doskada ishlash amallarini hisobga olgan holda ijodiy yondashuvi kerak. Mustaqil daftarda bajarish uchun beriladigan vazifalarning aksariyati odatda doskaga chizib beriladi. Bunday ishga o'qituvchi iloji boricha kam vaqt sarflagani ma'qul, chunki doskada chizg'ich va sirkul yordamida tez, aniq chizma bajarish uzoq tajriba va mahorat talab etadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda uy vazifasiga tayyor chizma zarur bo'ladi. Shu bilan birga o'quvchi daftarda bajariladigan uy ishlarini doskadan eskiz yoki texnik rasm shaklida chizib olib, uyda chizish qonun-qoidalari asosida bajaradilar.

O'qituvchi doskaga chiziladigan chizmalarni tanlashda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- *chizmalar rejadagi mavzularga asoslanganligi, aniq chizilganligi;*

- doskadagi chizmalar sinfxonaning hamma joyidan birday yaxshi ko‘rinishliligi;
- doskada ishlash vaqtida o‘qituvchini kuzata olishini hisobga olishi;
- ikkinchi darajali chizmalar bilan doskani band etmaslik;
- chizmalarning mehnat talabliligi;
- chizmalarni chizish uchun ajratilgan vaqt mutanosib bo‘lishi kerak v/k.

Darsga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi chizmalarning doskada joylashuvi hamda kattaligini oldindan chamalab qo‘yadi. Chizmalarning joylashuvi, ularning iloji boricha doskada katta chizilishini ta‘minlashi kerak. Shu bilan birga chizma bilan doska chekkasi orasida etarlicha joy qoldiriladi. O‘quv doskasidagi har qanday grafik ishlarga estetik talablar qo‘yiladi. Birinchi navbatda bularga – chiziq va yozuvlarning aniqligi, chizmalarning kompozitsion joylashuvi, chiziq turlari aniq ifodalanishi kerak. Ingichka chiziqlar uzoqdan aniq, ko‘rinarli bo‘lishi, asosiy tutash chiziqning qalinligi (yo‘g‘onligi) ingichka chiziqqa nisbatan farqliligi shular jumlasidadir. Odatda, chizma ingichka chiziqlarda chiziladi, so‘ngra chiziqlar bostirib chizib yo‘g‘onlashtiriladi (1-rasm).

1-rasm.


Yaxshi tayyorlangan chizmachilik o‘quv xonasi fanni o‘qitish sifatini oshirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o‘quv xonasida chizma doskasi ham o‘zgacha anjomlanadi. Doskaning yon tomonida bor bilan ishlash uchun asboblari bo‘lishi kerak. Doskaga bor hamda doska artgich-latta qo‘yadigan taglik yoki quticha qotiriladi. Fanni o‘qitish metodikasi bo‘yicha adabiyotlarda o‘quv doskasini anjomlash variantlari yoritilgan, chizmalar bajarish tezligi va sifati chizma asboblarining ishga tayyorligi bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda, chizg‘ich, to‘g‘ri burchakli va teng tomonli uchburchak chizig‘ich, sirkul, transportir hamda lekalol qo‘llaniladi.

Chizmalarni bajarish uchun tutqichli chizg‘ich ayniqsa qulay. Katta lekalolarni o‘qituvchining o‘zi ko‘p qavatli karton yoki boshqa materialdan kichik lekalolarga o‘hshatib mustaqil yasaydi.

Doskani artish uchun nam porolon (gupka) bo‘lagi qulay bo‘lib, qo‘lni ifloslamaslik uchun porolon (gupka) bo‘lagini mahsus yasalgan tunuka qutiychaga

oʻrnatish mumkin. Boʻr bilan ham porolon (gupka) alohida qoʻyilsa, boʻr namlanmaydi. Nam boʻr ishlashga yaroqsiz holatga keladi.

Oʻquv doskasida ishlash uchun boʻr toʻrtburchak shaklida tayyorlanadi. Yoʻgʻon chiziqlarni boʻrning qalinligidan yoki kerak qalinlikda yoʻnalgan tomonidan foydalaniladi (2-rasm).



2-rasm.

Ingichka chiziqlarni chizish uchun boʻrning tabiiy uchidan yoki maxsus yoʻnilgan konussimon uchidan foydalaniladi (3-rasm).



3-rasm.

Sirkulga qoʻyiladigan boʻr boʻlagi bir tomonidan konussimon (ingichka chiziqlar uchun), ikkinchi tomoni (yoʻgʻon chiziq chizish uchun) esa lopatasimon qilib yoʻniladi (4-rasm).



4-rasm.

Oʻquv doskasining vazifalari:

1. Ilmiy axborotlarni grafik usul bilan koʻrgazmali qilib bayon qilish;
2. Doskadagi bajarilgan grafik axborotlarni daftarga koʻchirish koʻnikmasi va malakasini shakllantirish;
3. Oʻquvchilarni saranjom-sarishtalikka oʻrgatish;
4. Chizmalarni toʻgʻri bajarish va shriftlarni standart talabiga mos ravishda koʻchirishni oʻrgatish;
5. Parallel va perpendikulyar chiziqlar oʻtkazish usullarini oʻrgatish;
6. Oʻquvchi va talabalar bilan chizma bajarish sinxronligini taʼminlash;
7. Doskada chizma asboblari yordamisiz chizmalar bajarish texnikasini oʻrgatish;
8. Oʻquv doskasida maktabda 1-3 chizma bajarilsa, kasb-hunar maktablarida 1-6 chizma bajariladi, oiliy taʼlim tizimida 1-10 tagacha chizmalar bajarilishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib maktab chizmachilik darslarida oʻquvchilarning fanni oʻzlashtirishi, oʻqitishning sifat va samaradorligini oshirish, oʻquvchilarni darsga boʻlgan qiziqishini yaxshilash bevosita oʻquv doskasidan foydalanishga bogʻliqligini koʻrish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. E.Ro‘ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. T. Yangi asr avlodi. 2010.
2. М.Эргашов, Ш.М.Адашбоев. StarBoard интерактив доскадан фойдаланишга оид услубий кўрсатмалар. Низомий номидаги ТДПУ ризографи. Т. 2010.
3. М.Халимов, Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. Т., Voris, 2013.

QIZIQARLI TOPSHIRIQLAR ORQALI TALABALARDA CHIZMA BAJARISHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

*Alimov Faxriddin Xusanovich – TDTU “Informatika
va kompyuter grafikasi” kafedrasida katta o’qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qiziqarli topshiriqlar orqali talabalarda chizma bajarishning dastlabki tushunchalarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalar yoritilgan.

Kalit soʻzlari: bilim, koʻnikma, malaka, fazoviy tasavvur, pedagogika, dastlabki tushuncha, test, grafik savodxonlik, faollik.

Maʼlumki, turmush va texnikada yaratilayotgan har qanday yangilikning avval chizmasi bajariladi. Ushbu chizma asosida yangilikning afzalligi, kamchiligi aniqlanadi. Shuningdek, buyum oʻzining chizmalari orqali yigʻiladi, uning elementlari detallarga ajratiladi yoki taʼmirlanadi. Buyumning chizmasi orqali uni tassavur qilishda uning yaqqol tasviri yoki uning ichki tuzilishini oʻrganishda kesim yoki qirqimlar tadbiiq qilish eng qulay hisoblanadi. Shu maqsadda 60712600 – Havo kemalarining texnik ekspluatatsiyasi yoʻnalishining Muhandislik va kompyuter grafikasi fanidan talabalarning dastlabki bilimlarini shakllantirish, ularni chizmani oʻqishga oʻrgatish, xususan Muhandislik va kompyuter grafikasi fanidan dastlabki tushunchalarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqish zarurdir.

Kuzatishlat va taxlillar shuni koʻrsatadiki talaba dastlabki darslardan Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini oʻqitishning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish, talabalarning Muhandislik va kompyuter grafikasi fanidan dastlabki bilimlarini shakllantirishga oid grafik topshiriqlar ishlanmasini tuzish talab etiladi.

Buning uchun quyidagi mavzular boʻyicha talabalarning dastlabki tushunchalarini shakllantirishga oid topshiriqlarni tuzish talab etiladi:

1. Muhandislik grafikasi boʻlimiga oid mavzular.

- nuqtaga oid;
- toʻgʻri chiziqqa oid;
- tekislikka oid;
- koʻpyoqliklarga oid;
- sirtlarga oid;
- chizmachilik oʻquv qurollariga oid;
- oʻlcham qoʻyish qoidalariga oid;
- geometrik yasashlarga oid;
- sirkul egri chiziqlarini bajarishga oid;

- lekalo egri chiziqlarini bajarishga oid;
- to'g'ri burchakli proektsiyalashga oid;
- geometrik jismlar tahliliga oid;
- detal ko'rinishlariga oid;
- detal chizmasida qirqim va kesim bajarishga oid;
- detal eskizi va texnik rasmini bajarishga oid;

2. Talabalarning Muhandislik va kompyuter grafikasi fanidan dastlabki bilimlarini shakllantirishga oid testlar ishlanmasi.

Testlarni Muhandislik va kompyuter grafikasi darslariga tadbiiq qilish orqali talabalarning dastlabki tushunchasini shakllantirishga kelsak, talabalar bilim, ko'nikma va malakasini oshirish, shuningdek ularning fandan dastlabki tushunchasini shakllantirishga jarayonida qanday testlardan foydalanish qulay va samarali chiqishini o'ylab ko'rish lozim. Tahlillar asosida quyidagi test savollari kiritish mumkinli ko'rish mumkin:

1. Tahlil, sintez, umumlashtirish va xulosa chiqarishga asos bo'ladigan test topshiriqlari.

1.1. Lekalo egri chiziqlariga to'g'ri berilgan ta'rifni belgilang.

A. To'g'ri doiraviy konusning yasovchilarining biriga parallel bo'lgan tekislik bilan kesilsa.

C. To'g'ri doiraviy konusning yasovchilarining ikkisiga yoki o'qiga parallel bo'lgan tekislik bilan kesilsa.

D. To'g'ri doiraviy konusning yasovchilarining og'ma kesuvchi tekislik bilan kesilsa.

E. Turli radiuslar bilan chizilgan chiziq.

Javob: _____

2. Amallarning ketma-ketligini aniqlashga mo'ljallangan test topshiriqlari.

2.1. Tutashma bajarish bosqichlarini belgilang.

1. Berilgan aylana chiziladi.
2. Tutashma radiusi aniqlanadi (R).
3. Tutashma markazi aniqlanadi (O).
4. Tutashma nuqtalari aniqlanadi (1,2).

Javob: _____

3. Hukm chiqarish ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan test topshiriqlari.

3.1. Quyidagi beriladigan fikrlarning qaysilari to'g'ri bo'lsa "ha", noto'g'ri bo'lsa "yo'q" so'zlarini qo'ying.

- A. Tashqi tutashmada berilgan radius aylana radiuslariga qo'shiladi.
- B. Tashqi tutashmada berilgan radius aylana radiuslaridan ayriladi.
- C. Ellips lekalo egri chizig'i.


D. Oval sirkul egri chizig'i emas.

Javob:

A	B	C	D

4. Ijodiy (kreativ) test topshiriqlari.

4. 1. Lekalo egri chiziqlarini aniqlang va jadvalga har bir raqam ostiga mos raqamlarni yozing. 1) ellips; 2) parabola; 3) giperbola; 4) sikloida;



Yuqorida keltirilgan topshiriqlar vositasida talabalarda Muhandislik va kompyuter grafikasi fanidan bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish, shuningdek ularning fanga oid dastlabki tushunchalarini shakllantirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Engeneering Drawing. (Darslik), M.B.Shah B.C.Rana. 2009, India.
2. Chizma geometriya va kompyuter grafikasi. (Darslik). Y.A.Askarov, A.E.Jabbarov, A.A.Ibragimov, X. M. Shadimetov S.S.Saydaliyev. "ADAD PLYUS" Toshkent. 2019 y.
3. Чизма геометрия. (Дарслик), Хорунов Р.Х. 1997 й.
4. Сборник задач по начертательной геометрии (Учебное пособие), Арустамов Х.А. 1977 й.
5. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. (O'quv qo'llanma), Akbarov A. 2005y.
6. Chizma geometriya. (Darslik), Murodov Sh.K., 2006 y.
7. Лабораторный практикум по созданию геометрических построений в среде AutoCAD. методическое пособие, Синдаров Р.У. 2013 г. Ташкент. ТАДИ
8. Начертательная геометрия (Учебник) С.А.Фролов. 1983 г. Москва. Машиностроение.
9. Начертательная геометрия (Учебник) А.В.Бубенников. 1985г. Москва. Высшая школа.
10. Начертательная геометрия и компьютерная графика (Учебное пособие) Аскарлов Ю.А, Жаббаров А.Э, Ибрагимов А.А. 2017 г. Ташкент. Таш ИИТ

CHET EL KOMPETENSIYALARINI O'QITISHDA XORIJIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA SAMARALI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Talaba: Baxtiyorova Sevinch Sherzod qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
xorijiy til va adabiyot II-fakulteti 2- bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Yuldasheva F.F.

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet el kompetensiyalarini o'qitishda xorijiy innovatsion usullarni amaliyotga samarali joriy etishning ahamiyati va zamonaviy metodlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Abstract: In this article, provides information about the importance and modern methods of effectively introducing foreign innovative methods into practice in teaching foreign competence.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности и современных методах эффективного внедрения зарубежных инновационных методов в практику обучения иноязычной компетентности.

Kalit so'zlar: chet tili, kompetensiya, innovatsiya, tajriba, interfaol tajriba; foreign language, competence, innovation, experience, interactive experience; иностранный язык, компетентность, инновации, опыт, интерактивный опыт;

Chet tili deganimizda xayolimizga, asosan, ingliz tili keladi. Ingliz tilidan tashqari bizning mamlakatimizda ispan, nemis, fransuz va boshqa ko'plab xorijiy tillar o'qitib kelinmoqda. Mamlakatimizda hozirgi kunda ingliz tiliga va yana boshqa chet tillariga alohida e'tibor va ularning rivoj topishi uchun katta imkoniyatlar berilib kelinmoqda. Avvalo, chet tilini o'rganishda intensiv usullar va turli xil metodlar qo'llanilib kelinmoqda. Shu metodlarning bir nechtasini va Chet tilini o'qitishda "metod" so'zi uch xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchi ma'nosi, metodika sohasidagidagi bir yo'nalish (misol uchun to'g'ri metod, aralash metod va b.); ikkinchi ma'nosi, o'qitish sistemasi (mas. Fransua Guen metodi, Harold Palmer metodi, Maykl Uest metodi va b. lar); uchinchi ma'nosi, o'quvchi va o'qituvchining o'zaro bog'langan faoliyat usuli. "Prinsip" so'ziga esa Prof. Y. Passov ta'biricha, "prinsip-o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevorid" Tabiatda prinsiplar yo'qligi, faqat qonunlar borligi haqida bilish nazariyasida ma'lumotlar keltiriladi.

Chet tilini rivojlantirish uchun qabul qilingan qonunlar:

"Ta'lim muassalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori.

2017-2018 o'quv yilidan boshlab uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlaridan chet tilini o'zlashtirish darajasini davlat ta'lim standartlarida belgilangan "Tinglab

tushunish" (Listening), "O'qish" (Reading), "Yozish" (Writing). "Gapirish (Speaking) ko'nikmalari asosida baholab boorish mexanizmini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish;

2018-yil 1-yanvardan boshlab chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi davlat namunasidagi til sertifikatiga ega bo'lgan o'quvchi, talaba va pedagoglarga yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida til o'rganish amaliyotlarini tashkil etish;

2018-yil 1-sentabrgacha chet tillarini o'qitishning asosiy bosqichlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari va akademik litseylarda ta'minlanishini nazarda tutgan holda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'zaro uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga asosan o'quv dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish vazifalari yuklansin;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil qilingan Davlat test markazi, Xalq ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim markazi bilan birgalikda sertifikat olish istagini bildirganlarga talab hajmidan tizimli ravishda hududlarda test sinovlarining o'tkazilishini ta'minlansin.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ommamiy axborot vositalarida chet tillida ko'rsatilayotgan dasturlar hajmini ko'paytirish, bolalar uchun qiziqarli mavzularda kitoblar chop etish va teledasturlarni ko'paytirish tavsiya etilsin. Qayd etib o'tilsinki, mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillariga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Chet tilini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar

To'g'ri metod: Bu metodda chet tilini o'rganishda o'z ona tilini chetlab o'tish va chet tili o'rtasida aloqa va bog'liqlik paydo bo'ladi. Keyinchalik esa, aynan o'sha tilning grammatikasini o'rgatishda ham shunday yo'l tutilgan.

Qiyosiy metod: "Ongli qiyosiy metod". Ushbu metodga A.V.Sherba asos solgan va hozirgi davr chet tiliga moslashtirgan. Ushbu metodni pedagogika fanlari akademiyasining a'zosi I.B.Raxmonov samarali davom ettirgan. 60-yillardan keyin ushbu metod zamonaviylashtirildi. Albatta, ingliz tilini o'rganishda nutqiy faoliyatga ham e'tibor berish kerak. Bu narsani o'stiruvchi va rivojlantiruvchi 3 narsa haqida aytib o'tiladi.

1. Ingliz tilidagi so'zlar bilan doimo ishlash; 2. Ingliz tilidagi so'z birikmalari yoki iboralar ustida ishlash; 3. Ingliz tili bilan bog'liq bo'lgan nutq bilan ishlash.

Ingliz tilini o'rganishda interfaol usullar doimo foydalanib kelingan, bu usullar shuningdek o'z samarasini bergan va hozirda ham qo'llanilib kelinmoqda. Interfaol usullar talabani pedagogik qobiliyatini oshirishga, ko'nikma va bilim berish malakasini oshirishga xizmat qiladigan usullar jamlanmasidir. Ushbu usullardan foydalanish talabaning ta'lim olish imkoniyatini oshirishga va jahon andazalariga mos holda o'qitilishiga yordam beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ✓ Talabalarning mustaqil fikr yuritishlariga qo'ldan kelgancha yordam berish;
- ✓ Kviz kartochkalaridan foydalangan holda mustaqil fikrlashlarini oshirish;
- ✓ "Warm-up exercises"lardan foydalanish;

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ayni paytda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish darsni har tomonlama sifatli va qiziqarli o'tish imkonini beradi va innovatsion texnologiyaga qiziqish kundan kunga ortib bordi. Innovation texnologiyalar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga tahlil, xulosa qilishga o'rgatadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Q.Xatamova M.N.Mirzayeva " Ingliz tili dasrlarida qo'llaniladigan interfaol usullar" mavzusida uslubiy qo'llanma, Navoiy-2006-yil
2. J. Jalolov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi", "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.08.2010-yildagi 610-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012-yildagi PQ-1875-son

KITOBLAR QANDAY O‘QILADI?

Kelsinova Gulnoza

O‘zDJTU talabasi

Ilmiy rahbar : Yuldasheva F.F

O‘zDJTU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitoblarni qanday qilib tez va samarali usulda o‘qish, hamda qanday qilib ulardan maksimal darajada foyda olish, kitob o‘qish davomida duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni samarali bartaraf etish usullari yoritilgan.

Abstract: This article describes how to read books fast and with useful ways, and how to profit from them in a maximum extent, the difficulties encountered during reading the book and the methods of their effective elimination.

Аннотация: В этой статье рассказывается о том, как читать книги быстро и эффективно, как извлечь из них максимальную пользу, о трудностях, возникающих при чтении книг, и о том, как их эффективно преодолевать.

Kalit so‘zlar: kitoblar, o‘qish, metodlar, kitobxon, badiiy adabiyotlar, sharh, tavsif, muallif, satr, sarlavha.

Key words: books, reading, methods, reader, fiction, comment, description, author, line, title

Ключевые слова: книги, чтение, методы, читатель, художественная литература, рецензия, описание, автор, строка, название.

Bir paytlar Frensis Bekon “Ba’zi kitoblarni tatib ko‘rish kerak, boshqalarini yutib yuborish kerak, ba’zilarini chaynash va hazm qilish kerak” deb ta’kidlagandi.[1] Darhaqiqat umrimiz davomida biz o‘qiydigan ba’zi kitoblar shunchaki bir marotaba o‘qishga arziydi, ba’zilari esa qayta qayta o‘qish kerak, yana ba’zilarini “suv qilib ichib yuborish” kerak. Hozirgi kunda judayam ko‘plab yoshlar kitob o‘qishga qiziqishadi, xoh badiiy adabiyot bo‘lsin, xoh o‘zlarining tanlagan sohalaridaga adabiyotlar. Kitob o‘qish, umuman olganda, inson uchun har tomonlama foydali bo‘lgani holda, kishining dunyoqarashi, saviyasi, va madaniyatini isloh qiladi. Muntazam kitob o‘qiydigan insonlar uchun kitob hayotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan. Mana shu kitoblarni o‘qishdan olinadigan foydani maksimal darajaga chiqarish uchun quyida kitoblarni qanday o‘qish va tahlil qilishda kerakli qoidalar keltirib o‘tiladi.

1)Kitob tuzilishini tahlil qilish:

1. Kitob mavzusi va turini aniqlash.
2. Kitobda yozilganlarni iloji boricha qisqa va lo‘nda ifodalash.

3. Kitobning barcha asosiy bo‘limlarini aniqlab, huddi butun kitobni tahlil qilgandek ko‘rib chiqish.

4. Muallif qanday muammolarni yechishga urinayotganini aniqlash.

2) Kitoblarni bilim yetkazuvchi manba sifatida tanqid qilish:

1. Kitobni tahlil qilmay turib tanqidni boshlamaslik zarur.

2. Bilim va fikr o‘rtasidagi farqni hisobga olib, barcha fikrlarni asoslash.

3. Muallif qayerda yetarlicha ma’lumot bermagani va noto‘g‘ri ma’lumot berganini ko‘rsatish.

4. Muallif fikridagi mantiqsiz joylarni topish, uning tugallanmagan xulosalarini aniqlash.

5. Muallif argumentlarini topish yoki kitobdagi fikrlardan muallif nima demoqchiligini aniqlash.[2]

Yuqoridagi qoidalar samarali o‘qish uchun juda katta yordam beradi. Hozirda hamma joyda ko‘p kitob o‘qishga targ‘ib qilinyapti lekin o‘qilgan yoki o‘qiladigan kitoblarni qanchalik darajada samarali yoki foydaliligiga kam e’tibor berilyapti. Geraklit shunday ta’kidlagan: “Ko‘p ma’lumotni bilish aqlga o‘rgatmaydi”. Xususan inson qancha ko‘p chalkash ma’lumot qabul qilsa fikrlar shuncha chalkash bo‘ladi. Fikrlarni bunday holatga kelmasligi uchun inson duch kelgan narsani o‘qiyvermasligi kerak. Olingan ma’lumotlarni samarali va foydali bo‘lishi uchun ma’lum bir prinsiplardan foydalaniladi. Jumladan, Artur Shopengauer ham shunday fikr bildirgan: “Ko‘p o‘qish nafaqat befoyda, (chunki o‘qish jarayonida kishi begona fikrlarni olib, chala o‘zlashtiradi, holbuki o‘zi shunga aqli bilan yetishi mumkin edi) balki aql uchun zarardir, chunki bu ish uni zaiflashtiradi, g‘oyalarni o‘zining boshidan emas tashqi manbalardan yig‘ishga o‘rgatib qo‘yadi”.

Bir-ikki kitob o‘qib uni juda yaxshi tushungan aql yil mobaynida 100 ta kitobni yutib yuborgandan kuchliroq, boyroq bo‘ladi. “Avvallari kitob oz, ilm ko‘p edi. Hozir kitoblar ko‘p, ilm oz” degan edi Ibn Javziy. Darhaqiqat, hozir ko‘pchilik kitoblarni shunchaki o‘qiyotganday. Bugungi kunda har qanday inson juda ko‘p kitob o‘qishi kerak degan tushuncha shakllanib qolgan ayrim yoshlar orasida. Lekin “Ko‘p o‘qish” juda nisbiy tushunchaliginiyam aytib o‘tish kerak. Kingadir, qaysidir holat uchun, maqsad va imkoniyatlarga qarab bo‘ladi. Bir yilda 500 ta birinchi sinf bolalari uchun chiqarilgan kitobni o‘qigan bilan shu davrda Kvant fizikasiga bag‘shlangan 70 betlik monografiyasini o‘qib tushungan odam bilan barobar emas. Albatta bu bo‘rtirilgan misol.[3]

Hozirgi kunda jamiyatimizda yengil- yelpi kitoblarga bilan talab juda yuqori. Yoshlar qiyin janrdagi ilmiy va badiiy, ilmiy ommabop asarlarni kamdan kam o‘qiyaptilar. Shuning uchun quyida qiyin kitobni qanday yengish haqida metodlar keltiriladi.

Ba'zi insonlarda shunday fikr o'rnashib qolgan bo'lishi mumkin: "Barcha oson o'qiladigan kitoblar hamisha foydalidir" Yo'q, aslida also unday emas. Sababi inson miyasi oldin bilgan, o'qigan narsasini yengil qabul qiladi, bunday narsalarni o'qish jarayoni ham silliq kechadi. Buning ham foydasi bor, albatta: avvallari olingan bilimni puxtalab olish, unutilayotgan narsani qaytarish kerakli mashg'ulotlardan. Lekin eski narsani qaytarish yangi bilimlarni olish degani emas. Yengil yoki tanish narsalarni o'qiyverish tafakkurning chegaralanishiga olib keladi.[4]

"Foydali kitob hamisha qiziqarli yozilgan bo'ladi" Bu fikr ham noto'g'ri, chunki siz uchun foydali bo'lgan hamisha ham qiziqarli bo'lavermaydi, ba'zida siz o'zingizga kerakli bo'lgan bilimni olish uchun judayam zerikarli bilan ma'ruza matnlarini, ilmiy kitoblarni o'qishingizga to'g'ri keladi.

"Qiyin kitoblarga aqlim yetmaydi, ularni ochib ham o'tirmayman" Bu fikr judayam ko'plab insonlarda bo'lishi mumkin. Lekin bu fikr ham mutlaqo xato. Sizga zerikarli va yoki qiyin tuyulgan matnlar, malakangizni oshirish yoki dunyoqarash kengligi uchun foydali bo'lib, unda yangicha yondashuvlar, avvallari uchramagan yangi ma'lumotlar bor. Notanishlikni miya yoqtirmaydi, darrov diqqatni burish, kislorodni bo'g'ib, esnoq tuttirishga kirishib ketadi, qorinni ochirib qo'yadi yoki hojatga chaqirib qoladi. Bunga sabab: miya organining dasturida "Zo'riqmay mazza qil! Quvvingni arsa!" buyrug'i bitilgan. Ongli kishi bu primitiv buyruq o'rniga "O'qib o'zgar, bo'lmasam halok bo'lasan! Bir oz qiynal, evaziga katta rohat topasan!", degan dasturni ham yoqa bilishi kerak[5]. Kishi o'zini qiyin yozilgan, qalin jildli kitoblarni, uzun maqolalarni oxirigacha o'qishga majburlay olishi kerak agar oldin eshitmagan bilmagan termin, atama, ma'lumotlarga duch kelinsa qo'shimcha manbalardan foydalanib, tushunishni osonlashtirish kerak. Kasb yoki dunyoqarashning rivojlanishi uchun foydali topilgan eng murakkab va eng semiz kitobni olib xijjalab o'qishga o'zni undash kerak. Shundagina inson kutilgan natijaga erisha oladi. Qiyin kitoblarda ko'pgina tushunarsiz qolgan ma'lumotlar baribir miyada iz qoldirardi. Bu safar tushunmasangiz, boshqa manbalarda xuddi shu ma'lumotlarni uchratib qolasiz va uni chuqurroq anglab yetasiz.

Quyida esa o'qilgan narsani qanchalik tez unutilishi va bizning xotiramiz qanday ishlashi haqida ma'lumot keltiriladi.

Nemis psixologi, eksperimentlar psixologiya vakili Herman Ebbinghausning (1850-1909) yozishicha biz o'rgangan narsalarimizni 24 soatdan keyin uchdan bir qismini unutar ekanmiz. Uning xotiraga bag'ishlangan tadqiqotlarida ko'ra: 1) o'rganishning birinchi 9 soatida unutish ko'p uchraydi, 2)ustalik darajada(juda ko'p takrorlangan) o'rganilgan narsa juda uzoq vaqt davomida yodda qoladi, 3)unutilgan narsalarni o'rganish birinchi marta o'rganilayotgan narsadan ancha tez o'zlashtiriladi, 4)ma'noli narsalar tasodifiy va ma'nosiz narsalardan ko'ra 10 marotaba tezroq esda qoladi, 5)kitobning boshidagi va oxiridagi qisimlari juda tez eslab qolinadi, 6)

o‘rganishdan 9 soat o‘tib o‘rganilgan narsaning 60 foizi yoddan chiqadi, 24 soatdan so‘ng esa uning uchdan ikki qismi unutiladi.[6] Shuning uchun Hermann o‘rganilgan narsani tez tez qaytarib turish kerakligini ta’kidlaydi. Bu borada o‘zbeklarning : “ Takrorlash bilimlarning onasidir” milliy xalq maqoliga amal qilish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, shubhasiz kitob o‘qish — har bir insonning dunyo qarashi, fikrlashi, muomala madaniyati xullas har bir jihatdan o‘shishga yordam beradi. Lekin, kitobga oshno bo‘lmagan insonlar bu qimmatli bilimlardan bebahra qolishadi. Ko‘p kitob o‘qish - insonni ilmi qilib qo‘ymaydi. Balki qanday kitob o‘qish va uni amalda qo‘llash muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/kitobni-qanday-oqish-kerak>
2. <https://t.me/subnazar>
3. <https://t.me/subnazar>
4. <https://t.me/+TVMG5wrzICmh91Io>
5. “How to read a book” Mortimer J. Adler, Charles Van Doren
6. Philosophical root magazine, page 48.

XORIJIY TIL KOMPETENSIYALARINI O'QITISHDA INNAVATSION TEXNALOGIYALARNI AMALYOTGA SAMARALI JORIY ETISHNING AHAMIYATI .

Ilmiy rahbar: Yuldasheva F.F

*O'zbekiston Jahon tillari universiteti katta
o'qituvchisi.*

Talaba: Isajonova Diyora Muzaffar qizi.

*O'zbekiston Jahon tillari universiteti
II-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy til kompetensiyalarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish va yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda o'rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchayirish ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchini hosil qilishni ham o'z ichiga oladi.

Abstract: this article discusses the effective introduction of innovative technologies into practice in teaching foreign language competencies and a new technological process and new modern methods of teaching. Also, increased interest in students in relation to the foreign language they are studying also involves putting into play the internal capabilities of their memory, making sure of their own strength in the students.

Аннотация: данной В статье рассматривается эффективное внедрение инновационных технологий в практику обучения иностранным языковым компетенциям и рассматривается новый технологический процесс и новые современные методы обучения. Также повышение интереса учащихся к изучаемому иностранному языку предполагает задействование внутренних возможностей их памяти, формирование у учащихся уверенности в собственных силах.

Kalit so'zlar: kompetensiya, innovatsiya, xotira, tajriba tizimi, interfaol metod.

Yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishdagi yangicha zamonaviy yondashuv xorijiy til o'qitishning maqsadini o'quvchilarga bilim berish va ma'lum, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagina emas, balki shu bilan birga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchayirish ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchini hosil qilishni ham o'z ichiga oladi. Tajriba tizimi va usul uslublari Ma'lumki

ta'lim jarayoni murakkab hisoblanadi. Xorijiy til darslaridayangi o'quv materialini prezentatsiya uning turli mashqlar orqali mashq qilinishi va turli nutqiy vaziyatlarga mos qo'llash orqali tegishli nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Talabalarning darsdagi faolligini oshirishda qator interfaol usullardan fodalanish mumkin. Interfaol metod iborasi ingliz tilidagi "interactive" so'zidan olingan bo'lib u talabalarda ichki faollikni oshirishni nazarda tutadi. Ushbu metodning turli qator turlari bo'lib hozirda keng qo'llanilayotgan "aqliy hujum", ishbilarmonlik o'yinlari, "pinbord", "klaster", sinkveyn", "kyubik texnologiyasi" rolli o'yinlar kabi interfaol metodlarning ayrim ko'rinishlari ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan. Interfaol o'qitishda guruh guruh bo'lib o'qitish, 3-3 kiashidan iborat kichik guruhlar tuzish, samaralu hisoblanadi. Yuqoridagilarni umumlashtirib "innovatsion texnologiya deb atash mumkin. Izlanishlar natijasi Hozirgi kunda interfaol metodning yuzdan ortiq yuti mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba sinovdan o'tib yaxshi natija bergan. Ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- Darsni o'qitish jarayonida har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishda erkin muloqotga kirishishni rivojlantirish;

- Talim jarayonida ham faollikni oshiruvchi metod va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish .Izlanishlar muhokamasi shuni korsatadiki, Innovatsion texnologiyalarning xorijiy til kompetensiyalarni o'qitishdagi ahamiyati katta. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsni sifatli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiya ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogic jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egalashni takomillashtirish usullaridir. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatga yangilik, o'gartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda mustaqil ishlash ko'nikma va malakasi rivojlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ayni paytda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish darsni har tomonlama sifatli va qiziqarli o'tish imkonini beradi va innovatsion texnologiyaga qiziqish kundan kunga ortib bordi. Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga tahlil, xulosa qilishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Xinkel E. ikkinchi tilni o'qitish va o'rganishda madaniyat. Oksford, 1999. 2.
- 2.Rabatjazi, M. A. (2008). Til ta'limi: madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiya va o'quv dasturi. Glossa, 3 (2), 245-265
- O'zbekiston ilmiy kutubxonasi akademik tadqiqotlar, O'zbekiston 358
www.ares.uz 3. Nitro S. til, madaniyat va o'qitish. NJ, 2002 yil

INGLIZ TILINING TO‘LA-TO‘KIS DUNYO TILIGA AYLANISHI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Ilmiy rahbar: Yuldasheva F.F

*O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti katta o‘qituvchisi*

Talaba: Xazratova Farzona Aliyorovna

O‘zDJTU 2-bosqich talabasi

Annotasiya : Mazkur maqolada ingliz tilining qanchalik ahamiyatga egaligi va uning rivojlanib borish bosqichlari, innovatsiyadagi yuqori o‘rni va qanday qilib xalqaro tilga aylanganligi haqida ma‘lumot beriladi.

Abstract: In this article provides information about the importance of the English language and the stages of its development, its high place in innovation and how it became an international language.

Аннотация: В этой статье представлена информация о важности английского языка и этапах его развития, его высоком месте в инновациях и о том, как он стал международным языком.

Kalit so‘zlar: ommaviy axborot vositalari, xalqaro til, kelt qabilalari, bosma nashrlar, lotinlar qo‘lyozmalar, uyg‘onish davri, investitsiya fondlari, xalqaro bitimlar, inqilob; mass media, international language, Celtic tribes, printed matter, Latin manuscripts, Renaissance, investment funds, international agreements, revolution; средства массовой информации, международный язык, кельтские племена, печатная продукция, латинские рукописи, Возрождение, инвестиционные фонды, международные соглашения, революция;

Siz biron bir sababga ko‘ra ingliz tilini o‘rganmoqdasiz, lekin bu xalqaro aloqalar tili bo‘lganligi sababli emas. U filmlar yaratadi, mashhur musiqalarni yozadi, boshqa mamlakatlardagi sayyohlar bilan muloqot qiladi, xalqaro diplomatik uchrashuvlar va boshqa ko‘plab tadbirlarni o‘tkazadi. Dunyodagi har qanday mamlakat pasportidagi ism ingliz tiliga tarjima qilinadi. Lekin nima uchun aynan ingliz tili? Buni aniqlaylik. Nufuzli davlatlar Gollivud dunyodagi eng yirik film fabrikasidir. Amerika va Britaniya ommaviy axborot vositalari butun dunyoda tan olinadi va hurmat qilinadi. Ingliz va amerikalik san‘atkorlar butun dunyoda tinglanadi. Xalqaro til tabiiy ravishda ushbu mamlakatlarning ta‘siriga tushdi. Nima uchun bugungi kunda inglizlar hukmronlik qilayotganini aniqladik. Keling, bir necha asrlar oldin orqaga qaytib, nima uchun bunday bo‘lganligini bilib olaylik. Qachon ingliz tili xalqaro til bo‘lib qoldi va unga boshqa til aralashishi mumkinmi?

Britaniya O‘rta asrlarga qadar ingliz tili hozirgi zamon polyak yoki turk tillari bilan bir xil edi. Buyuk Britaniya darhol kuchli davlatga aylanmadi. Dastlab, bu Rim

imperiyasidan boshlab, boshqa xalqlar tomonidan ushlab turilgan kuchsiz kelt qabilalari edi. O'sha paytda xalqaro til lotin tili edi. Bu olimlar, diplomatlar va boshqa millatlar bilan tez-tez aloqada bo'lganlar uchun qulay edi. O'sha davrdagi eng ma'lumotli odamlar ruhoniylar va rohiblar bo'lganligi sababli, lotinlar qo'lyozmalar shaklida va hatto bosma nashrlar paydo bo'lgandan keyin ham tarqalishi tabiiydir. Uyg'onish davri o'zgarishga olib keldi. XVII-XVIII asrlarda Angliya iqtisodiy va harbiy kuchga ega bo'ldi. Endi ingliz kemalari Yevropaning savdo yo'llarini, Hindiston, Shimoliy Amerika, Avstraliya, ko'plab Afrika mamlakatlari ustidan nazoratni amalga oshirmoqda. Britaniya imperiyasining hukmronligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Va xalqaro savdo uchun qaysi universal tilni ishlatish kerakligi haqida savol tug'ilganda, shubhasiz.

AQSh, Ispaniya, Gollandiya, Fransiya va Germaniya terma jamoalari o'zaro kelishuvga erishishdi. Katta geografik kashfiyotlar davrida zamonaviy AQSh hududini faol mustamlaka qilish boshlandi. Muhim hududlar ispanlar tomonidan, boshqa qismi fratsuz va gollandiyaliklar tomonidan xususiylashtirildi. Qanday bo'lmasin, deyarli har qanday yevropaliklar Yangi Dunyoda ozgina vakillikka ega edilar. Dastlab ispanlar va inglizlar fransuzlarni quvib chiqarishdi va bugungi kunda ular faqat Kanadaning ba'zi viloyatlarida qoldi. AQSh mustaqillik urushi boshlanishi bilan global o'zgarishlar boshlandi. Fransiya va boshqa Yevropa davlatlari inqilobni Angliyani tiyib turish va uning yanada kuchayishiga yo'l qo'ymaslik uchun qo'llab-quvvatlashga tayyor edilar. Va muvaffaqiyatga erishdi. Birinchidan, sharqiy qirg'oq mustaqillikka erishdi, keyin ozodlik jangchilari Ispaniya yerlariga yetib borguncha uzoqroq va g'arb tomon harakatlanishdi. Shu sababli, inglizlar o'z ta'sirini ota-ona mamlakatlariga qarzdorligi aniq. Ilgari Buyuk Britaniya yirik imperiya bo'lib, hududlari bir necha qit'alarda bo'lgan. AQSh bugun siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ta'sirchan mamlakat. Bu vaqtga kelib, Meksika ham o'z mustaqilligini e'lon qildi va hozirda AQSh mustamlaka yerlarini emas, balki kontinental qo'shnilarining hududlarini zabt etmoqda. XIX asrning o'rtalariga kelib, AQSh eng yaxshi hududlarni egallab oldi. Keyin, Britaniya Kanada shimol tomonni, Meksika esa qurg'oq janubni egalladi. Yevropani zaiflashtirgan jahon urushlaridan so'ng, Qo'shma Shtatlar yanada ta'sirchan bo'lib qoldi va tez orada ustunlik paydo bo'ldi. Esperanto Shu bilan birga, XIX asrning oxirida, polshalik bir shifokor, yangi "Esperanto" tilini o'ylab topish g'oyasini olg'a surdi. U grammatik va leksik jihatdan sodda, o'rganish uchun iloji boricha qulay bo'lishga va'da berdi. Har qanday mamlakatning fuqarosi tomonidan o'zlashtiriladigan qoidalar, talaffuz va urg'u uchun minimal qoidalar va istisnolar mavjud emas. U boshqa Yevropa tillariga xos xususiyatlarga ega edi: polyak, fransuz, italyan, rus tilidan ozgina ... Esperanto xalqaro tilga aylanishi kerak edi (lingvo internacia, esperantoning o'zi gapiradi). Bugungi kunda ona tilida so'zlashuvchilar juda kam. Uning tarafdorlari dunyoni yangi tilni yaratish va qo'llab-quvvatlashni xohlashiga ishontira olmadilar.

Nega, qachon ingliz hamma uchun mos keladi? Buni o'rganish qiyinroq bo'lishi mumkin, ammo hech bo'lmaganda bu juda qiziqarli.

Ingliz tili muhimligicha qolaveradimi? Ehtimol, ha. Uning ta'siri faqat o'sadi. Internet va global bozorning rivojlanishi bilan mamlakatlar tobora ko'proq o'zaro aralashib ketmoqdalar. AQShda paydo bo'lgan ma'lumotlar darhol butun dunyoga tarqalmoqda. Filmlar, kitoblar, ommaviy axborot vositalari - barchasi tarjima qilinadi va mahalliy bozorda xizmat ko'rsatadi. Ammo asl nusxasi ingliz tilida qoladi. So'nggi bir necha o'n yilliklarda "qarzlilar" sonining ko'payishini hisobga olgan holda, turli xalqlar tobora keng tarqalgan lug'atga ega bo'lib, ko'pincha tarixiy ingliz tiliga ega.

Foydalangan Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil, 17-bet;
2. Ingliz tilidan amaliy foydalanish - Maykl Svan, 110-bet;
3. Stylistics of literary text. Ashurov.D.U.Galieva. M.R, 58-bet;

IFLOSLANGAN SUVLARNI TOZALASH USULLARI VA ULARNING SAMARASINI QUYONLAR GEMATOLOGIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA

Berdikulov X., Berdikulova N.

Jizzax davlat pedagogika universiteti E-mail: berdikulovk@list.ru

Ishning dolzarbligi shundan iboratki, ota-bobolarimiz suvni muqaddas bilib, suvga tupursang ko'r bo'lasan deyishgan. Bu so'zlarga ko'p vaqt qonun sifatida qarab, suvni e'zozlashgan, undan oqilona foydalanishgan, ariqdagi suvlardan bemalol ichimlik suv sifatida foydalanishgan. Keyinchalik, mustabid tuzum davrida turli kimyoviy vositalarning qo'llanilishi natijasida suvlar ham yaroqsiz holga keldi. Natijada suv va suvdan foydalanishni ham davlat tomonidan nazorat qilish nafaqat zarur, balki shart bo'lib qoldi. Ushbu bobda Respublikamizda suvdan foydalanish va uning holati, daryolarning gidrolik tavsifi, kanallar, ko'l va suv omborlari, ularning hozirgi ahvoli, suv resurslarini muhofaza qilish kabi muammolariga alohida e'tibor berilgan.

Respublikada is'temol qilinayotgan suv miqdorining 95 % daryo va soylardan olinadi. Suvni is'temolchilarga o'z vaqtida va kerakli miqdorda yetkazib berish maqsadida ko'plab kanal va zovur, doimiy nasos stansiyalari qurilgan. Respublikamiz qishloq xo'jaligi sug'orma dehqonchilikga asoslangan. Suv xo'jaligida umumiy suv sarfi sekundiga 2500 kub metrdan ortiq bo'lgan 75 yirik kanal, umumiy hajmi 18,6 kubmetr bo'lgan 53 suv va 32, 4 ming kilometr xo'jaliklar aro kanallar, 4889 ta nasos agregatlari, 1479 ta doimiy nasos stansiyalari, 10180 ta tik drenaj va suv chiqish quduqlari, 30,4 ming kilometr xo'jaliklararo kollektorlar bor. Suv inshootlarini ishlatish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni O'zbekiston Respublikasi suv va qishloq xo'jaligi vazirligi va uning joylardagi tashkilotlari bajaradi.

Aholining dunyo miqyosida yidan-yil ortib borishi yangidan-yangi, ilgari bo'lmagan muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ana shunday dolzarb muammolardan yana biri ichimlik suv masalasidir. Masalaga yuzaki qaraganda sayyoramizda suv behisob cheksiz- chegarasizdek bo'lib ko'rinadi. Lekin, aslida unday emas. Agar jahondagi barcha suv zahiralari 1.500 million kub km bo'lsa, uning 94 foizi okean, dengiz suvlaridir. Suv zahiralarning faqat 6 foizi esa yer osti suvlari va muzliklaridir. Jahondagi ichishga yaroqli suvlar esa barcha suv zahiralarning faqat 0,0221 foizini tashkil etadi, ko'rinib turganidek, ichimlik suv masalasi dunyodagi eng og'ir muammolardan biri sifatida kun tartibida turibdi [45].

Suv zahiralarning, jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi va ifloslanganligi O'zbekiston uchun ham katta tashvish tug'dirmoqda.

Hududimizdagi daryolar, kanallar, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham inson faoliyati ta'siriga uchramoqda. "Sug'oriladigan hududlarda suv tabiatning bebaho in'omidir. Butun hayot suv bilan bog'liq. Zotan suv tugagan joyda hayot ham tugaydi. Shunday bo'lsada Markaziy Osiyoda suv zahiralari juda cheklangan. Yiliga 78 kub kilometr suv keltiradigan Amudaryo va 36 kub kilometr keltiradigan Sirdaryo asosiy suv manbalaridir".

Suv zahiralarning kamayib ketishi va havzalardagi suvning sifati tobora yomonlashib borishiga mintaqamizda 60-yillardan boshlab yangi yerlarning keng ko'lamda o'zlashtirilishi, sanoat, chorvachilik komplekslarining rivojlantirilishi, kollektor zovur tizimlari qurilishi hamda urbanizatsiya kuchayishi o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi.

O'zbekiston hududini kesib o'tuvchi eng katta suv artereyalari bo'lmish Sirdaryo va Amudaryo hamda ularning irmoqlari O'zbekistondan tashqarida boshlanadi. Norin, Qoradaryo, So'x, Chirchiq, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sherobodaryo O'zbekistonning yirik daryolari hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi faqat o'rta va quyi oqimda yig'ish maydonida 38 kub kilometr suv to'planadi. Uning faqat 10% O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi. Amudaryoning suv yig'ish maydonidan to'plangan 78 kub kilometr suvning esa faqat 8 foizi O'zbekistonga tegishli.

O'rta Osiyodagi muzliklarning asosiy qismi O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan. O'zbekistondagi daryolarga suv beruvchi muzliklarda sifatli tabiiy suvning katta zahirasi mavjud. Daryolarning to'linsuv davri suv manbaining turi va suv yig'ish havzasining balandligiga qarab bahor yoki yozda kichikroq daryolarda 1-2 oy, yirik daryolarda 3-4 oy muddatda davom etadi. Bu davrda daryolarda yillik suv hajmining 70-95% oqib o'tadi. Ba'zi yillari daryolar yom'gir suvi hisobiga bo'ladi. Yog'in bug'lanishiga nisbatan ko'p bo'lgan tog' cho'qqilarida muzliklar vujudga kelgan. Piskom daryosi havzasidan muzlikning quyi chegarasi hiyla pastda. Bunday muzliklarning daryolarga suv yig'ilishida ishtiroki katta. Daryolar tog'lardan tekislikka chiqqach suvi sug'orishga olinishi, ekinzorlardan qayta daryolarga kelib qo'yilishi va suv omborlari vositasida tartibga solib turilishi natijasida ularning tabiiy yo'nalishi o'zgaradi. Aksariyat daryolar suvning loyqaligi o'rtacha 200-500 g/kubni tashkil qiladi.

Ishning maqsadi shundan iboratki, ifloslangan suvlarni tozalashning biotexnologik usullari va ularning samarasini quyovlar gematologik ko'rsatkichlari asosida o'rganish.

Ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, ifloslangan ichimlik suvlarni biotexnologik usulda, ya'ni suvo'tlar yordamida tozalashga qaratilgan tajribalar mahalliy sharoitda birinchi marta olib boriladi va ularning natijasi quyovlar gematologik ko'rsatkichlarini o'rganish orqali baholanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, ushbu ish yuzasidan olib borilgan tajribalar natijasida aniqlangan ma'lumotlardan ilmiy maqolalar yozishda va amaliy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu ish yuzasidan olib borilgan tajribalar natijasida aniqlangan ma'lumotlardan suvo'tlar yordamida ifloslangan suvlarni tozalash texnologiyasini amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda ichimlik suvi, uning ifloslanishi va ifloslangan suvlarni tozalash hamda oqova suvlarni zararsizlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buriev S.B., Xujjiev S.O. Razrabotka biotexnologicheskix osnov ochistki zagryaznennbix vod s vodnbimi rasteniyami i ispolzovaniya ix v selskom xozyaystve// Qishloq xo'jaligida ekologik muammolar: Xalqaro ilmiy-amaliy konf. to'pl. -Buxoro, 2003. -B. 418-419.

2. Xo'jjiev S.O. Yuksak suv o'simliklarining oqova suvlarda o'sishi, rivojlanishi va ularni tozalashdagi mohiyati// Ijodkor yoshlar va fan-texnika taraqqiyoti: Resp. ilm-amal konf. to'pl. - Buxoro, 2004. -B. 127-128.

3. Xo'jjiev S.O. Eyxorniya o'simligini «Navoiyazot» ishlab-chiqarish birlashmasi oqova suvlarida o'stirish biotexnologiyasi// Problembi biologii i meditsinbi. -Samarkand, 2005. -№4 (42). -S. 48-50.

4. Xo'jjiev S.O. Bioxilma-xillikni saqlashda oqova suvlarni tozalash biologiyasining ahamiyati// O'zb. Resp. biologik xilmaxilligining ekologik muammolari: Resp. ilm-amal konf. tez. to'pl. -Navoiy, 2006. -B.132-133.

5. Bo'riev S.B., Xo'jjiev S.O. Yuksak o'simliklarning sianidlarni parchalashdagi ahamiyati// Biol., ekol. va tuproqshunoslikning dolzarb muammolari: Resp. ilm-amal konf. tez. to'pl. -Toshkent, 2006. -B. 156-157.

6. Ilyasov A.S., Xujjiev S.O. Ekotoksikantbi i biosfera/ Metodicheskaya rekomendatsiya. - NavGPI, 2007. -54 s.

7. Bo'riev S.B., Xo'jjiev S.O., Baqoev X.Yu. Oqova suvlarni tozalash biotexnologiyasi yutuqlari va istiqbollari// Ekologiya xabarnomasi. - Toshkent, 2007. -№10 (79). -B.17-18.

ЭКАЛОГИЯ СОХАСИДАГИ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ

Бердикулов Х., Бердикулова Н.

Жиззах давлат педагогока университети E-mail: berdikulovk@list.ru

Кимё саноатида кимёвий хавфли объектлар (КХО) зарур моддалар, кимёвий бирикмалар ишлаб чиқариш фаолияти билан муҳим урин эгаллайди. Бундай корхоналар юртимиз иктисодиётига катта фойда келтириши билан биргаликда, аҳоли учун бир канча хавф ҳам тугдиради. Кимёвий хавфли объектлар синфига факат захарли моддалар ишлаб чиқарадиган катта корхоналар эмас, балки узида кучли таъсир этувчи захарли моддалар (КТЭЗМ) ишлатадиган, саклайдиган, ташиладиган бошка корхоналар ҳам киритилади. Улар аҳолига кимёвий авариялар билан хавф солади.

Кимёвий авария деганда атроф- муҳитга кучли таъсир этувчи захарли модда туқилиши ёки хавога чиқиши натижасида инсонларни захарланишига ёки нобуд бўлишига, озик-овқат маҳсулотлари, чорва моллари, усимликлар ва атроф муҳитни кимёвий захарланишига олиб келувчи авария тушунилади.

Авария вақтида атроф-муҳитнинг захарланишига, тирик организмларнинг жабрланишига олиб келадиган кучли таъсир этувчи захарли модданинг микдори токсидоза деб айтилади. Моддаларнинг рухсат этилган микдори деганда эса, бир кунлик микдори узок вақт таъсир курсатган тақдирда ҳам, организмда патологик узгаришлар келтириб чиқармайдиган, касалланишга олиб келмайдиган микдори тушунилади. Захарли моддаларнинг бир суткалик уртача, бир марталик максимал микдорлари белгилаб қуйилган. Бу микдор аҳоли пунктлари ҳамда ишлаб чиқариш хоналари учун алоҳида белгиланган. Кучли таъсир этувчи захарли моддалар босим остида суюлтирилган ҳолда сакланаётган идиш герметиклиги бузилган тақдирда, атроф муҳитга газ, буг, айрозол ҳолатида тарқалиши кузатилади. Кучли таъсир этувчи захарли модданинг захарловчи ҳолатига утиши, захарловчи концентларни ҳосил қилиши унинг физика-кимёвий хоссаларига боғлиқ. Бунда уларнинг агрегат ҳолати, сувда эрувчанглиги, органик моддаларда эриш қобилияти, зичлиги, учувчанглиги, нисбий бугланиш иссиқлиги, қайнаш температураси катта аҳамиятга эга.

Ушбу курсаткичлар ишлаб чиқариш жараёнида, аварияларни башоратлаш ва баҳолашда ҳисобга олинади.

Агар захарли модда атрофга тарқалиб, захарланиш содир бўлган тақдирда, организмга тушган захарли модда кон орқали барча организм ва туқималарга ташилади, ҳамда организмни умумий захарланишига баъзан эса кишиларни қурбон бўлишига олиб келади. Шу сабабли бундай объектларда муҳофаза тадбирларини вақтида, сифатли амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга.

Кимёвий хавфли объектларда аввало корхонанинг баркарор ишлаштини таъминлаш ва ишлаб чиқаришдаги хавфсизликни таъминлаш чора тадбирларига амал қилиш муҳим ҳисобланади. Бундай объектларда қуйидаги тадбирларни амалга ошириш зарур: аввало ишчи ходимларни фавқулодда вазият тўғрисида вақтида хабардор қилиш учун алоқа ва хабар бериш тизимини яратиш ва иш ҳолатида саклаш, Фавқулодда вазиятларни олдини олиш ва бартараф этиш ҳаракатлари режаларини ишлаб чиқиш, фуқаро муҳофазаси хизмати ва тузилмаларини асбоб ускуналар билан жиҳозлаш ва тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш, ишчи ходимларни шахсий ҳимоя воситалари ва умумий муҳофаза воситаларидан тўғри фойдаланишга, фавқулодда вазиятлар вақтида узини муҳофаза қилиш усулларига ургатиш, объектларда тактик махсусуқув машқлари ва машгулотларни вақтида утқазиб туриш; объектнинг баркарор ишлаштини таъминлаш мақсадида муҳандислик-техник тадбирларини амалга ошириш.

КХОнинг хавфсизлигини ва баркарорлигини таъминлашда муҳандислик техник тадбирларнинг урни катта ҳисобланади. Буларга: коммунал тизимларга жумрак, сурма копкок, кран каби учириш асбобларини урнатиш ва иш ҳолатида саклаш; захарли газлар ишлатиладиган цехларга газанализатор, сигнализаторлар каби хаво таркибининг назорат қилувчи асбоблар урнатиш; захарли газлар ишлатиладиган цехларнинг дераза ва эшик оралиғига ва объект территориясининг зарур жойларига сув тусиклари урнатиш; КТЭЗМ омборларини ер остига қуриш; газ балонлар сакланадиган омборларда вентиляция ускуналарини иш ҳолатида саклаш; панажойларни доимо шай ҳолатда саклаш; корхонада ёнгин хавфсизлиги талабларини амалга ошириш; кимёвий назорат постларини жиҳозлаш ва шай ҳолатда саклаш.

Кимёвий хавфли объектларда хавфсизлик талабларининг бажарилганлиги фақат корхона ишчи ходимларининг саломатлигини саклашда эмас, балки атрофдаги аҳоли хавфсизлигини, атроф муҳитни асрашда ҳам муҳим аҳамиятга эга эканлигини унутмаслигимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Буриев С.Б., Хужжиев С.О. Разработка биотехнологических основ очистки загрязнённых вод с водными растениями и использования их в сельском хозяйстве// Қишлоқ хўжалигида экологик муаммолар: Халқаро илмий-амалий конф. тўпл. -Бухоро, 2003. -Б. 418-419.
2. Хўжжиев С.О. Юксак сув ўсимликларининг оқова сувларда ўсиши, ривожланиши ва уларни тозалашдаги моҳияти// Ижодкор ёшлар ва фан-техника тараққиёти: Респ. илм-амал конф. тўпл. - Бухоро, 2004. -Б. 127-128.
3. Хўжжиев С.О. Эйхорния ўсимлигини «Навоиязот» ишлаб-чиқариш бирлашмаси оқова сувларида ўстириш биотехнологияси// Проблемби биологии

и медитсинби. -Самарканд, 2005. -№4 (42). -С. 48-50.

4. Хўжжиев С.О. Биохилма-хилликни сақлашда оқова сувларни тозалаш биологиясининг аҳамияти// Ўзб. Респ. биологик хилмахиллигининг экологик муаммолари: Респ. илм-амал конф. тез. тўпл. -Навоий, 2006. -Б.132-133.

5. Бўриев С.Б., Хўжжиев С.О. Юксак ўсимликларнинг сианидларни парчалашдаги аҳамияти// Биол., экол. ва тупроқшуносликнинг долзарб муаммолари: Респ. илм-амал конф. тез. тўпл. -Тошкент, 2006. -Б. 156-157.

O'SIMLIKLAR DUNYOSINI HIMOYA QILISH MUAMMOLARI

Berdikulov X., Berdikulova N.

Jizzax davlat pedagogika universiteti E-mail: berdikulovk@list.ru

O'simliklar dunyosi Yerdagi hayotning birlamchi manbaidir. Ular yiliga 380 mlrd. t organik modda hosil qiladi, buning 325 mlrd. t dengiz va okean o'simliklarga, 38 mlrd. t o'rmonlarga, 6 mlrd. t o'tloqlarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari o'simliklar, ya'ni yashil o'simliklar tufayli fotosintez jarayoni ro'y beradi, Yerdagi hayotning yashashi uchun zarur bo'lgan kislorodni ishlab beradi. Agar fotosintez jarayoni bo'lmasa, havodagi karbonat angidridning miqdori ko'payib kishilar va hayvonlar nobud bo'lar edi. Biroq atmosferadan, suv yuzasidan va tuproqdan kelayotgan o'sha SO₂ gazi o'simliklar tomonidan yutilib, fotosintez natijasida yashil o'simliklar atrofga kislorodni chiqarib turadi. Shunday qilib, fotosintez orqali Yer sharidagi suv 5,8 mln. yilda, atmosferadagi kislorod 5800 yilda, SO₂ 7 yilda bir marta yangilanib turadi.

Insonning kundalik hayotida o'simliklarning ahamiyati juda katta. Chunki o'simliklar muhim tabiiy geografik omil sifatida er yuzasida suv oqimiga, bug'lanishga, tuproqda nam saqlashga, atmosferaning quyi qismidagi havo oqimiga, shamol kuchi va yo'nalishiga, hayvonlarning hayotiga ham ta'sir etadi.

O'simliklar shahar, qishloq mikroiklimiga ta'sir etib, havosini tozalab, uni kislorod bilan boyitib turuvchi sanitarlik vazifasini bajaradi. O'simliklardan har xil kiyim bosh, ichimliklar tayyorlashda keng foydalaniladi. O'simliklar chorva mollar uchun asosiy ozuqa manbai, insonlarsha estetik zavq beradi. O'simliklar jamiyat uchun (agar undan oqilona foydalanib, muhofaza qilib, kayta tiklab turilsa) behisob oziq-ovqat manbai, texnika xom ashyosi, tibbiyotda dori-darmon tayyorlash, qurilish va boshqa sohalar uchun, qurilish va boshqa sohalar uchun hom ashyo resursidir. O'simliklar - bu qayta tiklash mumkin bo'lgan tabiiy resurs hisoblanib, Yer shari geografik qobig'ida muhim rol o'ynaydi.

Yer sharida o'simliklar turi juda ko'p bo'lib, ularning juda oz qismidan kishilar xo'jalik faoliyatlarida foydalanmoqdalar. Yer sharidagi 300 ming o'simlik turidan faqat 6000 turini inson kundalik hayotida foydalansa, shuning 1500 turi esa dorivor o'simliklarga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda global mavzu miqyosida ko'tarilgan o'simliklar dunyosini himoya qilish keng ko'lamli muammolardan biri bo'lmoqda. Aholi soni oshishi natijasida global muammolardan biri xisoblangan atmosferani ifloslanish darajasi oshib ketdi. Bunga asosiy sabab ko'plab o'rmon va shaharlarda daraxtlarni kesib tashlanishi, o'simliklar suvsizlik va boshqa turli ekologik muammolar sababli nobud bo'lishi, bunday o'simliklarni kam ekilganligi hisoblanadi.

О‘simliklarni himoya qilish qishloq xo‘jaligi entomologiyasi, fitopatologiya, botanika, mikologiya, bakteriologiya, virusologiya, ekologiya, biotsenologiya, kimyo, biokimyo, hayvonlar va o‘simliklar fiziologiyasi, fizika, biofizika, genetika, seleksiya, toksikologiya va boshqalar fanlar ma‘lumotlariga asoslanadi. O‘simliklarning zararkunanda va kasalliklari, begona o‘tlar ekinlarga, xususan, hosilga katta zarar yetkazadi. Shu sababli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda, ularni saqlab qolishda O‘simliklarni himoya qilishq. muhim rol o‘ynaydi. Zararkunanda va kasalliklarning o‘simliklarga yetkazadigan zarari qadimdan ma‘lum. XVIII-asr boshlarida o‘simlik kasalliklarini tasniflashga fransuz botaniki J.Turnefor urinib ko‘rdi. XVIII- asrning 2-yarmida ko‘pchilik kasalliklarning yuqumliligi tajribalar asosida isbotlandi (Rossiyada A.T.Bolotov, Fransiyada A.Tillet, Italiyada F.Fontana, Daniyada Ya.Fabritsius va boshqalar). XVIII-asrning 2-yarmida nemis olimi A. de Bari, rus olimi M.S.Voronin va boshqalar tomonidan fitopatogen zamburug‘larning yangi turlari, ularning morfologiyasi, rivojlanish xususiyatlari aniqlanadi. XIX-asrning 2-yarmida o‘simlik zararkunandalari hamda kasalliklarining bir qancha mamlakatlar iqtisodiyotiga yetkazgan zarari ularni o‘rganish va ularga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etdi. XIX-asr oxiri — XX-asr boshlarida fitopatogen zamburug‘lar, bakteriyalar, viruslar, nematodalarning minglab turlari kashf qilindi. Asosiy zararkunandalarning turlari biologiyasi va fiziologiyasi o‘rganildi; zararli organizmlarga qarshi kurash choralari takomillashtirildi.

Turkistonda O‘simliklarni himoya qilishq. bo‘yicha dastlabki ilmiy asoslangan usullar 1898-yilda Chigirtkaga qarshi kurash qo‘mitasining taklifiga ko‘ra ishlab chiqilgan. 1911-yilda Toshkentda Turkiston entomologiya stansiyasi tashkil etildi, g‘o‘za, qand lavlagi zararkunandalarini o‘rganish va ularga qarshi kurash choralari qo‘llanildi.

1925-yilda Turkiston entomologiya stansiyasi O‘zbekiston o‘simliklarni himoya qilish stansiyasiga aylantirildi va shu bilan bir vaqtda Shirabudin (Buxoro viloyati) va Xiva qishloq xo‘jaligi tajriba st-yalarida O‘simliklarni himoya qilish bo‘limlari ochildi. 1929-yilda Bosh paxta komiteti O‘zbekiston O‘simliklarni himoya qilish stansiyasining bir necha bo‘limlarini birlashtirib, g‘o‘za zararkunandalarini o‘rganish uchun maxsus stantsiya barpo etdi; keyinchalik bu stantsiya Butunittifoq paxtachilik ilmiy tekshirish instituti (SoyuzNIXI)ning O‘simliklarni himoya qilish markaziy stansiyasiga aylantirildi. 1957-yilda SoyuzNIXI markaziy stansiyasi asosida hozirgi O‘zbekiston o‘simliklarni himoya qilish instituti tashkil qilindi.

Yuqoridagi tarixda qilingan ishlarni davomi tariqasida O‘zbekiston Respublikasining 1997- yil 26-dekabrda “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi 543 -I- sonli [Qonuni](http://www.newjournal.org/) qabul qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mutalov Sh.A. Tursunov T.T.Sanoat ekologiyasi. Darslik. T. O'zb. Xalqaro Islom akademiyasi-2020 y.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
3. Семеренко С.А. Экология и защита растений // Масличные культуры. 2015. №4 (164). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ekologiya-i-zaschita-rasteniy> (дата обращения: 24.11.2022).

RIVOJLANMAGAN HOMILADORLIKNING ETIOPATOGENETIK JIHATLARI

Fayzullayeva S.SH; Usmonova Y.Z; Navruzova.R.S
Tashkent Pediatric Medical Institute

Rezyume. Etiopathogenetic aspects of non-developing pregnancy

Non-developing pregnancy (NP) is one of the most common nosological pathologies in obstetrics and gynecology. Intrauterine death of an embryo in the early stages of development (up to 22 weeks) is called a non-developing pregnancy. Most often this occurs in the first trimester - up to 12 weeks. Non-developing pregnancy is a special form of miscarriage. According to the WHO (1988), the share of non-developing pregnancy in the structure of miscarriage is quite high (10-20%). The frequency of occurrence of non-developing pregnancy according to various data in the first trimester ranges from 15.9% to 16.2%. With age, the frequency of non-developing pregnancy in women increases - from 16.9% in 20-25 years to 20.7% after 40 years.

Key words: non-developing pregnancy, miscarriage, infections.

ЭТИОПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НЕРАЗВИВАЮЩЕЙСЯ БЕРЕМЕННОСТИ

Rezyume. Неразвивающаяся беременность (НБ) является одной из часто встречаемых нозологических патологий в акушерстве и гинекологии. Внутриутробная гибель эмбриона на ранних стадиях развития (до 22 недель) называется неразвивающейся беременностью. Чаще всего это происходит в первом триместре – до 12 недель. НБ относят к особой форме невынашивания беременности. По данным ВОЗ (1988) удельный вес НБ в структуре невынашивания довольно высокий (10-20%). Частота встречаемости НБ по различным данным в I триместре колеблется от 15,9% до 16,2%. С возрастом частота неразвивающейся беременности у женщин увеличивается – с 16,9% в 20-25 лет до 20,7% после 40 лет.

Ключевые слова: неразвивающаяся беременность, невынашивание беременности, инфекции.

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Rivojlanmagan homiladorlik akusherlik va ginekologiyada eng keng tarqalgan nozologik patologiyalardan biridir. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida (22

haftagacha) embrionning antinatal o'limi rivojlanmagan homiladorlik deb ataladi. Ko'pincha bu birinchi trimestrda sodir bo'ladi - 12 haftagacha [31].

Rivojlanmagan homiladorlik – homila ko'taraolmaslikning asosiy formasi hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra (1988) homila ko'taraolmaslikning tarkibida rivojlanmay qolgan homiladorlikning ulushi ancha yuqori (10-20%). Turli ma'lumotlarga ko'ra, birinchi trimestrda rivojlanmagan homiladorlikning uchrash chastotasi 15,9% dan 16,2% gacha. Yosh o'tgan sari ayollarda rivojlanmagan homiladorlikning chastotasi 20-25 yoshda 16,9% dan 40 yoshdan keyin 20,7% gacha ko'tariladi [17].

Rivojlanmagan homiladorlik muammosi ham klinik, ham ijtimoiy jihatdan juda dolzarbdir, chunki reproduktiv yo'qotishlar tarkibida ushbu patologiyaning chastotasi ancha yuqori (10-20%). Nobud bo'lgan embrionning bachadon bo'shlig'ida saqlanishi nafaqat sog'liq uchun, balki ayolning hayoti uchun ham katta xavf tug'diradi [12].

Rivojlanmagan homiladorlik sabablari har xil, ammo birinchi trimestrda genetik, infeksiyon, endokrin va autoimmun omillar eng katta ahamiyatga ega [13].

Bundan tashqari homiladorlik embrionning shakllanishi davrida xromosoma anomaliyalari tufayli to'xtatiladi. Ko'pincha ovogenez yoki spermatogenez jarayonlarining buzilishi natijasida yo'qolgan yoki qo'shimcha xromosomaga ega bo'lgan hujayralar paydo bo'ladigan holatlar ham mavjud. Buning sabablari surunkali stress, chekish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, spirtli ichimliklar, ekologik noqulay vaziyatlar, shuningdek, ichki omillar bo'lishi mumkin: ona yoki otaning organizmidagi genlarda-jinsiy hujayralar hosil bo'lishi jarayonida xromosomalarning kichik bo'limlari – ajralmay qolishi mumkin. Genetik nuqsonli embrion shakllanganda esa, tabiiy tanlanish qonunlariga ko'ra, ona organizmi undan qutulishga harakat qiladi [31].

Erta rivojlanmagan homilaning ikkinchi eng keng tarqalgan sababi infeksiya bo'lib, u ham o'tkir, ham surunkali bo'lishi mumkin. Ular orasida virusli (sitomegalovirus, herpes simplex virusi, Cocksackie A va B viruslari, enteroviruslar), bakterial (streptokokklar, stafilokokklar, gonokokklar) infeksiyalar va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar (xlamidiya, mikoplazmalar, ureaplazmalar [9; 28]) ham muhim o'rin tutadi. Infeksiyalanishda ma'lum rol ni zamburug' infeksiyasi va bakterial vaginozga beriladi [1; 26].

Endokrin tizimida rivojlanmagan homiladorlikni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan patologik holatlar orasida giperandrogenizm, giperprolaktinemiya, polikistotik tuxumdon sindromi, qalqonsimon bezning disfunktsiyasi, semirish yoki kaxeksiya sabab bo'lishi mumkin [31; 32].

Ilgari spontan abortning turli immunologik sabablari tushunarsiz deb hisoblangan [5; 25]. Fanning rivojlanishi bilan ushbu toifadagi bemorlar to'qimasida va bola organizmida antitelalar borligi aniqlay boshlandi. Bunda asosiy sabab

antifosfolipid sindromi bo'lib, antitelalar XG ga va bolaning onasi va otasi o'rtasidagi immunologik mos kelmaslik kiradi [29]. Ushbu patologiyada embrion o'limining sababi tomirlarda tromb hosil bo'lishining kuchayishi bo'lishi mumkin; antifosfolipid sindromida – organizm o'z hujayra devorlarining asosini tashkil etuvchi fosfolipidlariga qarshi antitelalar ishlab chiqarilganda kuzatiladi. Bu homila oziqlanishining buzilishiga, platsenta tomirlarida tromblar shakllanishi tufayli esa homila o'limiga olib keladi. Onaning organizmida homila to'qimasiga qarshi himoya qiluvchi antitelalarning shakllanishi ham ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin [18; 38].

Shu bilan birga, 26-66% hollarda rivojlanmagan homilaning sababi aniqlanmay qolmoqda. Rivojlanmagan homilaning patogenezidagi ko'plab savollar muhokama mavzusi bo'lib qolmoqda.

Ko'pincha rivojlanmagan homiladorlikda spontan abort 45-88,6% ni tashkil etib, bu asosan birinchi trimestrda sodir bo'ladi. Morfologik tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, homiladorlikning birinchi trimestridagi barcha spontan abortlarning 91,3 foizida rivojlanmagan homiladorlik kuzatilganligi aniqlandi [6]. Bachadondagi embrionning o'limi chastotasi sezilarli darajada oshib bormoqda, agar blastotist o'limini hisobga oladigan bo'lsak, bu implantatsiyadan oldin va keyin qisqa vaqt ichida kuzatilishi mumkin bo'lib, bu barcha urug'langan gametalarning 20-40% ni tashkil qiladi. Bunday hollarda embrionni subklinik yo'qotish kuzatiladi, bu keyingi hayzning bir necha kun kechikishida namoyon bo'ladi [15; 20; 35]. Ba'zi mualliflar anamnezida abort bo'lmagan ayollar guruhiga (7,4%) nisbatan takroriy abortga uchragan ayollarda (12,4%) bachadondagi embrion va homila o'limining yuqori chastotasiga ishora qiladilar [11; 25; 34; 35].

Homiladorlikning keyingi bosqichlarida (14 dan 22 haftagacha) homilani sun'iy ravishda to'xtatilishi akusherlik va ginekologiyaning eng hal etilmaydigan muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Buning sababi shundaki, jarrohlik aralashuvining murakkabligi va shunga mos ravishda, barcha holatlarda asoratlarning chastotasi homila kattalashuvi bilan ortadi. Shunday qilib, Abortni o'rganish bo'yicha qo'shma dastur (IPSA) doirasida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ikkinchi trimestrda abort asoratlarning chastotasi birinchi trimestrqa qaraganda 3-4 baravar yuqori (12 haftagacha 7,8%, 13 hafta va undan yuqori muddatlarda 25,1%). [10; 37].

Bugungi kunda dunyoda har yili 53 millionga yaqin sun'iy abortlar amalga oshirilayotganini va ularning 15-18 foizi kechki (14 dan 22 haftagacha) homiladorlikdagi uzilishlar ekanligini hisobga olsak, tibbiy va ijtimoiy sabablarga ko'ra homiladorlikning II davrida abort muammosi qanchalik jiddiy ekanligini tasavvur qilish oson.(JSST, 1999) [19].

Tashxis qo'yish uchun anamnezni diqqat bilan to'plash tavsiya etiladi. Ushbu homiladorlik asoratining eng ko'p uchraydigan belgilari: ishtahaning yo'qolishi, bosh

og'rig'i, ko'ngil aynishi, yomon uyqu, og'izda yoqimsiz ta'm, ruhiy tushkunlik, qorinning pastki qismida og'irlik hissi, temperatura, bezovtalik hissi, umumiy zaiflik, ba'zida terining qichishi. , homilador ayolning o'zi ko'pincha e'tibor bermaydigan tana haroratining ko'tarilishi bilan kechadigan titroq.

Dastlabki bosqichlarda, homiladorlikning eng keng tarqalgan, ammo doimiy bo'lmagan simptomi genital traktdan qon ketishi bo'lib, u ko'pincha homilaning taxmin qilingan o'limi kuni paydo bo'ladi [8]. Odatda, ajralma surkaluvchi qoramtir rangli, ko'pincha jigarrang bo'lib, oz miqdorda bo'ladi. Xomilaning o'limi paytida homiladorlik muddati qanchalik katta bo'lsa qonli ajralmalar bo'lishi kamayib boradi, homila o'limi 24 haftadan keyin yuz bersa qonli ajralma deyarli kuzatilmaydi. Yetarli diagnostika imkoniyatlari yo'qligi sababli, rivojlanmagan homiladorlik tashxisini qo'yish juda qiyin bo'lishi mumkin. Faqatgina gormonal va ultratovush diagnostikasi yordamida homiladorlik rivojlanishining ushbu patologiyasini aniqlash mumkin bo'ldi, homiladorlikning ikkinchi yarmida, agar homilaning antinatal o'limini ko'rsatadigan belgilar mavjud bo'lsa, xususan: harakatning yo'qligi, homila yurak urishi, bachadon hajmining pasayishida rivojlanmagan homiladorlik tashxisi qo'yiladi. Erta homila tushish xavfi belgilari homila nobud bo'lishidan ancha oldin yoki keyin kuzatilishi mumkin. [16].

Turli mualliflarning fikriga ko'ra, embrion qopchasi abort boshlanishidan 2-8 hafta oldin embrion o'lganidan keyin bachadon bo'shlig'ida joylashgan.

Abort klinikasi juda yaxshi o'rganilgan. Ushbu patologiya bilan homiladorlikning sub'ektiv belgilari yo'qoladi, sut bezlari yumshayadi, hajmi kamayadi, og'iz suti ajralmaydi. Homilador ayolni kuzatish jarayonida homiladorlik davridan bachadon kattalashuvining kechikishi, uning hajmining kamayishi aniqlanadi. Bachadon yumshayishi kamayib, zichlashib boradi.

Homiladorlikning biologik reaksiyalari (Ashgeym-Zondek, Galli-Maynini, Fridman va boshqalar), shuningdek, immunologik reaksiyalar embrion o'limidan 2 hafta o'tgach, manfiy bo'ladi.

Homila o'limi bachadon hajmining kutilgan homiladorlik muddatidan kechikishi va undan ham ko'proq kamayishi ko'pincha homila rivojlanishining birinchi yarmida (20 haftagacha) va ayniqsa erta bosqichlarda (12 haftagacha) aniqlanadi. O'rtacha, homila o'limidan keyingi dastlabki 4-5 hafta ichida bachadon tanasi 2-3 haftaga, 7-8 haftalik kechikish bilan - 4-5 yoki undan ko'p haftaga kamayadi. Dastlabki bosqichlarda bu embrion rezorbsiyasi natijasida, uzoq vaqt davomida - amniotik suyuqlikning so'rilishi, homilaning maseratsiyasi, suvsizlanishi va bujmayishi tufayli yuzaga keladi.

Rivojlanmaydigan homiladorlikning erta tashxisi katta amaliy ahamiyatga ega, chunki bu bemorni tekshirish vaqtini qisqartirishga va nobud bo'lgan embrionni bachadon bo'shlig'ida uzoq vaqt qolishi bilan bog'liq asoratlar xavfini kamaytirishga

yordam beradi [23]. Bu yoʻnalishda exografiya, homilador ayollar siydigi va qon plazmasidagi jinsiy steroidlar va oqsil gormonlari darajasini aniqlash kabi diagnostika usullari katta yordam beradi [3; 8; 14; 22].

Hozirgi vaqtda homila rivojlanishining buzilishini tashxislash uchun eng istiqbolli usul ultratovushli ekografiya boʻlib, bu patologiyani klinik belgilar boshlanishidan ancha oldin aniqlash imkonini beradi, bu esa oʻz vaqtida tashxis qoʻyish va tegishli terapevtik choralar koʻrish uchun muhimdir [24; 30].

Ekografiyani bir marta qoʻllash bilan homiladorlikning rivojlanish xususiyatini 78%, takroriy tadqiqotlar bilan - 95,6% hollarda toʻgʻri aniqlash mumkin [7; 21].

Embrion yoki homilaning antinatal oʻlimi diagnozi uning yurak faoliyati va harakat faolligini roʻyxatga olish paytida olingan salbiy natijalarga asoslanadi.

Shunday qilib, rivojlanmagan homiladorlikning birinchi trimestrdagi asosiy ekografik belgilari quyidagilar: 1) embrionning yurak pulsatsiyasining yoʻqligi, 2) Homila harakatining yoʻqligi, 3) Embrion struktur elementlarining degeneratsiyasi. 4) Bachadon, amniotik boʻshliq va embrion hajmining oʻzgarishi [24].

Homiladorlik davrida homilaning holatini aniqlash uchun nisbatan juda qimmatli tadqiqot usuli amnioskopiya boʻlib, bu endoskopik usul hisoblanadi. Amnioskopiya paytida amniotik suyuqlikning zanglagan jigarrang rangda boʻlishi, homila antinatal oʻlimining taxminiy tashxisini tasdiqlaydi [4].

Homilaning antinatal oʻlimini tashxislash uchun homilador ayolning gormonal profilini oʻrganish tavsiya etiladi. Kolpositologik tekshiruvda surtmada oraliq qatlam hujayralarining turli oʻlchamlari va shakllarini, va noaniq konturli parabazal hujayralarni koʻrinishi estrogen etishmovchiligini darak beradi.

Shunday qilib, rivojlanmagan homiladorlik diagnostikasi uchun anamnestik maʼlumotlar, bachadon oʻsishining dinamik monitoringi va ultratovush ekografiyasi bilan birgalikda keng qamrovli oʻrganish muhimdir [2; 27].

ЛИТЕРАТУРА

1. Аккер Л. В., Немцева Г.В, Таранина Т. С. Состояние микрофлоры цервикального канала и нарушение морфоструктуры эндометрия у жен-щин с привычным невынашиванием беременности //Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов. - М., 2000. - С. 12-14.

2. Ан И. П. Реабилитация генеративной функции женщин с внутри-утробной гибелью плода в анамнезе: Автореф. дис. ... канд. мед. наук. – Алматы, 2001. - 27 с.

3. Антенатальная диагностика и коррекция нарушений развития плода // Российский вестник перинатологии и педиатрии. – 1999. – №3. – С. 6-11.

4. Баев О.Р., Стрижаков А.Н. Резидентная флора генитального тракта и этиология инфекционных осложнений беременности и послеродового периода

// *Акушерство и гинекология.* - 1997. – №6. – С. 3-7.

5. Бальцев М. А., Волощук И. Н., Демидова Е. М. Иммунологические аспекты материнско-плодовых взаимоотношений // *Вестник РАМН.* -1998. - №35. - С. 32-36.

6. Безнощенко Г. Б., Шарыпова Л. В. Особенности гестационного периода при ассоциированных оппортунистических инфекциях // *Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов.* - М., 2000. - С. 42-44.

7. Белокриницкая Т. Е., Витковский Ю. А. Цитокины в системе мать-плод при синдроме задержки развития плода // *Акушерство и гинекология.* - 1999. - №5. - С. 15-17.

8. Беляев В. А., Мерзликин А. Д. Определение ультразвуковых критериев фетоплацентарной недостаточности // *Ультразвуковая диагностика.* - 1997. - №4. - С. 7.

9. Бетаева Н. М., Дзайнуков Т. С., Дзагоева И. Х. Комплексная терапия хламидоза, уреоплазмоза, микоплазмоза // *Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов.* - М., 2000. - С. 49.

10. Василенко В. Л., Змеева М. А. Индукция родовой деятельности при перенашивании беременности // *Индукция сократительной деятельности матки: Сб. трудов.* – Саратов,, 2001. - С. 35-37.

11. Газазян М. Г., Гуман Л. П., Зуев В. В. Тактика ведения женщин, перенесших неразвивающуюся беременность // *Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов.* - М., 2000. - С. 75-77.

12. Ганина Е. А. Эхоморфологические параллели при неразвивающейся беременности // *Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов.* - М., 2000. - С. 85-87.

13. Глазкова Л. К., Акимов О. Е. Практические аспекты хламидийной инфекции // *Инфекции, передаваемые половым путем.* - 1999. - №4. - С. 29-35.

14. Драндов Г. Л., Фадеев А. С., Корнилова Н. К. Роль внутриутробной инфекции в развитии плацентарной недостаточности // *Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов.* - М., 2000. - С. 113-115.

15. Егорова Г. Ю., Ступакевич М. Б. Невынашивание беременности – роль инфекций, передающихся половым путем // *Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов.* - М., 2000. - С. 115-117.

16. Ецко Л. А. Современные медицинские технологии в ранней диагностике и лечении внутриутробной инфекции в плацентарной недостаточности // *Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов.* - М., 2000. - С. 119-121.

17. Изучение этиологии неразвивающейся беременности / Н.П. Веропотвелян, Н. П. Кодунов, А. В.Коротков // *Рос. вестн. акушера-гинеколога.*

-2006. - №2. - С. 13-18.

18. Иммунологические аспекты материнско-плодовых взаимоотношений / М. А. Бальцев, И. Н. Волошук, Е. М. Демидова и др. // Вестник РАМН. - 1998. - №5. - С. 32-36.

19. Липман А. Д., Левин И. С., Кочев Д. М. Использование Мифепри-стона для медикаментозного прерывания беременности и других целей. В помощь практическому врачу // Сибирский мед. журнал. - 2002. - №4. - С. 3-23.

20. Маточный фактор при привычном невынашивании беременности и опыт его лечения / М. Г. Газазан, Н. С. Лупева, Н. А. Пономарева, В. Р. Тарповский // Вестник Рос. ассоциации акушеров-гинекологов. - 1998. - №1. - С. 95-98.

21. Медведев М. В., Юдина Е. В. Дифференциальная ультразвуковая диагностика. -М., 1997. - 327 с.

22. Насыров Ш. Б. Роль внутриутробной инфекции в течение беременности, родов, состояние плода и новорожденного // Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов. -М., 2000. - С. 136-138.

23. Неъматова З. Г., Курбанов С. Д. Иммуно-микробиологические особенности женщин с неразвивающейся беременностью // Инфекция, иммунитет и фармакология- 2001. - №1 С. 63-65.

24. Особенности состояния эндометрия, по данным ультразвукового исследования, как критерий эффективности медикаментозного прерывания беременности / Г. Б. Дикке, Л. А. Агаркова, И. А. Башилова и др. // Фарматека. - 2003. - №11. - С. 75-78.

25. Особенности функционального состояния лимфоцитов на системном и локальном уровне у женщин с невынашиванием беременности инфекционного генеза / И. К. Колесников, Ю. С. Анцифирова, Е. Л. Бойко, Н. Ю. Сотникова // Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов. - М., 2000. - С. 142-143.

26. Прилепская В. Н., Кондрикова Н. И., Бебиева Т. Н. Патология шейки матки. Диагностические возможности цитологического метода исследования // Акушерство и гинекология. - 1999. - №6. - С. 45-49.

27. Рассказова Н. А., Шуб Г. М., Швиденко И. Т. Роль клинико-микробиологического обследования беременных // Охрана здоровья матери и ребенка: Сб. трудов. -М., 2000. - С. 247-249.

28. Роль уреамикоплазменной и хламидийной инфекции в акушерской практике / Е. Н. Фомичева, Е. Н. Зарубина, В. И. Минаев и др. // Акушерство и гинекология. - 1997. - №2. - С. 55-57.

29. Салов Н. А., Маринушкин Д. Н. Роль инфекционного фактора в патогенезе различных вариантов невынашивания беременности // Охрана

здоровья матери и ребенка: Сб. трудов. - М., 2000. - С. 263-264.

30. Стрижаков А. Н., Игнатко И. В. Этапы развития и совершенствования ультразвуковых методов оценки состояния внутриутробного плода // *Акушерство и гинекология*. - 1997. - №5. - С. 34-40.

31. Фармокинетические параметры мифепристона при прерывании беременности ранних сроков / Д. В. Жердев, Н. И. Волков, А. К. Сариев и др. // *Практическая гинекология: от новых возможностей к новой стратегии. Международный конгресс.-М..2006.-С.63.*

32. Хван Л. К. Невынашивание беременности в регионе Приаралья: Автореф. дис. ... канд. мед. наук. - Алма-Аты, 1998. - 25 с.

33. Шарапова О.В. Письмо о применении мифепристона в акушерстве и гинекологии МЗ РФ №2510/7213-03-32 от 2 июля 2003 г. // *Вопросы гинекологии, акушерства и перинатологии*.- 2003.-№ 2.-С. 45-48.

34. Шешуков Н. А., Быкова О. А. Медикаментозные методы прерывания беременности во II триместре // *Акушерство и гинекология*. - 2002. - №1. - С. 3-5.

35. Brown A., Williams A. A single dose of mifepristone (200 mg) in the immediate preovulatory phase offers contraceptive potential without cycle disruption // *Contraception*. – 2003. – Vol.68.- №3. – P. 203-209.

36. Honkanen H. et al. WHO multinational study of three misoprostol regimens after mifepristone for early medical abortion // *BJOG*. – 2004. – Vol. 111, – P. 715-725.

37. Jauniaux E. Parallel Doppler assessment yolk sac end inteejt tervillous circulation in normal pregnancy and missed abortion // *Placenta*. - 1999. - Vol.20.- №7. - P. 609-611.

38. Ngai S. W., Tang O. S., Ho P. C. Prostaglandins for induction of second-trimester termination and intrauterine death // *Best Pract Res Clin Obstet Gynaecol*. – 2003. – Vol. 17.- №5. – P. 765-775.

SHIZMACHILIK FANIDAN PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI

*M.K.Xalimov-Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
I.A.Raxmonov-Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani
1- umumiy o'rta ta'lim maktab oliy toifali o'qituvchisi,*

Аннотация: Ushbu maqolada chizmachilik fanidan past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash metodlari tahlil qilingan.

Калит so'zlar: texnologiya, metod, nazariya, ko'nikma, malaka, tajriba.

Аннотация: В данной статье анализируются методы работы со школьниками, имеющими низкий уровень владения рисованием.

Ключевые слова: технология, метод, теория, мастерство, квалификация, опыт.

Annotation: This article analyzes the methods of working with schoolchildren with a low level of drawing proficiency.

Key words: technology, method, theory, skill, qualification, experience.

Fanlardan fanni past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchraydiki, ularni o'qitish hamda o'zlashtiruvchi o'quvchilar safiga qo'shish uchun dars olib boruvchi o'qituvchi har xil metod va texnologiyalar qo'llaydi.

O'zlashtirmaslikni oldini olishning sinalgan va eng ko'p qo'llaniladigan vositalaridan biri, o'quvchilarning tirishib va jonu-dili bilan o'qishlari uchun sharoit yaratib berishdir. Bugungi kunda umumo'rta maktablardagi moddiy-texnika bazasi, o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, rekonsruksiya qilish va kapital ta'mirlash, sinfxonalarni zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash masalalari o'z yechimini topamoqda.

Mamlakatimiz iqtisodini rivojlantirish, kuchaytirish maqsadida ko'plab chet ellik hamkorlar bilan birgalikda ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Butun mamlakat, xususan poytaxtimiz bo'ylab qurilish, obodonlashtirish ishlari avj olib, ko'rkam, zamonaviy binolar, ko'priklar, qishloq qurilishlari, bog'lar, bozorlar qurib ishga tushirilmoqda. Bunday zamonaviy zavod va fabrikalarda ishlash uchun, shuningdek yanglikka to'la arxitektura binolarini loyihalash, qurish uchun yoshlarimizdan texnikaviy bilimga ega bo'lish talab etiladi. Ya'ni, har qanday zamonaviy texnika bilan "muomala" qila oladigan, uni boshqara va ishlata biladigan, yangi g'oyalari orqali ko'rkam binolar loyihalarini yarata oladigan kuchli bilimli yoshlarga hozirgi kunda ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa biz o'qituvchilarning o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berishimizni talab qiladi. O'quvchilarning fanni past o'zlashtirishi masalasini hal etish uchun ularning bilimga bo'lgan ehtiyojini oshirish

va ularda o'qishga havasni tarbiyalash masalasidir. Bunga o'rganilayotgan fanni amaliyot bilan yaqindan bog'lash, nazariyaning hayotiy ahamiyatini ko'rsatish orqali erishiladi.

Bilimga bo'lgan ehtiyojni zarurligini dastlabki shart-sharoitlari o'quvchilarning faolligi va bilimga bo'lgan qiziqishlaridir. Bu masalaga mashhur rus yozuvchisi A.M.Gorkiy alohida ahamiyat berib, shunday deb yozgan edi: «Bolaning savoliga «sabr qil, katta bo'lganingda bilib olasan» deb aytish, uning bilimga bo'lgan intilishini so'ndirish demakdir». O'qituvchi o'quvchining har qanday savoliga javob berish uchun hamma vaqt tayyor bo'lishi kerak. Ayrim o'quvchilar o'qitilayotgan ayrim fanlarni, xususan, chizmachilik fani bilan shug'ullanishni istamaydilar, chunki ular o'zlarini kelajaklarida chizmachilik faniga bo'lgan ehtiyojlarini sezmaymiz - deb o'ylaydilar. Masalan, o'quvchilaridan biri ikkinchisiga, bo'lajak jarrox yoki muhandis uchun bu fan butunlay kerak emas - deb aytdi. Bu o'quvchining fikricha chizmachilik fani o'zini texnikani o'rganishga bag'ishlayotgan kishigagina kerak ekan deydilar. Bunday o'quvchiga quyidagicha javob berish mumkin: rus jarroxi Piratov, jarrox uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan muskul, tomir va nervlarning o'zaro joylashishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun, inson tanasining u yoki bu organining chizmasini kesimlari bilan birga bajargan.

O'quvchini fanni o'zlashtirmaslikni oldini olishning muhim vositasi o'rganilayotgan fanning istiqbolini ochish, uning turmush va ishlab chiqarishdagi o'rnini hamda tarixiy taraqqiyotini ko'rsatishdan iborat. Bu yerda ham o'qituvchi chizmaning va texnikaning tarixiy taraqqiyotidan ayrim lavhalarni tushinarli shaklda hikoya qilib berishi lozim.

O'quvchini o'zlashtirmaslikni oldini olishning muhim shartlaridan yana biri sinfda har bir o'quvchining o'zlashtirishi haqida jamoatchilik fikrini vujudga keltirishdir. Bunga sinfda o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordami, tartibni yaxshi yo'lga qo'yish, o'quvchilarni va ayniqsa darsda qiyin o'zlashtiruvchi hisoblanganlarni o'qishga faol jalb etish bilan erishiladi. Sinfda o'rtoqlarining aytib turishiga va nолоyiq baho olishni ko'zlovchi yalqovlarga nisbatan talabchanlik doim hukm surishi kerak. O'qituvchi sinf o'quvchilarining umumiy fikriga tayanib, ayrim o'quvchilarni o'qishga jiddiy munosabatda bo'lishga majbur qilib, ularga ko'proq ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'quvchilar fanni o'zlashtirmasliklarini oldini olishda o'qituvchi o'quvchilar ko'p yo'l qo'yadigan xatolarni yaxshi o'rganishi kerak. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning chizmachilik fanidan o'zlashtirmasliklarining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1. Umumo'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fani faqat 8-9 sinflarda o'qitilganligi uchun o'quvchilarning fanga oid bilimlari xotiradan ko'tarilishi;
2. Fanga ajratilgan soatlarning yetishmasligi;

3. *Chizma bajarish texnikasining, ya'ni tasvirlar yasash va ularni pardoqlashga oid ko'nikma hamda malakalarini yetishmasligi;*

4. *Nazariy ma'lumotlarga oid sinf doskasida bajarilgan amaliy tasvirlarni oxiriga yetkazib chiza olmaslik va b.*

Shuningdek, o'quvchilar tomonidan bajarilgan chizmachilikka oid vazifalarda quyidagi xatoliklar ko'proq uchraydi.

- *diametr va radius belgilarini noto'g'ri qo'yilishi.*
- *chizmada bir xil turdagi chiziqlarni har xil qalinlikda bajarilishi, shtrixlar orasidagi masofa va shtrix hamda shtrix-punktir chiziqlarda shtrixlar o'lchamlarini saqlamasligi.*

- *standart shrift harflari va raqamlarining satr chizig'iga va GOSTga mos kelmaydigan qilib bajarilishi, harflar va raqamlar orasidagi masofalarning tengligini saqlamasligi.*

- *aylanalarni markaz chiziqlarini o'tkazmasdan chizilishi.*
- *chizma qog'ozi ko'lamidan unumli foydalanilmasligi.*
- *u yoki bu masshtabda bajarilgan chizmada o'lchamlarni asl holicha qo'yish o'rniga kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan holda qo'yilishi.*

- *tutashma yoylarini tutashish nuqtalarini anglamasdan o'tkazilishi, natijada to'g'ri chiziq va aylana yoyi orasidagi tutashuvlarni silliq, ravon bo'lmasligi.*

- *chizmachilikni o'qitishning birinchi bosqichlarida o'quvchilar ko'pincha chizmadagi uch ko'rinishini (proeksiyani) uchta har xil predmetning tasviri deb qabul qilinishi.*

- *o'lchamlarni uch ko'rinishga (proeksiya) notug'ri taqsimlanishi, ko'pincha hamma o'lchamlarni bir yoki ikki ko'rinishiga qo'yilishi.*

- *ko'rinishlar orasidagi proeksion bog'lanishni buzilishi.*
- *tasvirlanayotgan detalning asosiy ko'rinishini noto'g'ri aniqlanishi.*
- *aksonometrik proeksiyada (izometrik, dimetrik proeksiyada) to'rt markazli oval o'qlarini noto'g'ri chizilishi.*

- *detal eskizini bajarishda uning ayrim elementlari orasida mutanosiblikni saqlanmasligi.*

- *qirqimni bajarishda detalning faqat qirqimga tushgan qismini shtrixlab qolmasdan, kesuvchi tekislik tashqarisidagi qismini ham shtrixlanishi, qirqim yuzasida ko'rinishdagi kontur chiziqlarni qoldirilishi.*

- *qirqimni kesim kabi chizilishi.*
- *detal ko'rinishini va qirqimini ko'rinadigan kontur chiziq bilan ajratilishi.*
- *chizmada kesuvchi tekislik orqasida joylashgan chiziqlarni qoldirilishi.*
- *eskizlarni tuzish tartibining buzilishi, masalan, o'lcham chiziqlarini qo'ymasdan oldin detalni o'lchanilishi.*

- *ayrim ko'rinishlarda o'chamlar qo'yilishini maqsadga muvofiqligi o'ylanmasligi.*
- *teshikda rezbani noto'g'ri tasvirlanishi.*
- *chizmada rezbalarning belgilanishini noto'g'ri bajarilishi.*
- *rezba chegarasini shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilishi.*
- *qirqim va kesimlarda shtrix chiziqlarni rezbaning tashqi diametri chizig'igacha chizilmay qolinishi.*
- *shpilkali birikmalarni boltli birikmalardan ajrata olmaslik.*
- *boltli birikmalar komplektini hamma vaqt ham tahlil qila olmaslik (u qanday asosiy detallardan tuzilganini aniqlay olmaslik).*
- *qanday birikmalar ajraladigan va qandaylari ajralmaydigan ekanligini aniq tasavvur etolmaslik.*
- *mahkamlash detallariga qaysi standart detallar kirishini bilmaslik.*
- *boltli birikmada shaybaning qanday xizmati borligiga javob ololmaslik.*
- *shponkaning vazifasinn to'g'ri izohlay olmaslik.*
- *parchinli birikmalar qaerda ishlatilishini aytib berishga qiynalishlik.*
- *u yoki bu buyumga kiruvchi hamma detallarni ham detallarga ajratish kerak emasligini bilmaslik.*
- *qurilish chizmalarini anglab yetmay mashinasozlik chizmalaridan farqlay olmaslik.*
- *qurilish chizmalarini o'qish tartibini aniq tasavvur qilolmaslik.*
- *qurilish chizmachiligida ishlatiladigan sharli belgilarni esda saqlay olmaslik.*
- *ma'lumotnoma(spravochnik)lardan foydalanishni bilmaslik.*
- *oddiy sxemalar tuzishda qiynalishlik va hakazo.*

Savol tug'iladi, agar sinf bo'yicha hamma past o'zlashtirsa, unda o'qituvchi qanday chora ko'rishi kerak? Bu holda o'zlashtirmaslikning sabablarini aniqlash va uning monitoringiga qarab tuzatish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rish zarur. Odatda o'qituvchilar tajribalarida shaxsiy topshiriqlar, darsdan tashqari vaqtlarda qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish, mustaqil ish berish va hokazolar qo'llaniladi.

O'zlashtirmaslikni oldini olish, uni tuzatishdan ancha oson. Shuning uchun chizmachilik fani o'qituvchisi fanini o'qitishning boshlanishidan hamma o'quvchilar o'zlashtirishini qattiq nazorati ostiga olishi kerak. Pedagogik ishning asosiy joyi shundaki, o'quvchilar, ba'zan o'qituvchining o'zi ham yo'l qo'yilgan o'zlashtirmaslikka e'tiborsiz bo'ladilar va uni tuzatish uchun kerakli choralarni o'z vaqtida ko'rmaydilar.

Biz yuqorida past o'zlashtiruvchi o'quvchilar safiga sust sur'at bilan ishlaydigan o'quvchilar kirib qolishini ta'kidlab o'tgan edik. Bunday o'quvchilar bilan o'sha sust sur'at bilan ishlash kerakki, lekin ularni tezda shoshirish yoki idroksizlikda ayblash

mumkin emas. Bu o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Qo'shimcha mashg'ulotlarda o'quvchilarning faollik ko'rsatishlariga va o'quv materialining bir qismini o'qituvchi rahbarligida o'zlari o'rganishlariga intilish lozim. Shuningdek, kuzatishlarimiz o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qiyin o'zlashtiradiganlarni biriktirib qo'yish mumkin. Bunday uslub ikki tomonlama foydalidir. Fanni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar o'rtoqlariga yordam berish bilan bir vaqtda o'rganilgan materiallarni mustahkamlaydilar. Bundan tashqari, bunday hamkorlik o'quvchilar o'rtasidagi o'rtoqlik xissining o'sishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. E.Ro'ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. -T. "Yangi asr avlodi" nashriyoti., 2010.
2. Гервер В.А., Творческий работа по черчения., - М., «Просвещение»., 1996.
3. Umroxo'jayev A., Maktabda chizmachilik o'qitishni takomillashtirish.,- T. 1993.
4. I.Rahmonov. Chizmalarni chizish va o'qish. -T. «O'qituvchi» nashriyoti., 1992.

EDUCATIONAL GAMES IN TEACHING COVERING ALL MAIN SKILLS INTEGRATEDLY

Zulfuzar Rasulova, an English teacher of school №3 in Bakhmal district, Jizzakh

Annotation

This article deals with the importance and expected results of applying educational games in lessons of foreign languages. The issue of choosing and adapting games to the classroom is also discussed. Some common but effective games are given as examples.

Key words: educational games, skills, goals, motivation, classroom activities

Today, as never before, meeting our society's challenges demands educational excellence and our school systems need to respond better to a changing world. As teachers, we can help our students connect learning with real life and provide them with the necessary skills to prepare them for success in life. It will be essential to learn how to form purposeful goals, work with others with different perspectives, find opportunities and identify multiple solutions to big problems in the coming years. So education needs to equip students with the skills they need to become active, responsible and engaged citizens.

In order to achieve our goals, we can plan a series of activities, organize lessons and develop materials to focus on these skills. It is stated that all four language skills can easily be activated when students are asked to research a topic discuss or debate that topic with peers, and write about what they find and these activities don't require high levels of English proficiency. Students even at lower-intermediate levels can conduct basic research and have meaningful discussions with peers about real issues. They can make short films, interviews, compare statistical data, act in plays, prepare presentations, join debates, and try to find solutions to certain problems which will promote their communicative, creative, critical thinking and collaboration skills by working in groups.¹

Games can focus on various skills, grammar, listening, speaking, writing, reading, pronunciation, so they can be extremely complex. Games also help the teacher to create contexts in which the language is useful and meaningful.

Games must not be seen as a way of passing the time, because their purposes are multiple. Besides the major importance of games of spurring motivation and reducing the stress level in the classroom, games have a great advantage in the sense that children learn without knowing they are learning. During games, children do not worry much

¹ Vacide Erdoğan. Integrating 4C Skills of 21st Century into 4 Language Skills in EFL Classes

about grammar mistakes, they are focused on what they are trying to convey. Apart from having fun, they will learn a grammatical rule just by playing an appropriate game. Another advantage in teaching through games is that games increase learners' proficiency. Playing games in the classroom can enormously increase children's ability in using language because they have a chance to use it with a purpose and in the situations mentioned.

Game-like activities provide choices for the classroom. 'They allow teachers to add variety and flexibility to the teaching menus'. Sometimes educators feel weighed down by assigned curricula and need to come up with new ideas and interesting activities.²

Students have come to class carrying baggage from their day. While their class time with you is just one component of their lives, it's very likely an important one for them professionally and personally. Quite the contrary, games are perfect for practicing vocabulary and targeting grammar; thus increasing camaraderie through light competition, boosting energy levels, reducing stress, promoting problem-solving, and buying more focused lesson time later in the hour. While it's clear that children and beginners shine brighter when playing, it's also true that adults and advanced learners enjoy competition and lighter moments in class. This is not to say that you should convert your class into a permanent playpen, rather, that the addition of moments of play give contrast in class and allows students of all learning types to thrive. The followings are classic games that can be adapted to suit different skill levels.

1. **Casino** Divide students into groups and give each a budget of, say, mythical money. Explain that they are going to bet their money to try to win more (establish a minimum bet). Write an incorrect sentence on the board, adapting the gravity of the error for your class's level, and ask each group to identify the error, write it down, and make a bet. The groups who identify the error win, while those who didn't, lose their bet. Repeat several times.

Pictionary, charades, and celebrity heads Always classic, these games are super versatile, let students practice specific vocabulary and expressions, and have the added bonus of encouraging a gleeful sort of atmosphere. Create a stack of words, phrases, concepts, or historical figures that your class has recently studied and try to mix levels amongst teams. You might like to experiment with playing as a whole class (where half competes against the other half) or in smaller groups with time limits.³

² Simona Laurian-Fitzgerald. The Effects of Using Games for English as a Second Language Primary School Learners

³ <https://www.eslkidstuff.com/Gamescontents.htm>

Taboo This is a great way to get students speaking and practice your unit's vocabulary. In Taboo, one student must communicate a concept or word to their partner without using a specific list of related words. For example, they must make their partner say "forest", yet they are not allowed to use the words "tree," "woods," "Sherwood," or "Black". Once their partner says the word, the students switch roles.

Twenty objects Put 20 objects on a table and give students a minute to memorize them. Cover the objects with a cloth and ask the students to write down as many as they can remember. You might choose to use objects related to your current module of study or that are connected in some other way.

Categories Put up a simple table on the whiteboard with a different category in each column, for example: United States presidents, rivers, fruit, movie titles, boy's names, emotions, animals, cities. (Alter the categories for difficulty according to your class's level.) Randomly select a letter of the alphabet. Now, within a time limit groups or pairs of students must identify one example per category. The first group to correctly do so wins.

Bingo This classic game is often forgotten and can easily be adapted to suit your class's needs. Besides classic bingo, you might create play boards where students cross off pictures, antonyms, synonyms.

There are thousands of educational games for elementary level pupils and it is not limitation. A good teacher can create new types or adapted version of the games that are suitable for his or her class. Because the atmosphere, facilities and culture differ from each other. And that is why teachers must be creative at selecting appropriate games and adapting them into the class.

We can conclude that games can help children acquire new language and memorize words. Unintentionally they learn the grammar of English and they automatically be able to communicate in the target language step by step. All main skills can be practiced by games in an interesting and motivating way, so it is so crucial to apply educational games in every lesson. And I believe, if we spend at least five minutes to motivate and encourage our pupils by interesting games at each lesson, our pupils will not lose their interest to learn English and we will achieve our goal of the curriculum that is required by teachers.

BIBLIOGRAPHY

1. Arum Nisma Wulanjani The Use of Vocabulary- Games in Improving Children's Vocabulary in English Language Learning
2. Dwi Nurul Fajariyah. Improving Students' Speaking Proficiency Using Games- 2008/2009

3. Mania Moayad Mubaslat. The Effect of Using Educational Games on the Students' Achievement in English Language for the Primary Stage – 2011
4. Simona Laurian-Fitzgerald. The Effects of Using Games for English as a Second Language Primary School Learners
5. Vacide Erdoğan. Integrating 4C Skills of 21st Century into 4 Language Skills in EFL Classes
6. Ying-Jian Wang. Investigating the Impact of Using Games in Teaching Children English. International Journal of Learning & Development, November 28, 2011

XOTIRA PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Xasanova Shaxzoda Nurmamat qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti Matematika yo`nalishi
3 – bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotira psixologik fenomen sifatida uning turlari va xususiyatlari talqini aks etgan. Shuningdek, miya yarim sharlarining xotira jarayonida tutgan o`rniga ham alohida e`tibor qaratib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Xotira, fiksatsiya, retensiya, reproduksiya, konsentratsiya, motivatsiya.

Xotira – idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o`tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo`lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. Xotira eng yaxshi damlarni esda qoldiradi. U nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo`lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida hamda xulq, xatti – harakat doirasida takrorlash qobiliyatida namoyon bo`ladi. Xotiraning fiziologik asosi bosh miya yarim sharlari po`stlog`ining muvaqqat bog`lanishi hamda ularning keyingi faoliyatidan iborat. Xotira kunlarni, axborotlarning uzoq vaqt va mustahkam saqlanishi, shuningdek, muhitdagi murakkab signallarni idrok etish hamda adekvat reaksiyalarda ishlab chiqish bosh miya nerv hujayralari (neyronlar) sonining ko`payib borishi hamda uning strukturasi murakkablashuvi jarayonida o`sib boradi.

Xotira 3 turga bo`linadi:

1.Fiksatsiya(eslabqolish)

2.Retensiya(esdasaqlash)

3.Reproduksiya(esgatushirish)

Fiziologik tadqiqotlarda, qisqa va uzoq muddatli xotiralar ya`ni “Retensiya” qayd etilgan. Qisqa muddatli xotirada axborotlar bir necha daqiqadan bir necha o`n minutgacha saqlanadi, neyronlar ishiga xalal berilganda u buziladi. Uzoq muddatli xotirada axborotlar odam umri bo`yi saqlanib turli ta`sirlarga chidamli bo`ladi. Boshqa psixik hodisalar kabi xotira ham shaxsning xususiyatlari, uning ehtiyoji, qiziqishlari, odati, fe`l – atvori va shu kabilar bilan uzviy bog`liq. Xotira namoyon bo`lishdagi shakliga ko`ra, shartli ravishda emotsional xotira (tuyg`ularni esda tutish), obraz xotirasi (narsalarning tasviri va xususiyatlarini esda tutish), so`z – mantiq xotirasi (narsalarning mohiyati, mazmunini so`z bilan ifodalangan holda esda tutish) kabi turlarga bo`linadi. Bulardan insonda so`z – mantiq xotirasi yetakchi o`rin tutadi. Xotiraning barcha turlari bir – biri bilan chambarchas bog`liq holda kechadi. Psixologiyada, shuningdek, “Fiksatsiya” ya`ni ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotiralar farq

qilinadi. Ixtiyoriy xotirada muayyan materialni esda olib qolish oldindan maqsad qilib qo`yiladi, ixtiyorsiz xotirada bunday maqsad bo`lmaydi, biror faoliyatda oz – ozidan esda saqlab qolinadi. Barqarorligi jihatdan ixtiyoriy xotira ixtiyorsiz xotirada samaraliroq. “Reproduksiya” esa bevosita va bilvosita turlarga bo`linadi.

Insonlardagi esda saqlash jarayoni ya`ni xotira inson miyasi bilan uzviy bog`liq. Insonning miyasi o`ng va chap yarimsharlardan iborat. O`ng yarimshar ritm, musiqa, tasvir, tasavvur, o`lchov kabi rang – barangliklarni o`z ichiga oladi. Chap yarimshar esa fanga oid vazifalarni bajaradi – til, mantiq, raqamlar, analiz, ketma – ketlik, ya`ni chap yarimsharning asosiy mutaxassisligi mantiqiy fikrlash. Chap yarimshar qonuniylikni xush korsa, o`ng yarimshar mantiq chegaralaridan chiqish, hur fikrlash kabi vazifalarni o`z ichiga oladi.

Malumotlarni eslab qolishga yordam beradigan usullarning bir nechtasi bilan tanishamiz.

Xotiramizning 4 ta asosiy xususiyati bor. Agar bu fundamental qonunlarning bosh harflarini olib birlashtirsak, **MATO** sozi kelib chiqadi. Tadqiqotlar ko`rsatadiki, ro`yxatdagi so`zlarni yodlashda shunday bosh harflardan foydalanish axborotni eslab qolishni osonlashtiradi.

Makon

Assotsiatsiya

Tasavvur

Oraliqni takrorlash

Makon – ilmiy tadqiqotlarga ko`ra, agarda kishi nimanidir eslayotib qaysidir makonni yodga olsa, ma`lumotni eslab qolish oson bo`larkan. Siz biror bir qo`shiq eshitganingizda bu qo`shiqni dastlab qayerda eshitganingiz yodingizga tushadi – xotiramiz makonlarga nechog`lik bog`liq ekanligini ko`rsatadi.

Assostatsiya – bu xotiraning ikkinchi asosiy xususiyati. Miyamiz doimo bir narsani boshqa narsaga bog`lab oluvchi mashinadir. Birorta ma`lumotni eslab qolishingiz uchun uni siz tasavvuringizni ishlatib o`zingizga ma`lum bo`lgan birorta ma`lumot bilan bog`laysiz.

Dunyodagi barcha narsalar boshqa narsalarga bog`liq.

Leonardo Da Vinchi

Tasavvur – Toni Buzannining fikricha, miyamizning tili hisoblanadi. Kompyuter ma`lumotlarni saqlab qolish uchun doimo ikkilik sanoq sistemasiga o`tkazib saqlab qoladi. U hech qanday analog informatsiya ikkilik sanoq sistemasiga o`tkazmasdan saqlab qololmaydi. Aynan shunday eslab qolish uchun bizning miyamiz tasavvur hosil qiladi. Bizda tasavvur paydo bo`lmasa eslab, yodlab qolish mushkul bo`ladi. Rasm bilan ishlash eslab qolish uchun o`ta foydali va rasmni eslatadigan so`zlar ikki barobar tez esda qoladi.

Takrorlash – xotiramizning yana bir xususiyati bor. Takrorlangan ma'lumot xotirada saqlanib qoladi. Bu hammaga ma'lum bo'lgan uslub. Miyamiz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, neyronlardan tashkil topgan, axborot o'sha neyronlardagi sinapslar orqali harakat qiladi, agarda o'sha yo'laklardan axborot o'taversa, neyronlar shishib kattalashadi va bu eslab qolishga olib keladi.

Xotira ikkilamchi xususiyatlari ham 4 ta bo'lib, bularning bosh harflari **KEMA** so'zi kelib chiqadi. Kema so'zini yoyib chiqsak, quyidagi so'zlar hosil bo'ladi.

Konsentratsiya

Etibor

Motivatsiya

Antiq hikoya

Konsentratsiya. Ko'pchilik konsentratsiya bilan inson miyasining e'tiborini adashtiradi. Aslida bu ikkalasi bizning miyamizning ikki xil aqliy vazifasini bajaradi. Konsentratsiya aynan e'tibor berishdan kelib chiqqan bo'lib, biz biror narsaga uzoq muddat e'tibor berib tursak, demakki, unga konsentratsiya qilayotgan bo'lamiz. Shuningdek konsentratsiyaning 2 asosiy qonuni bor: birinchisi – insonning irodasiga bog'liq va u o'z – o'zidan paydo bo'lmaydi; ikkinchisi – qobiliyat, ya'ni uni o'rgansa bo'ladi. Ijmoiy nuqtai nazardan olib qarasak, konsentratsiya – butun diqqatni bir narsaga jamlash hisoblanadi.

Etibor. Etibor berish, har bir tananing vazifasidir va uni hech kimga o'rgatishning keragi yo'q, u xuddi nafas olishimizdek bizda tabiiy ishlaydi. Yana malumki, etibor bir narsadan ikkinchisiga o'tuvchi qobiliyatimiz va biz, odatda, birorta narsaga eng ko'pi bilan 7 yoki 10 daqiqa etibor bera olamiz. Bu miyamizning chegarasi. Odatda, 7 soniyalik etibor berish qisqa muddatda turgan xotirani uzoq muddatli xotiraga siljitar ekan.

Motivatsiya – bu ichki xohish bo'lib, bu muvaffaqiyatning kalitlaridan biri hisoblanadi. Motivatsiya eslab qolishda kata ahamiyatga ega. Motivatsiya bilan qiziqishning ham farqi bor. Qiziqish sizning etiboringizni tortib, ajablantiruvchi narsa bo'lsa, motivatsiya sizni o'sha narsani uddalashingiz uchun kerak bo'luvchi xohish – istak, sababdir.

Antiq hikoya – hikoyadan ibrat. Siz eslab qolishda hikoyalardan foydalanishingiz mumkin. Bunda size eslab qolishingiz kerak bo'lgan narsalar, joylar, ismlar, raqamlar va hokozalarni qatnashtirib hikoya tuzasiz. Bu texnika oddiy takrorlashdan ko'ra ko'p vaqt talab qiladigandek bo'ladi, ammo sarflangan harakat o'z samarasini beradi. Sizning hikoyangiz eslab qolishingiz kerak bo'lgan narsalarni o'z ichiga olishi eng asosiy jihatdir.

Bulardan tashqari boshqa eslab qolishni osonlashtiradigan kichik jihatlar ham mavjud. Bular: rang, ritm, harakat, tartib, hajm, qiziqarlilik, tizimli fikrlash, amaliyot, absurd – noodatiylik, manodorlik, kuzatuvchanlik, muhimlik.

Ранг – qanchalik ko`p ishlatsangiz, aqliy tasavvur shunchalik ravshan hosil bo`ladi. rangli kitoblar o`qiganda eslab qolish ehtimoli oshadi. Ranglar orqali xotirani 50 % ga oshirish mumkin.

Ритм. Hayotda hamma narsa ritmdir. Sher va musiqa ritm tufayli esda yaxshi qoladi. Chiroyli va esda qolishga oson ritm tufayli narsalarni yanada yaqqol xotirlaymiz.

Biz yuqorida xotira, uning turlari, esda saqlashning oson va samarali usullari bilan tanishib chiqdik. Usullaridan faqat esda saqlash uchun emas, balki hayotning boshqa sohalariga ham jalb qilish mumkin. Shuningdek, bu uslublar aynan miyamiz ishlash tamoyillariga asoslangan va ularga amal qilish orqali siz xotira kuchi bilan yanada yaqinroq tanishasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.E. G`oziyev. Umumiy psixologiya.II- kitob. Toshkent, 2002.
2. Aaron Nelson. Achieving Optimal Memory. New – York, 2005.
3. Shohruh – Mirzo Rahmonov. Mukammal xotira yohud miyangizni qobiliyatlarini qayta kashf qiling. Toshkent, 2014.
- 4.Boris Konrad. Gedachtnistechniken. Berlin, 2008.
5. Dmitriy Petrov. Magiya Slova. Moskva, 2010.

МАКТАБДА О`QUVCHILARDA МАТЕМАТИК ҚОБИЛИЯТЛАРНИ RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xasanova Shaxzoda Nurmatamat qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika
intituti Matematika yo`nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabda o`quvchilarda matematik qobiliyatni rivojlantirish usullari, matematik qobiliyatni namoyon qilish omillari atroflicha o`rganib chiqildi.

Kalit so`zlar: qobiliyat, matematik qobiliyat, ko`nikma, malaka, sinchkovlik, intiluvchanlik.

Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo`lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig`indisi. Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari – faoliyat muvaffaqiyatlarining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo`yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo`sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya`ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog`lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

Psixologiya fanida qobiliyatlar quyidagicha tavsiflanadi:

Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo`lib, idrok qilish, xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir.

Maxsus insoniy qobiliyatlar ijtimoiy – tarixiy tabiatga ega bo`lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta`minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o`z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo`linadi.

Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta`minlovchi aqliy qobiliyatlar, xotira va nutqning rivojlanganligi, qo`l harakatlarining aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat.

Xususiy qobiliyatlar quyidagi turlarga bo`linadi:

Ilmiy qobiliyat abstrakt, evristik fikrlashning yuksak rivojlangan bo`lishini, og`zaki mantiqiy xotirani, qat`iyat va sabr – toqatni talab qiladi.

Badiiy qobiliyat sensor obrazli fikrlashning alohida rivojlangan bo`limini, o`tkir emotsional ta`sirchanlik va reaktivlikni talab qiladi. Bu qobiliyatga tasvirlash, musiqaviy, artistik va adabiy qobiliyatlar kiradi.

Amaliy qobiliyat praktik aqlning yuksak darajada rivojlanganligini, fahm – farosatning kuchliligi, iroda va yetuk kirishuvchanlik o`z ichiga oladi.

Математик qobiliyat matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish amallarini kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o`rtasida aloqa o`rnatish, to`g`ri va teskari fikr yuritishdagi yengillik, unumlilik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilarni o`z ichiga oladi.

Adabiy qobiliyat nafosat hislarining yuksak taraqqiyoti darajasi xotirada yorqin ko`rgazmali obrazlarning jonliligi, “til zehni”, behisob xayolan ruhiyatga qiziquvchanlik, intiluvchanlik va boshqalar.

Biz o`quv jarayonida o`quvchilarda shakllanishi muhim bo`lgan matematik qobiliyatni atroflicha o`rganib chiqamiz. V.A.Kruteskiy matematik qobiliyat tuzilishiga quyidagilarni kiritadi:

1) qobiliyatda bolalarning matematik materialni qabul qilish borasidagi qobiliyatiga matematik obyektlar, munosabat va amallarni shakl holiga keltirib idrok qilish matematik materialga o`ziga xos “yig`ma” analitik – sintetik ishlov berish qobiliyatini qayd qilish lozim.

2) qobiliyatli o`quvchilarni fikrlashi quyidagilar bilan:

a. miqdoriy va fazoviy munosabatlar, sonlar va belgilar simbolikasi sohalarida mantiqiy fikrlash qobiliyati;

b. matematik materiallarni tez va keng umumlashtira olish;

c. matematik mulohazalar jarayonida qisqacha aqliy xulosalar yordamida fikrlashga moyillik;

d. fikrlash jarayonlarining nihoyatda moslashuvchan va harakatchanligi;

e. yechimda ravshanlik, soddalik, ratsionallik va ixchamlikka intilish.

3) matematik axborotni xotiraga saqlash va hokozalar.

Maktab o`quvchilarida matematik qobiliyat borligini taxmin qilishga asos bo`ladigan tashqi alomatlarni belgilash mumkin. bular quyidagilar:

1. o`quvchining matematikaga oid ochiq – oydin qiziqishini namoyish qilishi, hech kim majbur qilmasdan, o`zining bo`sh vaqtini sarflab, matematika bilan bajonidil shug`ullanishga moyillik;

2. muayyan matematik ko`nikma va malakalarni odatdagidan kichikroq yoshda o`zlashtirish qobiliyati;

3. matematikani o`zlashtirish sohasida tez siljib borish;

4. matematik taraqqiyot va yutuqlarning yuqori darajasi.

Har qanday qobiliyat faoliyat natijasida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatsiz amalga oshirib bo`lmaydigan faoliyatlardagina namoyon bo`ladi. O`quvchilarda ham zaruriy ko`nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo`qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko`rilmasdan, shoshilinch ravishda unda matematik qobiliyat yo`q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi hisoblanadi.

Misol uchun, Albert Eynshteyn o`rta maktabda uncha yahshi o`qimaydigan o`quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo`lishidan hech narsa dalolat bermagan. Ammo unga to`g`ri yondoshish tufayli uning qobiliyati uyg`ota bilangan.

Shu o`rinda matematik qobiliyatni rivojlantiruvchi va shakllantiruvchi qator omillarga to`xtalib o`tamiz. Bular quyidagilar:

- 1.Ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sharoitga qarab tegishli tabiiy zehn, nishonalarni aniqlash yo`li bilan;
- 2.Mutaxassis (matematik pedagog) rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo`li bilan;
- 3.Umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo`li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o`zlashtirishni, tanlagan faoliyat bo`yicha ko`nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlasin;
- 4.O`quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo`li bilan;
- 5.Shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo`li bilan borish kerakki, bu alomatlar dastavval mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik, intiluvchanlik, qat'iyatlik, sinchkovlik va tanqidiylikdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsam, matematik qobiliyat bilim va malakaning o`zida ko`rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo`ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo`lgan bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.G`oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1 – 2 kitob.
- 2.Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan.
- 3.S.K. Mangal:"General Psychology" 2013y.
- 4.Югай А. Х., Мираширова Н.А. "Общая психология" – Ташкент 2014.
5. Дружиния В.. "Психология" . Учебник. "Питер" 2003.
- 6.Болотова А. К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.

FUNKSIYA GRAFIGINING ASIMTOTALARI


Xasanova Shaxzoda Nurmatamat qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti “Matematika” yo`nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada funksiya grafigining asimtotalari mavzusiga oid ta`riflar, tushunchalar va tasdiqlar berilgan bo`lib, alohida misollar bilan yoritilgan.

Kalit so`zlar. vertikal asimptota, gorizontaal asimptota, ikki tomonlama og`ma asimptota, o`ng og`ma asimptota, chap og`ma asimptota.

Funksiyani tekshirayotganda uning grafigi koordinatalar boshidan cheksiz uzoqlashganda, yoki boshqacha aytganda, uning o`zgaruvchi nuqtasi cheksizlikka intilganda grafikning ko`rinishini bilib olish muhim.

1 – ta`rif. Agar o`zgaruvchi $M(x; y)$ nuqta funksiya grafigi bo`yicha koordinatalar boshidan cheksiz uzoqlashganda $y = f(x)$ funksiya grafigidagi o`zgaruvchi $M(x; y)$ nuqtadan to`g`ri chiziqdagi $N(x_1; y_1)$ nuqttagacha bo`lgan $d = MN$ masofa nolga intilsa, bu to`g`ri chiziq $y = f(x)$ funksiya grafigining asimtotasi deyiladi.



1 – rasm.





Oy va Ox o`qlarga parallel hamda koordinata o`qlariga parallel bo`lmagan asimptotalarni qaraymiz.

1. Vertikal asimptotalar. $y = f(x)$ fuksiyada α nuqtning biror $\varepsilon > 0$ atrofida aniqlangan, ya`ni $x \in U_\varepsilon(\alpha)$ bo`lsin.

2 – ta`rif. Agar

$$\lim_{x \rightarrow \alpha - 0} f(x), \quad \lim_{x \rightarrow \alpha + 0} f(x)$$

lardan biri yoki ularning ikkalasi ham cheksiz bo`lsa, $x = a$ to`g`ri chiziq $f(x)$ funksiya grafigining vertikal yoki Oy o`qqa parallel asimptotasi deyiladi (2-a,b,d,e rasmlar).



Demak, $y = f(x)$ funksiya grafining vertikal asimptotalarini izlash uchun funksiyaning qiymatini cheksizlikka aylantiradigan (cheksiz uzilishga ega boʻlgan) $x = a$ nuqtani topish kerak ekan. Bunda $x = a$ toʻgʻri chiziq vertikal asimptota boʻladi.


Eslatma. Umuman aytganda, $y = f(x)$ funksiyaning grafigi bir nechta vertikal asimptotalarga ega boʻlishi ham mumkin.

1 - misol $f(x) = \frac{1}{x-2}$, $x \in [-2; 3]$ funksiya grafigi ning vertikal asimptotasini toping.

Yechilishi. Berilgan funksiyaning maxraji $x = 2$ nuqtada nolga aylanadi. $x \rightarrow 2 \pm 0$ da berilgan funksiyaning limitini hisoblaymiz:

$$\lim_{x \rightarrow 2-0} f(x) = \lim_{x \rightarrow 2-0} \frac{1}{x-2} = -\infty, \quad \lim_{x \rightarrow 2+0} f(x) = \lim_{x \rightarrow 2+0} \frac{1}{x-2} = +\infty.$$

Demak, 2 - taʻrifga koʻra, berilgan funksiyasining grafigi uchun $x = 2$ toʻgʻri chiziq vertikal asimptota boʻladi (3-rasm).







Gorizontalar asimtotalar.

3-ta'rif. Agar

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} f(x) = b \quad (b \in R^1)$$

$$(x \rightarrow -\infty)$$

bo'lsa, $y = b$ to'g'ri chiziq $x \rightarrow +\infty$ ($x \rightarrow -\infty$) da $y = f(x)$ funksiya grafigining gorizontali yoki Ox o'qqa parallel asimptotasi deyiladi (4-a,b,d,e rasmlar).




2 – misol. $f(x) = \frac{x^2}{x^2+2}$ funksiya grafigining gorizontalar asimptotasini toping.

Yechilishi. Berilgan funksiya R^1 da aniqlangan. $x \rightarrow \pm\infty$ da berilgan funksiyaning limitini hisoblaymiz:

$$\lim_{x \rightarrow \pm\infty} f(x) = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{x^2}{x^2 + 2} = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{1}{1 + \frac{2}{x^2}} = 1.$$

Demak, 3 – ta`rifga ko`ra, berilgan funksiyasining grafigi uchun $y = 1$ to`g`ri chiziq gorizontaal asimptota bo`ladi (5-rasm).



3.Og`ma asimptotalar.

4 – ta`rif. Shunday k va b chekli sonlar mavjud bo`lib, $x \rightarrow +\infty$ ($x \rightarrow \infty$) da $f(x)$ funksiya quyidagi

$$f(x) = kx + b + \alpha(x)$$

ko`rinishda ifodalansa (bunda $\lim_{x \rightarrow \pm\infty} \alpha(x) = 0$), $y = kx + b$ to`g`ri chiziq

$y = f(x)$ funksiya grafigining og`ma asimptotasi deyiladi. Xususiyl holda, $k = 0$ bo`lsa, $y = b$ to`g`ri chiziq gorizontaal asimptota bo`ladi.

1 – teorema. $y = f(x)$ funksiya grafigi $x \rightarrow \pm\infty$ da $y = kx + b$ og`ma asimptotaga ega bo`lishi uchun

$$\lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{f(x)}{x} = k, \quad \lim_{x \rightarrow \pm\infty} [f(x) - kx] = b$$

Munosabatlar o`rinli bo`lishi zarur va yetarli.

(1) limitlarni hisoblashda quyidagi xususiyl holler bo`ladi:

1 – hol. Argumentning ishorasiga bog`liq bo`lmagan holda, ushbu

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x)}{x} = \lim_{x \rightarrow -\infty} \frac{f(x)}{x} = k$$

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} [f(x) - kx] = \lim_{x \rightarrow -\infty} [f(x) - kx] = b$$

ikkala limit ham mavjud va chekli. Bu hol $y = kx + b$ to`g`ri chiziq funksiya grafigining ikki tomonlama og`ma asimptotasi bo`ladi.

2-hol. Argument x ham musbat, ham manfiy ishorali cheksizlikka intilganda ,ushbu

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x)}{x} = k_1, \quad \lim_{x \rightarrow -\infty} \frac{f(x)}{x} = k_2,$$

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} [f(x) - kx] = b_1, \quad \lim_{x \rightarrow -\infty} [f(x) - kx] = b_2$$

Limitlar mavjud, lekin ular o'zaro har xil (hech bo'lmaganda $k_1 \neq k_2$ yoki $b_1 \neq b_2$ teng emas). Bu holda $y_1 = k_1x + b_1$ va $y_2 = k_2x + b_2$ to'g'ri chiziqlar funksiya grafigining mos ravishda ikkita bir tomonli (o'ng va chap) og'ma asimptotalari bo'ladi.

3-hol. Faqat $x \rightarrow +\infty$ da

$$\lim_{x \rightarrow -\infty} \frac{f(x)}{x} = k, \quad \lim_{x \rightarrow -\infty} [f(x) - kx] = b$$

Ikkala limit ham mavjud. Bu holda $y = kx + b$ to'g'ri chiziq funksiya grafigining faqat o'ng og'ma asimptotasi bo'ladi.

4-hol. Faqat $x \rightarrow -\infty$ da

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x)}{x} = k, \quad \lim_{x \rightarrow +\infty} [f(x) - kx] = b$$

Ikkala limit ham mavjud. Bu holda $y = kx + b$ to'g'ri chiziq funksiya grafigining faqat chap og'ma asimptotasi bo'ladi. Agar yuqoridagi hollarning barchasida $k = 0$ bo'lsa, $y = b$ to'g'ri chiziq gorizontaal asimptota bo'ladi.

3-misol. $y = \sqrt[3]{x^3 + 1}$ funksiya grafigining og'ma asimptotalarini toping.


Yechilishi. Og'ma asimptotalarni topamiz:

$$k = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{f(x)}{x} = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{\sqrt[3]{x^3 + 1}}{x} = 1,$$

$$b = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} [f(x) - kx] = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} [\sqrt[3]{x^3 + 1} - x] =$$

$$= \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{x^3 + 1 - x^3}{\sqrt[3]{(x^3 + 1)^2 + x^3\sqrt[3]{x^3 + 1} + x^2}} = 0.$$

Demak, 1 – teoreмага asosan, $y = x$ to'g'ri chiziq berilgan funksiyasining grafigi og'ma asimptotasi bo'ladi (6-rasm).



2- теорема. $y = f(x)$ funksiyaning grafi $x \rightarrow +\infty$ da

$$y = a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_1 x + a_0$$

Asimptotaga ega bo`lishi uchun quyidagi $n + 1$ ta limit qiymatlarning mavjud bo`lishi zarur va yetarli:

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x)}{x^n} = a_n, \quad \lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x) - a_n x^n}{x^{n-1}} = a_{n-1}, \dots,$$

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x) - a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_2 x^2}{x} = a_1,$$

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} [f(x) - (a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_1 x)] = a_0$$

6-misol. $f(x) = \frac{x^3 + 2x - 3}{x - 3}$ funksiya grafigining asimptotasini toping.

Yechilishi. Berilgan funksiyani

$$f(x) = x^2 + 3x + 11 + \frac{30}{x - 3}$$

ko`rinishda tasvirlaymiz, bunda $\lim_{x \rightarrow \infty} a(x) = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{30}{x - 3} = 0$.

Demak, $y = x^2 + 3x + 11$ chiziq, ta`rifga ko`ra, berilgan funksiyasining grafigining asimptotasi bo`ladi. Ravshanki, $x = 3$ to`g`ri chiziq berilgan funksiya grafigining vertikal asimptotasi bo`ladi.

Oy va Ox o`qlarga parallel hamda koordinata o`qlariga parallel bo`lmagan asimptotalarni ko`rib chiqildi. Ular uch turga bo`linadi: vertikal asimptotalar, gorizontal asimptotalar va og`ma asimptotalar. Va ularni alohida – alohida ko`rib chiqildi. Ularga doir misollar va grafiklar bilan mavzu mustahkamlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gaziyev A. Israilov I. Yaxshiboyev M. Funksiyalar va grafiklar. – T.: "Vorish-Nashriyot". 2006.
2. Новосёлов С.И. Algebra va elementar funktsiyalar. – T.: "O'ZDav o'quvped" nashr. 1954.
3. Saxaev M. Maktabda funksiya va grafiklarni o'rganish. – T.: "O'qituvchi", 1967.
4. Tolipov A. Elementar funktsiyalar. – T.: "O'qituvchi", 1992.
5. Вирченко Н.А. Ляшко И.И. Щецов К.И. График функции: Справочник. – Киев: "Наука думка", 1979.

AYOLLAR MIGRATSIYASI NATIJASIDA KELIB CHIQUADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI YECHIMIGA OID DAVLAT SIYOSATI.

Komilova Shaxlo Boxodirjonovna

O'zbekiston Milliy Universiteti

Tarix fakulteti Etnografiya, etnologiya va

antropologiya yo'nalishi 2-kurs

magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ayollar migratsiyasi jarayonlari va buning natijasida kelib chiqadigan muammolar Farg'ona viloyati Dang'ara tumani ayollari misolida tahliliy bayon qilinadi. Maqolada ayollar migratsiyasi muammolari va ularning yechimiga oid davlat siyosati yo'nalishlariga urg'u berildi.

Kalit so'zlar: globallashuv, ayollar mehnat migratsiyasi, ijtimoiy hayot, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, o'zbek mentaliteti, davlat siyosati.

KIRISH: Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya, xavfsizlik va boshqa jihatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Yangi ming yillikda zamonaviy hodisa sifatida ayollar migratsiyasi butun dunyoda juda faol tarqalmoqda. Ayollar migratsiyasi bu ayollarning ish topish imkoniyati mavjud bo'lgan mintaqa va mamlakatga ko'chish jarayonidir. Ayollar mehnat migratsiyasi global migratsiyaning bir qismiga aylandi. Kam rivojlangan mamlakatlar va mintaqalardan kelgan ayollar birinchi navbatda tirikchilik izlab rivojlangan mintaqalar va davlatlarga bormoqdalar.

ASOSIY QISM: O'zbek ayollari orasida ishlash maqsadida bo'lsin yoki boshqa sabablar bilan chetga chiqish, ya'ni ayollar migratsiyasi mutlaqo begona holat hisoblanadi. Bunday holatlar oldin kuzatilmas, ayollar begona ko'zlardan saqlanar edi. O'zbek oilalarida erkak kishining chetda migrant bo'lib ishlab pul yuborib ro'zg'or tebratishiga ko'pchilik o'rgangan. Ayniqsa qishloq hududlarda yigitlar maktabni tamomlab biror horijiy davlatga ketib ishlashi odatiy holga aylangan. Hozirgi globallashuv sharoitida ayollar ham erkaklar singari tirikchilik kuyida chetga ishlash uchun ketishmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda 2,3 mln o'zbekistonlik horijda mehnat qilmoqda. Shulardan 568 492 nafari ayollardir.¹ Bu borada ayniqsa vodiylar viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Hozirda Andijon viloyatidan 48 ming, Namangan viloyatidan 11 ming, Farg'ona viloyatidan 30 ming ayollar migratsiyada. Sabablar esa aniqki, iqtisodiy asoslarga ega. Iqtisodiy muammolar oilalardagi muhitga ta'sir ko'rsatmay qolmayapti. Farg'ona viloyati Dang'ara tumanining bir qator qishloqlarida kuzatuvlar olib borganimizda shu narsa

¹ Migration.uz. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi.

aniq bo'ldiki, sabablar bir-biriga juda yaqin. Intervyularimiz natijalariga ko'ra ayollar avvalo oiladagi yetishmovchilik, farzandlar uchun munosib sharoyit yaratish, doimiy ish o'rinlarining yo'qligi, qarzdorlik, oilaviy kelishmovchiliklar, o'z uy-joyining yo'qligi, qarindoshlarining davolanishi uchun mablag'ga muhtojlik, ba'zi holatlarda turmush o'rtog'ining ro'zg'or yukini ayoli zimmasiga tashlab qo'yganligi sabab ayollar chetga ishlashga ketmoqdalar.

Ayollarning mehnat migratsiyasi bir necha shakllarda mavjud: qonuniy, noqonuniy va yarim qonuniy.²

Huquqiy shakl ayollar mehnat migratsiyasining eng yaxshi, ammo eng kam sonli shakli bo'lib, ayollar ish beruvchilar bilan mehnat shartnomalarini imzolash orqali mezbon mamlakatlarda to'liq xavfsiz holda qonuniy qolishlari mumkin

Noqonuniy shakl - bu ayollar mehnat migratsiyasining eng ko'p va xavfli shakllaridan biri bo'lib, ayollar noqonuniy yoki qisqa muddatli turistik vizalar bilan mezbon davlatlar hududiga kirganda va aniqrog'i ular faqat Rossiyaning noqonuniy yoki yarim qonuniy sektorlarida ishlashlari mumkin. Iqtisodiyot, mezbon mamlakatlardagi noqonuniy mavqei tufayli ular ayniqsa zaif va ko'pincha haqorat, zo'ravonlik, ta'qib, turli xil kamsitishlarga duchor bo'lishadi.

Yarim huquqiy shakl - bu ayollar mehnat migratsiyasining ikkita eng ko'p va xavfli shakllaridan biri bo'lib, ayollarga, hatto o'z mamlakatlarini tark etishdan oldin, qonuniy ishlash va qabul qiluvchi mamlakatlarda rasmiy ro'yxatdan o'tish va da qilinishi mumkin, lekin chegarani kesib o'tishda, ularning pasportlari olib qo'yiladi va ular mehnat yoki jinsiy qullikka tushib, amalda odam savdosi qurboniga aylanishadi.³

Ayollar migratsiyasi kengayishda davom etmoqda, chunki:

birinchidan, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida aholi qarib, qariyalar ko'proq g'amxo'rlikka muhtoj;

ikkinchidan, ayrim mamlakatlarda aholi farovonligi oshib bormoqda, uy xo'jaliklari uy bekasi, enaga, oshpaz va hokazolarni yollash imkoniyatiga ega.⁴

Dunyodagi aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotining ayrim sohalarida va mintaqalarida alohida kasblar va ish turlarida ishchi kuchining etishmasligi horijiy ishchi kuchining bandligiga imkon bermoqda. Birinchi navbatda kam haq to'lanadigan va malaka talab qilmaydigan sohalarda, olis ish joylarida shunday holat kuzatilmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yildan keyin 272 million xalqaro migrant ro'yxatga olingan bo'lsa, shuning 47,9 foizini (130 million) ayollar tashkil

² Пескова Д.Р. Абреу Бастос О.П. Причины, риски и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне. Fundamental Research №11, 2014 стр. 596 – 600

³ Пескова Д.Р. Абреу Бастос О.П. Причины, риски и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне. Fundamental Research №11, 2014 стр. 596 – 600

⁴ F. Parmonov. Xalqaro migratsion jarayonlar. Jamiyat va boshqaruv. 2009-yil 4-son, 33

etgan. Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlaridan muhojirlarning 49,4 foizi ayollardir⁵. Ayollar orasida mehnat migrantlarining ko'payishi yoki kamayishi mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi. Kam daromadli davlatlardan tobora ko'proq ayollar oila boqish, pul ishlab topish uchun chetga ishlash uchun chiqadi. Hozirda O'zbekiston viloyatlarida migratsiya jarayonlari ayollar uchun boshqa davlatda ish topish imkoniyati hisoblanadi.⁶

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil statistik ma'lumotlar bo'yicha chet elda vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston fuqarolari soni o'rtacha 2,4 million kishini tashkil qilmoqda. Shundan 568,5 ming nafari ayollar (24,1%), 827,1ming (35,1%) yoshlardir.⁷

Indiana Universiteti (AQSH) Antropologiya fakulteti doktoranti, Inson huquqlari markazi (Dushanbe) xodimi Malika Bahovadinova migratsiyaning feminizatsiyasi mavzusini o'rganib chiqdi va migratsiya jarayonida ayollar duch keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni tahlil qilgan. Uning fikricha migratsiya statistikasi manbasidan qat'iy nazar taxminan bo'ladi. Songgi ma'lumotlarga qaralsa Tojikistondan Rossiyaga migratsiya oqimida ayollar ulushi taxminan 17 foizni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich migratsiyadagi ayollar ulushi allaqachon sezilarli oshganini bildiradi va u yana ortib borishi mumkin. Bu ko'rsatkich qo'shni davlatlar Qirg'izistonda 39 foizni, O'zbekistonda esa 19 foizdan ortiqni tashkil etadi.⁸

Shuni alohida ta'kidlash kerakki Malika Bahovadinova fikricha ayollar o'nlab yillar davomida Rossiyaga mehnat oqimining bir qismi bo'lib kelgan. Sovet davrida ko'plab oliy ma'lumotli ayollar asosan Moskvadagi restoran va kafelarda idish yuvuvchi va farrosh bo'lib ishlagan. Ko'pchiliklari asosan savdo-sotiq bilan shug'ullanishgan.

Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin MDH dan kelayotgan ishchi kuchi ham jinsi bo'yicha farqlanadi. Malika Bahovadinova tadqiqotlaridan shu ma'lum bo'ladiki, 1990-yillar o'rtalaridan ayollar Rossiya Rederatsiyasiga ishlash uchun sayohat qilishni boshlagan. Ular doimiy migratsiya oqimining bir qismi bo'lib kelgan va o'z daromadlari bilan xuddi erkaklar kabi o'z oilasi va davlatining iqtisodiy farovonligiga moliyaviy hissa qo'shgan. Erlari bilan birga ketgan ayollar xam eng ko'p savdo sohasida faoliyat olib bordan.

Migratsiyaga o'zi ketishga qaror qilgan ayollar asosan bola parvarishi uchun ketishadi. Bolalarni boqish, yaxshi ta'lim berish, ba'zilar bolalarini chiroyli kiyintirish va boshqa sabablar bilan chetga ketib daromad topishni istaydilar. Boshqa ayollar esa

⁵ Маджидова, Д.А. Оилалар мустаҳкамлигини таъминлашда миграция таъсирида юзага келувчи хатарларни олдини олишнинг муҳим йўналишлари. UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION. ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. №04

⁶ @Fayllar.org. Internet materiallari 11.02.2022

⁷ Migration.uz. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi.

⁸ R.Murtazayeva. Millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2019 C-282

farzandlari otasi bilan ulg'ayib, yaxshi sharoitda yashashlari va yaxshi maktablarda o'qishlari uchun migratsiya qilishdan xursand bo'lishadi. Ba'zi ayollar farzandlarini yaqin qarindoshlari qaramog'ida qoldirib, erlari bilan birga ishlashga borishni tanlashadi. Chunki bolalar bilan borib ishlash bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Erlari uyda farzandlari bilan qolib ayollari ishlash uchun Rossiyaga kegan holatlar ham talaygina. Bunday holatlar atrofdagilar tomonidan qoralanadi. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, bunday ayollar asosan borib qarindoshlari yoki tanish-bilishlarga qo'shilishadi. Garchi ketishni istamasalarda oiladagi iqtisodiy ahvolning og'irligi, turmush o'rtog'ining tayinli ishi bo'lmaganligi sabab ular ketishga majbur bo'lishadi. Bunday ayollar oiladagi yagona boquvchi hisoblanadi. Lekin bu ayollarni atrof-muhitda qoralash kayfiyati mavjud.

Migratsiyadagi ayollar erkaklardan ko'ra ko'proq muammolarga uchraydi. Qiyinchiliklar birinchi navbatda ularning faoliyatlari bilan bog'liq. Ayollar asosan xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lishadi va shu faoliyat bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. Mehnat huquqlari nuqtai-nazaridan ayollar ko'pincha xususiy uy xo'jaliklarida ishlaydigan "ko'rinmas ishchi kuchi"ga aylanadi. Bu zo'ravonlik va bunday ishchi kuchini ekspluatatsiyasini keltirib chiqaradi. Dunyoning ko'plab mintaqalarida bo'lgani kabi, Markaziy Osiyo davlatlaridan borgan ko'plab migrantlar ko'plab muammolarga duch kelishadi. Ular juda qiyin sharoitlarda ishlashga majbur bo'ladi. Dam olish va harakat erkinligidan mahrum bo'lishadi. Ko'p holatlarda pasportlari olib qo'yiladi. Ish xaqi ham past darajada yoki kechikib to'lanadi. Tadqiqotimiz davomida ko'plab shunday muammolarga duchor bo'lgan ayollar bilan suhbatlashdik. Ular aksariyat holatlarda deportatsiya bo'lishdan qo'rqib har xil kamsitilishlarga sabr-toqat bilan chidaydilar. Chunki ayrim oilalarning asosiy daromadi mana shu migrant ayollar yuborayotgan mablag'lar hisoblanadi. Ya'ni ular oiladagi yagona boquvchi hisoblanadi. Odatda o'zbek oilalarida erkaklar asosan chetga chiqib ishlab pul ishlab topib yuborib ro'zg'or tebratishiga ko'pchilik o'rganib qolgan. Ayniqsa Dang'ara tumani qishloqlarida yigitlar maktabni tugatib, Rossiya yoki biror boshqa xorijiy davlatga ketib ishlashi odatiy hol hisoblanadi. Dala tadqiqotlarimiz davomida Rossiyaga borib ishlab kelgan ayollarga "Nima uchun boshqa davlatga borib ishlashni ma'qul ko'rdingiz?" degan savollar bilan murojaat qildik. Respondentimiz 38 yoshli ayol asli kasbi o'qituvchilik ekani oilaviy iqtisodiy qiyinchiliklar sabab turmush o'rtog'i bilan Rossiyaga borib ishlashga majbur bo'lganini gapirib berdi. Ikki nafar farzandini qaynonasi va onasiga qoldirib ketgan. Gap shundaki, oila katta qarzga botib qolgan va er-xotin pul topib shu muammoni hal etish uchun Rossiyaga ishlashga borgan.⁹ Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Demak faqat ishsiz va biror

⁹ Dala yozuvlari: Farg'ona viloyati, Dang'ara tumani Bog'ish qishlog'i, Murabbiylar mahallasi. 16.01.2022.

tayinli kasbi bo'lmagan ayollar emas, balki oliy ma'lumotga ega bo'lgan ayollar ham iqtisodiy qiyinchiliklar sabab chetga chiqib ishlashga majbur bo'lishmoqda.

O'zbekiston fuqarolarining xorijda kasbiy faoliyat ko'rsatish huquqi O'zbekiston Respublikasining aholi bandligi to'g'risidagi Qonunida (1992-yil fevral) e'lon qilingan va mustahkamlangan. Mehnatning migratsiya jarayonlari sohasida tashkiliy-huquqiy negiz yaratilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 14 iyulda "Ishchi kuchlarini chetdan keltirish va chetga chiqarish masalalarini boshqarish to'g'risidagi" 353-sonli Qaroridan boshlangan¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qaroriga muvofiq mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda va chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlash masalalarini hal etish Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari Agentligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Mehnat va ijtimoiy muhofaza vazirligi qoshidagi fuqarolarni chet elda ishga joylashtirish regional byurosi zimmasiga yuklatilgan. Tadqiqotlarimiz davomida mana shu agentlikning Farg'ona viloyati bo'limi tomonidan aynan Dahg'ara tumanida tashkil etilgan tadbirida ishtirok etdik. Tadbir maqsadi chetga chiqib ishlash istagida bo'lgan fuqarolarga maslahatlar berish va boradigan dablatlarida qonuniy ish taklif qilishdan iborat bo'ldi. E'tiborli jihati tadbir qatnashuvchilarining yarmidan ko'pini turli yoshdagi ayollar tashkil etdi. Ko'pchiliklari bilan suhbatlashganimizda ular 10, 11 yildan buyon Rossiya Federatsiyasida ishlab yurgan ayollar ekanligiga guvoh bo'ldik. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 sentyabrdagi 725-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, tashqi mehnat migratsiyasini kompleks tahlil qilish, shu asosda normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ishga joylashtirishda ko'maklashish agentlikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qamrov zonasini kengaytirish maqsadida ular Toshkent, Buxoro, Nukus, Farg'ona, Qarshi shaharlarida faoliyat ko'rsatadi. Bizning davlatimiz fuqarolari qonunchilikka binoan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi orqali hukumatlararo, idoralararo shartnoma va bitimlar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqish huquqiga ega. Bundan tashqari fuqarolar agentlik beradigan ruxsatnomalar bo'yicha xususiy mehnat shartnomalariga asoslanib mehnat qilish uchun xorijga chiqish huquqiga ham egadirlar. Misol uchun O'zbekiston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi bilan Koreya

¹⁰ R.Murtazayeva. Millatlararo munosabatlar va tolerantlik.Darslik.Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2019 C-282

Respublikasining mehnat vazirligi o'rtasida hamfikrlik to'g'risida Memorandum imzolangan. Bu hujjat bo'yicha ishchilar Koreyaga bandlikni hal qilish tizimi bo'yicha yoki, boshqacha qilib aytganda, erkin yollanib jo'nashi haqida kelishib olingan. Koreyaga ketishdan oldin O'zbekiston fuqarolari tayyorlov va o'quv markazlarida ta'lim oladilar.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (2016 yil 22 sentyabr), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi "Vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish uchun Respublika hududidan transport orqali chet elga jo'nab ketish vaqtida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-3584-son, 2018-yil 5 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3839-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko'rib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 725-son qarori, "Aholi bandligi to'g'risida"gi (2020 yil 20 oktyabr), "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qarorlari 2020 yil 15 sentyabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son qarori migratsiya jarayonlarini tartibga solishga xizmat qiladi¹¹. Aynan shu qaror asosida migratsiyadan kelgan fuqarolarni bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslari rag'batlantiriladi. Shuningdek, ushbu qarorga ko'ra, 2021-yil 1 yanvardan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oila a'zosi sifatida e'tirof etilgan va xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirib, qaytib kelgan shaxslarga bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan yoki kichik korxonalar va mikrofirmalarni davlat ro'yxatidan o'tkazgan vaqtdan boshlab birinchi uch oy davomida ijaraga olingan bino va inshootlarning ijara haqini to'lash, tadbirkorlik asoslari va moliyaviy savodxonlikka o'qish, kredit olishda ta'minot sifatida taqdim etiladigan sug'urta polisi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish xarajatlarni qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorida subsidiya to'lash belgilangan.

Ushbu qarorlar samarasi ularoq, O'zbekiston Respublikasiga qaytgan mehnat migrantlari soni 2020 yilda 508 688 nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 126 422 nafarini ayollar, 2021 yil birinchi choragida ushbu ko'rsatkich 32 888 nafarni shundan 9 279 nafarini ayollarni tashkil etmoqda. 2020 yilda O'zbekiston Respublikasiga

¹¹ www.scientificprogress.uz B.A.Xonto'rayev, N.I. Asminkina, M.Yu. Karayev. Migratsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlari. "SCIENTIFIK PROGRESS" Scientific Journal ISSN: 2181-1601

qaytgan mehnat migrantlarini 337 910 nafari ishga joylashtirilgan bo'lib, shundan 65 103 nafarini ayollar tashkil etadi. 2021 yil birinchi choragida ushbu ko'rsatkich 17 587 nafarni shundan 3 655 nafarini ayollar tashkil etmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda "Tadbirkor mirant" loyihasi doirasida xorijdan qaytgan fuqarolar uchun "Tadbirkorlik asoslari va biznes yurituvini tashkil etish"ga oid qisqa (5 kun, 48 soatlik dastur asosida) muddatli o'quv kurslari tashkil etilmoqda. Jumladan, ushbu dastur doirasida shu kunga qadar mehnat migratsiyasidan qaytgan 616 nafar (shundan 127 nafarini xotin-qizlar) fuqarolar O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari yordamida tadbirkorlik kurslariga o'qitildi va sertifikatlar berildi. Bu loyiha asosida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi chorak yakuni bo'yicha 500 nafar fuqaro shu loyiha asosida o'qitilgan. Shulardan 282 nafari ayollardir. Asosan bu loyihada xizmat ko'rsatish, chorvachilik, ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha o'qitiladi. Masalan Dang'ara tumanida shunday kurslarda o'qigan bir nechta ayollar bilan gaplashdik. 40 yoshli axborotchimiz tikuvchilik kursida o'qigan va subsidiya mablag'i hisobidan tikuv mashinasi olib berilgan. 2021-yil yakuniga ko'ra 2,5 ming ayollar "Tadbirkor migrant" loyihasi doirasida o'qitilgan. 2020-yildan boshlab Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi (TMMMA) tomonidan har bir viloyat va tumanlarda har oyning 15-sanasigacha IIVning uzoq muddat xorijda bo'lgan va qaytib kelganlar bazasidan xorijda ishlab qaytgan mehnat migrantlari ro'yxati olib tahlil qilinadi va "Xonadonbay so'rovnomasi" o'tkaziladi. So'rovnomasi natijasida fuqarolar ehtiyojlari o'rganiladi va ehtiyojga qarab ish o'rni yoki tadbirkorlik uchun subsidiya taklif qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ayollar rolini oshirish va gender tengligini ta'minlash ayollar mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etishning garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абдуразакова Н. Г Женская трудовая миграция в контексте глобализации. Автореферат Казань – 2008
2. Пармонов Ф. Халқаро миграцион жараёнлар. Жамият ва бошқарув. 2009 йил 4-сон, 33Б.
3. Пескова Д.Р. Абреу Бастос О.П. Причины, риски и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне. Fundamental Research №11, 2014 стр. 596 – 600
4. Abdurahmonova G.Q. Muxitdinov E.M Aholini ish bilan bandligini oshirishda tashqi mehnat migratsiyasining ahamiyati. "Iqtisodiyot va innovatsiyon texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. Iyul-avgust 4/ 2018 yil

5. Муртазаева.Р.Ҳ.Глобаллашув шароитида аҳоли миграциясининг феминизациялашуви. “Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили” мавзусида Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами 26 февраль 2019 йил

6. R.Murtazayeva. Millatlararo munosabatlar va tolerantlik.Darslik.Toshkent “MUMTOZ SO’Z” 2019 C-282

7. Д. В. Полетаев. Женщины мигранты из зарубежных стран в России. Москва

8. Маджидова.Д.А. Оилалар мустақамлигини таъминлашда миграция таъсирида юзага келувчи хатарларни олдини олишнинг муҳим йўналишлари.UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION. ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL.№04

9. www.scientificprogress.uz В.А.Хонто’раев,Н.И.Асмinkina,М.Үу,Карайев. Migratsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlari.”SCIENTIFIK PROGRESS” Scientific Journal ISSN: 2181-1601

10. Migration.uz. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi

11. @Fayllar.org. Internet materiallari 11.02.2022

12. Dala yozuvlari:Farg’ona viloyati,Dang’ara tumani Bog’ish qishlog’i,Murabbiylar mahallasi.16.01.2022.

QORAQALPOQ ZARGARLIK SANATI

Yeshimbetova Shahnoza Xaydarovna

OzMU Tarix fakulteti

“Antropologiya va etnologiya” kafedrası

I- bosqich magistranti

yeshimbetovashahnoza.2@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada XX asr qoraqalpoq hunarmandchiligida zargarlik sanatining orni masalasi korib chiqilgan. Maqolada zargarlik taqinchoqlarining shakllari, ishlab chiqarish texnikasi, vazifasiga kora, yosh bilan bogliq tabaqalanishi, shuningdek, zargar ustalar haqida ham malumot berilgan.

Kalit sozlar: qoraqalpoq, zargarlik, “shar tuyme”, “jez bilezik”, “jalpaq sirga”, “baldaqli sirga”, “arebek”, “ongirmonshaq”, “saukele”

1. Dolzarbligi

Qoraqalpoq zargarlik sanati haqida toxtalib otadigan bolsak, qoraqalpoqlar Orta Osiyo va Qozogistonning boshqa xalqlari singari qadimdan zargarlik bilan shugullanganlar. Zargarlik qoraqalpoq xalqi ananaviy kasbining eng kam organilgan sohasi bolib, u etnografik adabiyotlarda juda kam yoritilgan. Shuningdek, tarixiy va etnografik tadqiqotlarni organar ekanmiz, birinchi navbatda uning nazariy — uslubiy jihatlariga tayangan holda ilmiy xulosa chiqarishga etibor qaratiladi, hamda xalq ananaviy hunarmandchiligi turlarining otmishda va bugun ham dehqonchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarishi, zamonaviy sanoat bilan bir qatorda jamiyat madaniy va iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etishini unutmashligimiz kerak.

2. Qollanilgan metodlar va mavzuni organilganlik darajasi

Maqola etnologiya metodlari - etnografik dala tadqiqotlari asosida, xususan, bugungi kunda Qoraqalpogiston Respublikasi, Beruniy tumanida istiqomat qiluvchi aka-uka Said, Hamid Samatovlar olindan buyurtmaga kora zargarlik buyumlarini yasash bilan shugullanib kelayotganliklari, shuningdek, 1996- yil Beruniy tumanida tugilgan axborotchi Alimov Shoxrux ham, asosan kumushdan buyurtmaga kora uzuk, zirak, boyinga taqadigan zanjir, bilaguzuk kabi zargarlik buyumlarini yasashini va sulolaning 3- avlodi ekanligini tasdiqlagan axborotchilar bergan malumotlar kiritilgan.[9,1] Zargarlar tomonidan olingan anketa sorovlari natijalari va ilmiy adabiyotlar bilan umumlashtirilib tarixiy izchillik va qiyoslash metodi orqali tahlil qilingan.

Qoraqalpoqlar etnografiyasini organish 1917 yilgi ozgarishlardan keyin tizimli va keng miqyosda amalga oshirilgani bois, masala qoraqalpoq xalq amaliy sanatin organgan A.S.Morozova, S.P.Tolstov, T.A.Jdankolarning dala tadqiqotlari va ilmiy

maqolalari orqali, shuningdek, sanatshunos kabi bir qancha etnografik manbalari asosida toplangan.

Xususan, T.A.Jdanko SSSR FA Etnografiya instituti va Qozogiston ekspeditsiya jamiyatining Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi materiallari asosida "Qoraqalpoq xalq bezak sanatini organish" nomli maqolasida qoraqalpoqlarning bezak sanati alohida etibor qaratilganligini qayd etish lozim.

Shuningdek, T.A.Jdanko 1958-yilda SSSR FA Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiya dala tadqiqotlari asosida "Qoraqalpoqlarning xalq bezak sanati" nomli asarida hunarmandchilikning quyidagi: yogoch oymakorligi, zargarlik, kashtachilik, kigiz bosish turlari haqida malumot bergan. [1, 379-380].

Qoraqalpogiston etnografiyasida xalq hunarmandchiligi alohida diqqatga sazovor bolib, A.Utemisov bir necha yillardan beri shu muammo yuzasidan malumotlar toplashga uringan.[2,] Qoraqalpoq hunarmandchiligi avloddan-avlodga otib, qishloq xojaligi qurollari, suv kotaruvchi inshootlar, transport vositalari, kiyim-kechak, uy-rozgor anjomlari va boshqalar bilan taminlangan holda yaxlit iqtisodiyotda muhim orin tutgan. U "qoraqalpoqlar ichida mening hunarmandlarim bor: temirchi usta -"shoyinshi", duradgorlar -"agash usta", etikchilar -"yetikshi", qalpoqchilar -"malaqayshi" moynali kiyim tikuvchilar- "tonshi", zargarlar -"zerger" va b., deb takidlab otgan.

Sanatshunos Z.Aliyevaning qator maqolalarida ananaviy libosning ajralmas qismi-zargarlik buyumlari oz aksini topgan. Muallif ayollar taqinchoqlari materiallaridan foydalanib, qoraqalpoqlarning XIX-XX asr boshlaridagi zargarlik sanatining badiiy xususiyatlari va timsollarini ochib beradi. [3,12-15]

3.Tadqiqot natijalari

Qoraqalpoqlar yarim otroq xalq bolib, turli hunarmandchilik turlari bilan shugullanganlar. Tarixiy-etnografik manbalarga kora qoraqalpoqlar orasida temirchilik, yogoch oymakorligi, egarchi, zargarlik, bosh kiyim tikuvchilar, uychi(yurt ustasi), konchilik va boshqa hunarmandlar bolgan. Shuningdek, Qoraqalpoq ayollari toqimachilik, gilamdozlik, kashtadozlik bilan shugullanganlar.

Zargarlik - badiiy hunarmandchilik sohasi bolib, oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zeb-ziynat buyumlari (taqinchoq), bezak buyumlari yashash kasbidir. Arxeologik topilmalar zargarlikning qadimdan mavjudligini korsatadi. [4,680]

XIX asr oxiri- XX asr boshlarida oziga xos ishlanishi, shakli, bezaklari, xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilgan xilma-xil zargarlik buyumlari keng tarqalgan, zeb - ziynat buyumlari toplamlari vujudga kelgan. Asrlar osha avloddan-avlodga otib kelayotgan zargarlik sanati XX asr boshlarida inqirozga yuz tutdi, xalq ustalarining soni qisqara boshladi. Ustalarga qimmatbaho xomashyolardan

foydalanishga yol qoyilmagan. Zargarlik fabrikalarida ijod qilgan usta-zargarlar ish jarayonida asta-sekinlik bilan mavjud ananalardan yiroqlasha borganlar. XIX asrda shaharlarda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi turli hunarmandchilik tarmoqlarining kengayishiga turtki bo'ldi. Savdo-sotiq ishlari ham rivojlanib, shaharlarda dokonlar, karvonsaroylar qurilgan, shaharlardagi hunarmandchilik ustaxonalarida bozorga uy-rozgor buyumlari, kiyim, gilam, zargarlik mahsulotlari tayyorlangan va bozorlarda sotilgan. Shahar turmush tarzining kirib kelishidan oldin ham, ularning hayotida oziga xos xususiyatlar uzoq vaqt saqlanib qolgan.

Natijada ular tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlarning shakl-shamoyili ozgarib, "ekliklik" manzarani yuzaga keltirdi va bazan ananalarning butkul yoqolishiga olib keldi.

Ozbekiston mustaqillikka erishgandan song zargarlik sanati yana qaytadan jonlandi, qimmatbaho metall materiallaridan foydalanishga imkon yaratildi.

Ijod qilayotgan ustalar, asosan, ikki xil yonalishda: mahalliy zargarlik (unutilib borayotgan ananalarni qayta tiklash) va ananaviy zamonaviy uslubda zargarlik buyumlari yaratish ustida ijod qilmoqdalar. [5,243]

Zargarlik taqinchoqlari shakli, bajarilish texnikasi, vazifasiga kora turlichadir. Ularda xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoli va yoshi boyicha tabaqalanishiga qat'iy amal qilingan. Taqinchoqlar qiz bolaning bolalikdan balogat sari yetishishida murakkablashib borishi, keksayganda soddalashuvi kuzatiladi. Qizlarning taqinchoqlari yomon kozlardan asrovchi tumor va munchoqlarning kopligi bilan ajralib turadi. Bezaklar toy liboslarini kiygan kelinning peshona va chakkasini tola qoplab, ularni koz, suq va afsunlardan "himoya" qilgan. Faqat yonoqlar ochiq qoldirilib, ularga qoshimcha burun sirgasi, mayda shokilalardan iborat "xalqoshga sirga" kabilar taqilgan. Ular ham kelin yuzini tosib turgan. Belga taqiladigan "saukele" belbogi uzunasiga turgan

(tovus dumiga oxshab, unda zargarlik buyumlari ishlatilmaydi. Bu kishi ortidan uzoq qarashning zarari haqidagi tasavvurlar bilan bogliq.

Qoraqalpoq zargarlik sanati yomon nazardan asrovchi ramzlar xoch korinishidagi "shar tuyme" (Quyosh va olov qudrati ramzida) hamda "anshiq"-yonda osib yuriladigan antropomorf tasvir korinishida talqin etiladi.

Latundan ishlangan "jez bilezik"- maxsus bilaguzuk, asosan, yoshi katta ayollarga sovga qilingan. Ular uni taqmay, kelin-kuyovning nikoh toyi ramzi sifatida sandiqlarida asrashgan. Toy kuni kelin uzuk, burun buloqini birinchi marta taqadi, bu er-xotinlikning va arxaik tushunchalarga kora, insonni boshqa holatga otganligi ramzi hisoblangan. Marosim taqinchoqlari kumushdan yasalgan bolib, tilla, marjon, feruza toshlar bilan ham bezatilgan. Taqinchoqlar dastlab marosim ramzlari sanalgan bolsa, keyinchalik ular boy badavlatlikni korsatuvchi belgiga aylangan. [6,340-341]

XIX asr oxiri- XX asr boshlarida qoraqalpoqlarda zargarlik sanati yuksak darajada rivojlanadi, ular asosan ayollar taqinchoqlari, kumush taqinchoqlar, shuningdek, erar- jabduq, kamarlar yasashganlar. Oltin va kumush buyumlar ishlab chiqarish bilan shugullanadigan usta zargarlarni Oрта Osiyoning boshqa xalqlari kabi zargarlar (“zergler”) deb atashgan. Asosan, zargar ustalar erkaklar bolishgan.

Kumush va oltindan yasalgan zargarlik buyumlariga talab katta bolgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida deyarli har bir qishloqning oz zargari faoliyat yuritgan. [7,160]

Ammo hozirgi kunda kunda Qoraqalpogiston respublikasida zargar ustalar juda kam. Darhaqiqat, ananaviy hunarmandchilik yoqolib bormoqda, lekin shunga qaramay, mahalliy aholi xotirasida zargarlarning alohida faoliyati haqidagi goyalari hanuzgacha saqlanib qolgan. Ushbu xotiralar qoraqalpoq zargarlik hunarmandchiligi haqidagi asosiy manba bolib xizmat qilib kelmoqda.

Qoraqalpogistonda otkazilg tadqiqot natijalariga kora, zargarlar yaqin vaqtgacha oz faoliyatini davom ettirgan. Odatda zargar bir yoki bir necha buyurtma olib, uy sharoitida ishlagan, bazan esa qishloqlarni aylanib yurib buyurtma olgan. Bunday hollarda zargar mijoz oldida ishlagan va oz haqini pul, don, chorva, bazan esa kumush korinishida olgan.

Aholining zargarlik buyumlariga talabi katta bolgani bois, mijoz oz buyurtmasini bir necha oy kutishga majbur bolgan. Zargarlar mahsulotlarida deyarli farq bolmagan, ular bir turdagi zargarlik buyumlarini yasaganlar. Zargarlik buyumlarini yashash uchun on yilgacha vaqt kerak bolgan, shuning uchun qoraqalpoq zargar ustalari imkon qadar oz ogli, yaqin qarindoshining ogli, oila azolariga yoshligidan zargarlik sirlarini orgatishga harakat qilgan. Xususan, axborotchilar bergan malumotlarga kora, bugungi kunda Qoraqalpogiston Respublikasi, Beruniy tumanida istiqomat qiluvchi aka-uka Said, Hamid Samatovlar oltindan buyurtmaga kora zargarlik buyumlarini yasash bilan shugullanib kelayotganliklarini aytib otdi. Shuningdek, 1996- yil Beruniy tumanida tugilgan axborotchi Alimov Shoxrux ham, asosan kumushdan buyurtmaga kora uzuk, zirak, boyinga taqadigan zanjir, bilaguzuk kabi zargarlik buyumlarini yasashini va sulolaning 3- avlodi ekanligini takidlab otdi. [9, 1]

Qoraqalpoq zargarlari ayollar bezaklarining barcha turlarini: sirga (sirga), bilaguzuk (bilezik), uzuk (juzik), qisqich (qarsyilgek), kokrak bezaklari (xaykel), ongirmonshaq, turli xil tugma va broshlar(tuime), tumor (tumarsha) yasaganlar. Aynan bu davrda milliy libos kiygan qoraqalpoq ayol va qizlarini bayramlarda, oilaviy tantanalarda rang — barang kumush taqinchoqlarsiz tasavvur qilib bolmagan.

Keng tarqalgan ayollar taqinchoqlaridan biri bu — bilaguzuk (bilezik) maxsus qoliplar yordamida yasalgan va zargar bir vaqtning ozida ikkitadan beshtagacha

bilaguzuk ustida ishlay olgan. Bilaguzuklar koproq kumushdan tayyorlangan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Odatda bunday bilaguzuklar turmushga chiqayotgan qizning qoliga taqilgan.

Zargarlar har xil turdagi sirgalar ham yasagan bolib, ular “jalpaq sirga”, “baldaqli sirga” deb atalgan, uni 12 yoshdan to turmushga chiqquniga qadar taqib yurishgan. [8,166]

Shuningdek, oltin simdan spiralsimon, jingalak qilib bezatilgan taqinchoq — arabek, ayollarning burun sirgasi hisoblanib, uni ong burun teshigida taqishgan. Ular zargarlar tomonidan buyurtma asosida yasalgan, etnografik tadqiqotlar xulosasiga kora, ayollar bezaklarining bu turi otgan avlodlarning madaniy yodgorligi sifatida saqlanib qolingan. Korib chiqilayotgan davrda butun Qoraqalpogiston hududida, shuningdek, shimoliy Xorazm turkmanlarining bir qismi orasida mavjud bolgan. Arabekka oxshash burun sirgalari Xiva va Buxoro xonliklarining aksariyat ozbek ayollari hamda, Oрта Osiyo arablari, Garbiy Osiyoning bir qator xalqlari orasida keng tarqalgan.

Bundan tashqari ayollarning kokrak bezaklari juda xilma — xil bolib: tuime, shar tuime, jumalaq tuime, jalpaq tuime, xaykel, ongirmonshaq, tumar va boshqa taqinchoqlari diqqatga sazovor bolgan.

Ongirmonshaq — “jaranglaydigan” tasma naqshli bezak bolib, yovuz ruhlarni haydash qobilyatiga ega deb ishonilgan. U gumbazsimon shaklga ega, uning yumaloq asosidan jaranglaydigan goza sharlari(yongoqlar) va rombli zanjirlar otkazib chiqilgan.

Qoraqalpoq ayollarining ulkan kokrak zargarlik buyumlarida (haykel) shoxi tepaga qayrilgan buqa va shoxi pastga qayrilgan qoy tasvirlari bilan bogliq shoxsimon uchlari bolgan. “Xaykel” nomi ularning ajdodlarga siginishi va totemizmdan kelib chiqqan. Kuchli buqa va serpusht qoyning shoxi yovuz kuchlardan asrovchi xususiyatga ega deb hisoblangan va “oy buqasi”, “quyosh qoyi” ramzlari sifatida korilgan. Zargarlik buyumining markazida tumor- kovak gilof bolib, uning ichida qadimdan “yovuzlik kuchlaridan asrovchi” igna saqlangan. Hududga islom dini kirib kelganidan song, ignaning ornini qogozda yozilgan duo egalladi. Xaykel kelin sepining asosiy zargarlik buyumi hisoblangan, uni kelin farzand korgungacha bolgan butun davr davomida tumor qilib taqib yurgan.

Saukele — qadimda qoraqalpoq kelinlarining bosh kiyimi bolib, qimmatbaho metallar, toshlar, asosan marjonlar va munchoqlar bilan zargarlar tomonidan bezatilgan. Saukele qoraqalpoq xalqi milliy ananalari — zargarlik va kashtachilikning eng yuqori namunalarini ozida mujassam etgan. Yirik pushti marjonlar, alvon qizgaldoqlar bilan kashtalangan tillarang plastina, chekka qismida sadaf munchoqlar bilan bezatilgan. Saukelening orqa tomoniga, uzun, naqshli mato yopishtirilgan.

Qoraqalpoq zargarlik sanati uslubi ozining hashamatli, simmetrik shakli va jonli aylana konturlari bilan ajralib turadi. Zargarlar asosan ayollar zargarlik buyumlari va bolalar tumorlarini ishlab chiqarishgan, erkaklar uchun uzuklar, kamarlar va kamar toqasi, qurol — yarog qismlari va ot anjomlari yasaganlar. Barcha zargarlik buyumlari yovuzlikdan asrovchi va baxtga eltuvchi tumorlar hisoblangan.

Xulosa. Zargarlik sanati - qoraqalpoq amaliy sanatining yorqin va oziga xos korinishlaridan biridir. Qoraqalpoq xalq amaliy sanatining boshqa turlari qatorida zargarlik buyumlarining xom-ashyosi va ishlab chiqarish texnikasi M.Osiyoning boshqa xalqlaridan tuzilishi jihatidan ajralib turgan. Shuningdek, zargarlik sanati xalqning etnik tarixi, madaniyati va iqtisodiy munosabatlarini organishda qimmatli manbadir. Xulosa ornida yana shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyoda ozining qadimdan shakllanib kelgan boy etnografik ananalarini hozirda ham saqlab qolgan qoraqalpoq xalq hunarmandchiligi XX asrda ham turli transformatsion jarayonlarga qaramay azaliy ananalarini malum bir manoda saqlab qola olgan. Masalan, qoraqalpoq hunarmandchiligining kam organilgan sohasi hisoblangan zargarlik sanati ananalarini avloddan avlodga otkazib kelayotgan vakillar ushbu sohaga oid anana va udumlar, marosimlar osha davrda ham kam saqlanib qolingan.

Foydalangan adabiyotlar:

- [1, 379-380] Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. племенная структура и расселение в XIX-начале. М.Л., Изд-во Акад.наук СССР, 1950
- [2,] Отемисов А. Каракалпаklarдың енер-кэсиплери. Нокис, 1991.
- [3, 12-15] Алиева З.Ж. К вопросу классификации женских ювелирных украшений каракалпаков // Сб. НИИ искусствознания «Санъатшунос». Ташкент, 1998, с. 44-50; ее же: Ритуальные ювелирные украшения каракалпаков XIX - начала XX в. (в комплексе народного женского костюма) // 8АБИАТ, Ташкент, 2003, № 2,
- [4, 680] Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.2005 3-ж.
- [5, 243] Ўзбекистон хунармандчилиги ва амалий санъати Энциклопедия. II-ж.
- [6, 340-341] Ўзбекистон хунармандчилиги ва амалий санъати Энциклопедия. II-ж.
- [7, 160] Жданко Т. А., Камалов С. К. Этнография Каракалпаков. XIX-начало XX века (Материалы и Исследования) Ташкент издательство „Фан“ Узбекской ССР. 1980.
- [8, 166] Жданко Т. А., Камалов С. К. Этнография Каракалпаков. XIX-начало XX века (Материалы и Исследования) Ташкент издательство „Фан“ Узбекской ССР. 1980.
- [9, 1] Sotsiologik so'rov natijasi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani 2022

OILA VA NIHOHGA BO'LGAN MUNOSABAT MENTALITETNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA.

*O'zbekiston Milliy Universiteti
Tarix fakulteti 2-kurs magistranti
Sirliboyeva Gulrux.
sirliboyevagulrux@gmail.com*

ANNOTATSIYA.

Ushbu ilmiy maqolada mentalitet tushunchasi va uning paydo bo'lishi haqida yozilgan. Shuningdek, mentalitetimizning tarkibiy qismini tashkil etgan oila va nikoh munosabatlari misolida o'zbek mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mentalitet, o'zbek mentaliteti (o'zbek xalqining psixologik qiyofasi), o'zbek oilasi.

Kirish.

Bu maqola Jizzax viloyatida o'tkazilgan tadqiqotlar, so'rovnoma natijalari va turli adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida yozilgan.

Tarixiy adabiyotlardan ma'lumki, mentalitet atamasi fransuzcha “mentalite” so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida “dunyoni tushunish” yoki olamni anglashda o'ziga xoslik ma'nosiga to'g'ri keladi. Bu termini turli mutaxassislar turlicha talqin qilishadi. “Mentale” atamasini birinchilardan bo'lib ilmiy iste'molga kiritgan olim fransuz etnologi Levi-Bryul hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida “mentallik” kategoriyasi nafaqat muayyan bir etnik guruh yoki ijtimoiy uyushmaning fikrlash tarzidagi o'ziga xoslikni tavsiflashda, balki shu bilan birga ma'lum bir tarixiy davrda ularning namoyon bo'lishini izohlash jarayonida ham qo'llanila boshlangan. Bu so'z fransuzcha “mentalite” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uni boshqa tillardagi muqobilini topish qiyin, faqat mazmun jihatdan rus tilidagi “meroponimaniye” dunyoqarash so'ziga to'g'ri keladi¹. Dunyodagi har bir millatning, shu jumladan, o'zbeklarning ham aqliy, ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlari doirasida shakllangan. Har bir xalqning mentaliteti, boshqacha aytganda, milliy o'ziga xosliklari uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnav, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi. Biror xalqning urf-odatlarini, marosimlari o'zida shu xalqning milliy mentalitetini aks ettiradi. Aynan mana shu urf-odatlardagi o'ziga xosliklar mentalitetning tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Xususan, oila va nikohga bo'lgan munosabat, shuningdek, bu bilan bog'liq urf-odatlar o'zbek xalqi milliy mentalitetining muhim tarkibiy qismidir, chunki urf-odatlar mentalitet asosida

¹ Куронов М. Ўбек характери ва миллий гоёя. Тошкент-2005.

shakllanadi. Misol uchun o'zbek xalqi boshqa xalqning urf-odatlarini qabul qilolmasligi ham milliy mentalitetga to'g'ri kelmasligi sabablidir.

Asosiy qism.

Oila va nikoh munosabatlari o'zbeklar ongida muqaddas sanalib, ular baxtni tashkil qiladi. O'z navbatida, o'zbeklar uchun nikoh asosida oilali bo'lish, unda esa sevgi tuyg'usining bo'lishi va farzandlarning borligi baxt sanaladi, ya'ni o'zbek xalqi baxtni aynan shular bilan bog'laydi². O'zbek oilalarida farzand oila mustahkamligini ta'minlovchi bosh omillardan biri sifatida qaraladi. O'zbek oilalaridagi ajrimlarning sabablaridan biri bu farzandsizlikdir.

Shundan kelib chiqib, yoshlarga o'zbek mentalitetidan kelib chiqib, farzandsizlik tufayli ajrashishni qanchalik to'g'ri deb o'ylaysiz deya savol berilganda, 66.6% to'g'ri emas, 23.3% bu holat hayotimizda ko'p uchraydi, faqat 3.3% yoshlar bu to'g'ri farzandsiz oila bo'lmaydi deyishgan. 6.6% yoshlar o'z fikrlarini bildirishgan³. Xususan, ular farzandsizlik tufayli ajrashish to'g'ri emasligini, oilani saqlab qolishni boshqa yo'llarini topish kerakligini takidlashgan. Misol uchun farzand asrab olish, qarindoshlarini farzandlarini farzandlikka olish kabi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Jizzax viloyati yoshlarining farzandsizlik tufayli oilaning buzilishiga munosabati salbiy. Ammo, katta avlod vakillari farzand asrab olishni ko'p ham yoqlamaydi, ular o'z farzandining nasli davom etishini xohlashlarini shuning uchun sabr bilan kutish kerakligini qayd etishgan. Umuman olganda, oilaning muhim ijtimoiy vazifalaridan biri naslni davom ettirishdir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, aholi soni muayyan ko'rsatkichda turishi uchun har 100 oilaga 260 ta bola to'g'ri kelishi kerak. Aniqrog'i, 100 oiladan 60 tasi 3 tadan 40 tasida 2- 1 tadan bola bo'lishi lozim. Demografik olimlar hisoblariga ko'ra, agar har bir oila bittadan farzand ko'rsa, sakkizinchi avlodga kelib, ya'ni 200 yildan keyin bu xalq millat tariqasida yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan⁴. Bu ma'lumotlardan shuni aytish mumkinki, mentalitetimizga xos bo'lgan bolajonlik, farzandsiz oilaning to'laqonli oila bo'lmasligi haqidagi qarashlari jamiyat uchun ham ahamiyatlidir. Bu masalaga yana boshqa tomondan yondoshadigan bo'lsak, o'zbek xalqi farzand voyaga yetkazish orqali o'zining keksalik davri uchun zamin yaratadi. Chunki farzand katta qilish, uni uylantirish, keksayganda farzandlar ardog'ida bo'lish har bir o'zbekning eng chiroyli orzusidir. Shuning uchun ham har bir o'zbek oilasida farzand bo'lishi asosiy masaladir. O'rta Osiyo hududini etnografik jihatdan tadqiq qilgan sovet davri tadqiqotchilari ham o'zbek oilasining shu kabi xususiyatlarni aytib o'tishgan. Xususan, Ostraumov shunday ma'lumot keltiradi:

² Расулова З.А, Ўзбекларда оила-никоҳ анъаналарининг ижтимоий ва этник психологияси.: Тарих фан.

док...дис. автореф. – Тошкент, 2005. -17 б

³ Dala tadqiqotlari. Jizzax shahri. 2022-yil.

⁴ Отаҳўжаев Ф.М. Оила ҳуқуқи / (Оммабоп юридик маълумотнома). – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 14

“Toshkent aholisi oilalari ko’p vaqtini birga o’tkazishadi, va ko’plab yig’inlar tashkillashtirishadi. Ular asosan bayramlarda bir-birlarinikiga tashrif buyurishadi, shuningdek, “jura” deb nomlanuvchi kichik doira a’zolari tomonidan o’z navbatida uyushtirilgan maxsus kechalarda yig’ilishadi. Turli oilaviy marosimlar, xususan, farzand tug’ilishi, uning sunnat qilinishi, turmushga chiqishi kabi jarayonlarda katta ziyofat uyushtiradilar, bunday marosimlarda barcha oila vakillari ishtirok etadi⁵. O’zbek oilalarida bunday yig’inlar bugungi kunda ham ko’plab tashkillashtiriladi. Bu jarayonlar oilada ulg’ayayotgan yosh avlodni shakllanishiga ham o’z ta’sirini ko’rsatadi, ya’ni ularda ham mentalitetga xos bo’lgan xususiyatlar shakllana boshlaydi. Avallari oilalar juda katta bo’lib, jamoa asosida yashab kelganlar. O’zbek oilasi ornomusli, kuchli oiladir. Shuning uchun u o’zining milliy qiyofasini yo’qotmagan holda butun oilaning sha’ni, obro’sini saqlash uchun mas’uliyat bilan ish tutadi. Er oila posboni, uning boquvchisi hisoblansa, xotin esa uning ko’rki, fayz-u barakatidir. Oilaning bu xususiyati azaldan mavjud bo’lgan va bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Shuningdek, o’zbek oilalarida ota-onalar farzandlarini ulg’aytiradi va ko’p hollarda uy-joyli qilishadi. Bu narsa konstitutsiyamizda ham belgilab qo’yilgan. Xususan, 64-moddada Ota-onalar o’z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar deb yozib qo’yilgan. Garchand, konstitutsiyada voyaga yetgunga qadar deyilgan bo’lsada, ko’p hollarda farzandlar voyaga yetgandan so’ng ham ota-onlari bilan birga yashashadi. Oilaviy munosabatlardagi bu xususiyat boshqa millat vakillari tomonidan ajablanarli holat sifatida baholanadi. Negaki, dunyoning ko’pgina xalqlarida farzandlar voyaga yetgandan so’ng mustaqil hisoblanib ota-onalaridan alohida yashay boshlaydilar. Aynan mana shu masala yuzasidan yoshlarni fikri bilan qiziqib ko’rdik.

Farzandlarni voyaga yetgandan so’ng ham ota-ona qarmog’ida yashashga qanday qaraysiz degan savolga yoshlarning 26.6% i ijobiy, 16.6% i salbiy, 16.6% i boqimanda bo’lib yashash yaxshi emas, 40% i bu boqimandalikka kirmaydi deb fikr bildirishgan⁶. So’rovnoma natijalaridan shu narsa aniq bo’ldiki, bu holatni ko’pchilik yoshlar salbiy baholashmagan ya’ni boqimandalik deb izohlashmagan.

Bu odatni boqimandalik deb baholovchi ayrim respondentlar o’z fikrini quyidagicha ifodaladi: “voyaga yetgan bo’lsada ota-onasi bilan yashashda davom etadiganlar, ayniqsa o’g’il bollar ota-onasi tomonidan ta’minlanishda davom etadi bu esa ularda boqimandalik kayfiyatini vujudga keltiradi”. Bu masalaga boshqa tomondan yondashadigan bo’lsak, o’zbek mentalitetiga xos bu xususiyat oila ichida mehr-oqibat rishtalarining mustahkamligiga xizmat qiladigan go’zal odatdir. Shu bilan birgalikda, bu odatning mavjudligi farzandlarning o’z ota-onalari oldidagi burchlari bilan ham

⁵Остраумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Ташкент. типо-литография торг.дома. Ф и Г. Бр. Каменские. 1896. -С.67.

⁶ Dala tadqiqotlari. Jizzax shahri. 2022.

bog'liq tomonlari bor. Ota-onaga g'amxo'rlik qilish, o'zbeklarda muqaddas burch sanaladi. Shuning uchun oilalarning katta qismini kichik oilalar tashkil etadi, ular orasida turmush o'rtoqlar va ularning farzandlaridan tashqari, turmush o'rtoqlardan birining ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari ham bor. 1979 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda er-xotinning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham bo'lgan oilalarning salmog'i 31,6% (respublika umumiy aholisi soniga o'rtacha)⁷.

Xulosa.

O'zbek oilasi mehr-oqibatlilik, qarindosh-urug'chilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatlilik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Oilaga sharqona, o'zbekona sodiqlik, o'tgan yetti pushtini bilish, ota-ona, qarindosh-urug', keksalarga hurmat, yoshlarga mehribonlik, oila a'zolari, er-xotin va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi uning o'ziga xos xususiyatlaridir. Aynan mana shu o'ziga xos xususiyatlar o'zbek mentalitadini o'zida namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Куронов М. Ўзбек характери ва миллий гоё. Тошкент-2005.
2. Расулова З.А, Ўзбекларда оила-никоҳ анъаналарининг ижтимоий ва этник психологияси.: Тарих фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент, 2005.
3. Отахўжаев Ф.М. Оила ҳуқуқи / (Оммабоп юридик маълумотнома). – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. Остраумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Ташкент. типо-литография торг.дома. Ф и Г. Бр. Каменские. 1896.
5. Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Ташкент: Фан, 1989.
6. Dala tadqiqotlari.

⁷ Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 26.

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISI PEDOGOGIK FAOLIYATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI AHAMIYATI

*Toshkent shahar Shayxontohur tumani
Toshkent Davlat Transport Universiteti akademik
litseyining jismoniy tarbiya rahbari
Abdinazarova Nasiba Abdisamatovna*

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchisi pedogogik faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: DTS, kontseptsiya, AKT, Hot Potatoes, KTC-Net2, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi bugungi kunda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida har bir bolaning imkoniyatlarini, jumladan, sog'lom turmush tarzi tamoyillarini ma'naviy-ma'rifiy kontseptsiyaga muvofiq har bir o'quvchining shaxsiy natijalarini hisobga olgan holda to'liq ro'yobga chiqara oladigan shaxsdir. Har qanday fan o'qituvchisi kabi jismoniy tarbiya o'qituvchisi ham hozirgi vaqtda zamonaviy ta'limning metod, mahorat va pedagogik texnologiyalarini o'z pedagogik faoliyatiga tadbiq etishi uchun o'zlashtirishi zarur. Ta'lim natijalari, meta-mavzu komponenti uchun Davlat Ta'lim Standartining talablarini hisobga olish kerak.

Yangi davrning dolzarb texnologiyalaridan biri axborot va kommunikatsiya hisoblanadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z fanida AKTdan qanday foydalanishi mumkin?

Birinchi, o'qituvchi dastlab AKT bilan ishlashga e'tiborini qaratishi kerak. Mavzu doirasida ushbu texnologiyani amalga oshirish zarurati va imkoniyatlarini aniqlashi lozim. Ikkinchi, zarur moddiy-texnika bazasiz AKTdan foydalanish mumkin emas.

Uchinchi, "Jismoniy tarbiya" fanining o'ziga xosligi sport zalida yoki ochiq havoda mashg'ulotlarni o'tkazishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun AKTdan foydalanish uchun ushbu texnologiyadan foydalangan holda darslarni o'tkazish tartibi va joyini maktab ma'muriyati bilan kelishib olish kerak.

Agar yuqoridagi barcha shartlar bajarilsa, unda aniqlik bilan aytishimiz mumkinki, jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z ishida AKTdan foydalanishga tayyor. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatida AKTdan foydalanish da quyidagi dasturlarning o'ri katta:

- MS Office Word dasturi-Ish dasturlari, dars ishlanmalari, didaktik materiallar (test topshiriqlari), turli hisobotlar, uslubiy ishlanmalar tayyorlash uchun.

- MS Office Excel dasturi-Elektron darsliklar va resurslaridan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish, ularning illyustrativ, animatsion imkoniyatlari.
- MS Office-Microsoft Word, Microsoft Power Point, Microsoft Excel dasturlari yordamida darslar uchun o'z o'quv qo'llanmalarining yaratishda dasturiy resurslardan foydalanish (o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini kuzatish bilan ishlash).
- Hot Potatoes, KTC-Net2-Kompyuter sinovlari imkoniyatlaridan foydalanish.
- Internet-Ko'rgazmali qo'llanma sifatida darslar uchun o'qituvchi taqdimotlarini yaratish uchun Internet resurslaridan foydalanish, veb-resursda o'z ta'lim maydonini rivojlantirish; kerakli ma'lumotlarni izlash, internet orqali masofaviy olimpiadalarda, konferentsiyalarda qatnashish, masofaviy o'qitish uchun Internetdan foydalanish.
- Professional forumlar, bloglar-Hamkasblar bilan muloqot qilish va onlayn xalqaro konferentsiyalarda tajriba almashish.

Mahoratli pedagog sifatida har bir ustoz o'z kasbiy faoliyati davomida zamonaviy bilimlarga ega bo'lib borishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi shunday ishlashi kerakki, o'qitish sog'likka zarar keltirmasin. Men o'z kasbiy faoliyatimda ta'limning asosiy maqsadi bolalarni sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga o'rgatish deb bilaman. Har bir fanning o'ziga xosligi xilma-xil, ammo umumiy tamoyil bitta - o'qituvchining vazifasi bilimlarni amaliy o'zlashtirish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu tamoyilni jismoniy tarbiya darsiga qo'llagan holda shuni ta'kidlash mumkinki, o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodkorligini ko'rsatishga, o'quvchining harakat va kognitiv faoliyatini faollashtirishga imkon beradigan o'qitish usullarini tanlashdir. AKTdan foydalangan holda, agar siz barcha ma'lumotlarni kiritsangiz, jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish darajasining rivojlanish dinamikasini kuzatish oson. Jismoniy tarbiya darslarida AKT vositalaridan foydalanish bilan hamma g'alaba qozonadi: maktab o'quvchilari, ota-onalar, o'qituvchilar, chunki bu texnologiyalar jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish tadbirlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan eng istiqbolli yo'nalishlardan biri - shaxsiy manfaatdorlikni oshiradi. Shu bilan bir qatorda bu bizga muammolarni hal qilishda yordam beradi - o'quvchining sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qiziqishini uyg'otadi. Jismoniy tarbiyaning an'anaviy vositalari, shakl va usullari endi ta'limning turli bosqichlarida o'quv jarayonining yuqori samaradorligini to'liq ta'minlay olmaydi. Axborot Internet - o'quv texnologiyalari o'rganishni qo'llab-quvvatlashning an'anaviy usullari va vositalariga nisbatan yuqori didaktik samaradorlikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. “O‘zbekiston”, Toshkent, 1997 yil.
3. Бордовская Н.В. Диалектика педагогического Исследования. –М.; 2001.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SO'Z BOYLGINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY ASARLARDAN INNOVATSION FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

*Peshko' tuman 21 – umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Yarashova Gulchiroy Rahmonovna,
Peshko' tuman 21 – umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Yarashova Barchinoy Rahmonovna.
Vobkent tuman 16 – umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Jalilova Firuza Jalolovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirishda badiiy asarlardan foydalanishning o'rni va nechog'lik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy asar, hikoya, texnologiya, estetik tahlil, o'quvchi, tasvir obyekti, o'quv didaktik tahlil.

Аннотация: В данной статье выделены роль и значение чтения по качественным произведениям в расширении словарного запаса учащихся средней школы.

Ключевые слова: художественное произведение, рассказ, технология, эстетический анализ, читатель, объект изображения, учебно-дидактический анализ.

Abstract: This article highlights the role and importance of learning from high-quality works in the acquisition of vocabulary of secondary school students.

Key words: Artwork, story, technology, aesthetic analysis, reader, image object, educational didactic analysis.

O'zbek qissa va hikoyalarning mohiyat va mazmunidan kelib chiqib, obrazlar va badiiy qahramonlar tizimini boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli va didaktik tarzda tahlil qilish, zamonaviy ta'lim tizimini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Badiiy asarlarga lingvistik hodisalar (dialektalizm, makoronizm, paralingvistizm, okkozionalizm) ning ta'siri, xalq kulgusi, askiya, latifa, loflarning badiiy adabiyotga ta'siri, qadimgi og'zaki dramalar hisoblangan komediya va tragediyalarning ta'sirini o'rganish bugungi kun yosh olimlarning asosiy vazifasi bo'lib kelmoqda. Komiklik va fojaviylik estetik kategoriyalari o'zaro zid bo'lsa-da, badiiy ijodda o'zaro aloqadorlikda, uyg'unlikda ifodalanishi mumkin. Faqat dramatik asrlarda emas, balki nasriy asarlarda ham bu hodisa yorqin namoyon bo'ladi. Maqoladan maqsad hozirgi o'zbek nasri, xususan, qissalarda komiklik va fojaviylik mushtarakligi muallif estetik

ideali, badiiy g'oya va xarakterlar bilan bog'liq badiiylik ko'rsatkichi bo'lishi mumkinligini Oybek, Mirkarim Osim, Xudoyberdi To'xtaboyev kabilar tadqiq etishdan iborat. Buni amalga oshirishda komiklik va fojaviylik estetik kategoriyalarning umumiy va xususiy jihatlari, o'zaro ta'sir va aloqalarini o'rganish, komiklik va fojaviylik uyg'unligi badiiylik talablaridan biri ekanligini isbotlash va ta'lim tizimiga nutqiy salohiyatni rivojlantirish konsepsiyasini joriy qilish, "Mustafo", "To'maris" qissalarida komiklik va fojaviylik uyg'unligi bosh qahramon xarakteri bilan bog'liqligini yoritish, komik pafosning tragizm bilan almashinuvini tekshirish kabi masalalar asosiy vazifalmizdir.

Badiiy asarlardan estetik tahlilga tayanib ma'naviy saboq berish, yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ham jisman, ham ruhan tetik, baquvvat, komil shaxslarni shakllantirish, ularning nutqiy pazitsiyalarini taraqqiy qildirish o'qituvchi va adabiy ta'limning birinchi vazifalaridan biridir.

O'qituvchi adabiy talqin usulidan foydalanib o'quvchilarni asar mazmunini to'la va chuqur tushunishlari uchun yo'nalish berishi maqsadga muvofiqdir. Shundan keyingina o'quvchilar diqqati yozuvchi uslubining aniq ifodasi – asarning badiiy tiliga qaratiladi.

Tasvir ob'ektiga nisbatan muallif munosabatining noaniqligi natijasida ba'zi asarlar qandaydir mavhumlik tumani ichida qoladi, muallifning estetik konsepsiyasi ham shu tuman ichida ko'rinmay ketadi aniq va ravshandir.

Chinakam o'qituvchi hayotiy hodisalarni, tarixiy shaxslar obrazini shunchaki tasvirlash yo'ldan bormaydi, balki shaxsning murakkab insoniy qiyofasini yaratish orqali shaxs xarakterining ziddiyatli jihatlarni badiiy tadqiq etadi. Shu ziddiyatlar asosini, mohiyatini ochib beradi. Shaxsning o'z e'tiqodi uchun, maqsadi uchun olib borgan kurashi timsolida u yashagan davr ziddiyatlarini, davrning ijtimoiy-sinfiy qarama-qarshiliklarini, shart-sharoitlarini ko'radi va ularni inson taqdiri misolida haqqoniy va ta'sirchan tasvirlashga intilib harakat qiladi. Tasvir ob'ektiga nisbatan, aniq, konkret va to'g'ri munosabatda turib ijod etgan adib asarining g'oyaviy salmog'i ham, badiiy tasvirchanligi ham yorqin ko'zga tashlanishi, aniq his etiladi.

O'quv - didaktik tahlil pedagogik jarayonda o'quvchilar bilan birgalikda badiiy asarni o'rganish, tahlillash, tadqiq qilish, uning bag'riga yashiringan ma'rifiy - ma'naviy, estetik mo'jizaviy qudratini idrok etish, shuningdek, badiiy asarlarning muloqot - kommunikativ, baholash - aksiologik, tarbiyaviy - axloqiy, zavqlantirish - gedonistik, bilish - gneseologik kabi vazifalaridan quvvatlanish imkoniga ega bo'lish tushuniladi. Manbalarda didaktik tahlilga ta'rif "O'rganilayotgan badiiy asardagi tasvirning hozirgi hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglash orqali o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan va jamoa shaklida amalga oshiriladigan estetik -

pedagogik faoliyatdir tarzida berilmoqda. Afsuski , adabiyot muallimlarimizning aksariyatida badiiy asarlarning o'quv - tahliliga yondashuv hamon eskiligicha , tahlil tamoyillariga nomuvofiqligicha qolib kelmoqda. Unga ko'ra adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarni ba diiy asardan berilgan parcha bilan tanishtiradi , o'quvchi badiiy matnni o'qiydi , lirik asarlari hajmiga qarab yod oladi yoki o'qib qo'ya qoladi . Tahlil jarayonida esa , asar dan olingan taassurotlar aytib beriladi , asar voqealari bir chetdan bayon qilinadi , asar sujeti qayta hikoya qilinadi , she'riy asarning yod olingan qismi aytib berila di . O'qituvchi o'quvchining bayonchilik uquvini , she'riy asarni yod olganligi yoki asar haqida bildirgan umumiy fikrlarini bilim , adabiy idrok , badiiy tahlil sifatida qabul qiladi , baholaydi . Tahlil jarayonining bunday tashkil eti lishi o'quvchilarga yod bo'lib ketganligi uchun ular asar bag'ridan yangi kashfiyotlar qilishga , badiiy topilmalarni izlab topishga hamda o'z " evrika " lari bilan zavqlanishga; mustaqil tadqiqiy ishlarni olib borishga kirishmay qo'ya qolishmoqda. Ular uchun asarda aks etgan voqealar dan xabardorlik , sujetni birma - bir aytib berish bilim hamda a'lo baho olishning zaruriy sharti hisoblanadi . Xo'sh , bugungi kun o'quvchisini qanday qilib badiiy asarlarni o'qish , uni idrok etishga jalb etish mumkin ? Qanday pedagogik tadbirlar qo'llansa , adabiy ta'limdan ko'zlan gan maqsadlar to'la bo'y ko'rsatadi? O'quv - didaktik tahlilni ilmiy - filologik tahlilga yaqinlashtirish , uning tahliliy ko'lamini kengaytirish , o'quvchilar da tadqiqotchilik faoliyati , mustaqil fikr yuritish iqtidorini qanday qilib yanada shakllantirish mumkin? Psixologiya ilmida bolalarda qiziqish xususiyati shaxsiy ehti yo'lar , yangiliklar , biror faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik omil lari tufayli ortishi ta'kidlanadi. Dars jarayoniga olib kiriladigan pedagogik yangilik o'quvchining o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi , uni faollikka undaydi , bilim olishga bo'lgan qiziqishini orttiradi . Demak , o'qituvchida kreativlik , novatorlik , kasbiy kompetentlik qanchalik yuqori bo'lsa , ta'lim sifati shunchalik yuksalib boraveradi . Badiiy asarning o'quv - didaktik tahliliga analitik yondashuv adabiy ta'limni modernizatsiyalashning muhim omillaridan biridir.

Badiiy ijodning yana bir muhim unsuri — tasavvur. San'atkorning ijodiy tasavvuri xotirada mavjud fakt va taassurotlardan keraklilarini(ijodiy niyat bilan bog`liq ravishda) uyg`otib, ularni «jonlantirish», muayyan tartibga solingan manzara holida "ko`rish" imkonini beriladi. Ya'ni, ijodiy tasavvur tanlab olingan hayot materialini (dispozitsiyani) badiiy asarga (kompozitsiyaga) aylantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Zero, material har qancha boy bo`lganida ham, undagi bir-biriga bog`lanmagan faktlarini uzviy aloqador etish, bir butunga birlashtirish uchun ijodiy tasavvur quvvati benihoya muhim hisoblanadi. [Chunki materialni](#), hayotdan olingan faktlarni jonlantirish badiiy to`qimani taqozo etadi, badiiy to`qimaning darajasi esa san'atkorning ijodiy tasavvur imkoniga bevosita

bog`liqdir. Shu boisdan o`quvchiga ham har tomonlama ijod baxsh etadigan tomonini ko`rsata bilish kerakdir. Bas, badiiy asarning hayotdan olingan nusxa emas, chinakam ijod (yaratish) mahsuli bo`lishini ta'min etadigan unsur ijodiy tasavvurdir. Ijodiy tasavvur hayotda ko`pchilik nazarga ilmagan oddiygina narsani ham kishini larzaga soluvchi badiiyat hodisasiga aylantirishga qodir. Masalan, Gogolning ijodiy tasavvur quvvati oddiygina bir latifani «Shinel»dek mashhur qissaga aylantiradi. Yoki, O.Sharafiddinovning ma'lumotiga ko`ra, «Dahshat»(A.Qahhor) hikoyasining yozilishiga xalq o`rtasida ancha keng tarqalgan bir rivoyat turtki bo`lgan» deyilgan. Rivoyatda kelishicha, bir yigit «o`zining dovyurakligini isbot qilish uchun kechasi go`ristonga borib, tobutga pichoq sanchib kelmoqchi bo`ladi. Biroq u o`rnidan turib qaytayotganda arvoq uning etagidan tortqilab, ketishiga yo`l qo`ymaydi. Yigit qo`rqib ketib, jon taslim qiladi». Shu rivoyat bilan «Dahshat» qiyoslab ko`rilsa, ijodiy tasavurning nechog`li muhimligi yaqqol ko`riladi. Zero, rivoyat A.Qahhorga o`zini o`rtagan dardlarni ifodalash uchun oddiygina qolip, «sxema» bo`lib xizmat qildi, xolos; hikoyadagi [tasvirlangan hayotiy holatlar](#), Unsin, Nodirmohbegim singari betakror obrazlar esa san'atkorning tasavvur qudrati bilan dunyoga keldi.

O`qituvchining asosiy vazifasi o`quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Chunki, o`quvchining badiiyatni his qilish holati uning ruhiyati bilan bog`lansa, badiiy asarni o`qib o`rganish jarayonida undan hayotiy xulosalar chiqarish, ma`naviy saboq olishga, ong va hissiyotining ta`lim maqsadiga ko`ra rivojlanishi didaktika bilan bog`lanadi; o`quvchining adabiy tahlil talablarini o`rganishi, adabiy asarning qurilishi va janriga oid bilimlarni o`zlashtirib, badiiy ijod qonuniyatlari talablariga moc tarzda bu bilimlarga tayanib amaliy ish yuritishi, ijodiy fikrlashi – metodika bilan bog`lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O`qituvchi 2011.
2. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdon,2019.- 420 b

Telegram saytlari va axborot manbalari.

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyonet.Uz

ИНГИБИТОРЫ ЯНУС-КИНАЗЫ В ЛЕЧЕНИИ ОЧАГОВОЙ АЛОПЕЦИИ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Низаматдинова Б.М.

Ташкентская медицинская академия,

Аннотация: Очаговая алопеция (ОА) представляет собой хроническую иммуноопосредованную форму нерубцовой алопеции, которая является многофакторной и приводит к локализованным очагам выпадения волос. Хотя на данный момент разработаны и испытаны множество методов лечения для ОА, нет специального лечения, которое было бы одобрено, что привело к появлению многих нестандартных традиционных вариантов лечения очень ограниченными ответами на лечение. Совсем недавно, с развитием доклинических и генетических исследования, было внедрено таргетная терапия, в которой используются небольшие молекулы для блокирования специфических путей, вовлеченных в патофизиологию ОА. Таким образом появились ингибиторы янус-киназы (JAK) для лечения ОА. Ингибиторы JAK блокируют T-клеточно-опосредованный иммунный ответ который является основным фактором в патогенезе ОА, что приводит к прекращению выпадения волос у пациентов с ОА.

Ключевые слова: янус-киназа, сигнальный путь JAK-STAT, руксолитиниб, тофацитиниб

Очаговая алопеция (ОА), также известная как аутоиммунная алопеция, представляет собой форму нерубцовой алопеции и является наиболее распространенной иммуноопосредованной причиной выпадения волос во всем мире[1]. Распространенность заболевания на уровне 0,1%, пожизненный риск около 2%, при этом от 10% до 20% пораженных лиц имеют положительный семейной анамнез[2]. ОА не зависит от этнической принадлежности и затрагивает обоих мужчин и женщин любого возраста. Хотя было отмечено, что 80% случаев происходят до достижения 40 лет, 50% этих случаев начинаются в детстве и часто связаны с другими аутоиммунными заболеваниями, такие как системная красная волчанка (СКВ), атопический дерматит и аутоиммунные заболевания щитовидной железы, и это лишь некоторые из них[3].

Ранее этиология ОА была в значительной степени неизвестна. Однако в последнее время все больше исследований были сосредоточены на более глубоком понимании молекулярной биологии и аутоиммунных путей, лежащих в основе патофизиологии заболевания. Различные исследования показали, что патогенез ОА в значительной степени связан с атакой волосяных фолликулов аутореактивными T-клетками CD8, активированными янус-киназой (JAK) —

преобразователем сигнала и сигнальным активатором транскрипции (STAT)[4]. Кроме того, данные геномных исследований с использованием моделей мышей с ОА показали критическую роль передачи сигналов JAK в патогенезе заболевания. Эти исследования показали, что передача сигналов JAK-STAT, особенно JAK 1/2 и JAK 1/3, приводит к Т-клеточноопосредованным иммунным реакциям, которые способствуют выработке IFN- γ и IL-15 в волосяных фолликулах и еще больше усиливают воспалительные реакции вокруг этих волосяных фолликулов[5]. Эти результаты привели к появлению таргетной терапии, включающей использование ингибиторов JAK (JAKis), в надежде обеспечить более эффективную и действенную терапевтическую стратегию для лечения ОА.

